

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA-MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
JAHON SIYOSATI VA TARIX FAKULTETI

UDK:

BBK:

P-

Mo`minov Qobuljon

**Eron va Rossiya o`rtasidagi iqtisodiy-siyosiy
hamkorlikning rivojlanish tarixi (1991-2010 yy.)**

**5A220204-Tarixshunoslik, manbashunoslik
va tarixiy tadqiqotlar metodlari mutaxassisligi**

Magistrlik akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA SI

Ilmiy rahbar: t.f.n., dotsent
Xudoyberdiev A.X.

Toshkent 2012

Eron va Rossiya o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy hamkorlikning rivojlanish tarixi (1991-2010 yy.)

Bajardi: Mo'aminov Qobuljon

Ilmiy rahbar: t.f.n., dotsent Xudoyberdiev A.X.

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. XX asr insoniyat tarixida misli ko'rilmagan voqealarga boy asr bo'ldi. Uning 90-yillari esa jahon siyosiy xaritasi va jarayonlarida tub o'zgarishlarni boshlab bergan bir qator voqeliklarni yuzaga keltirdi. Prezident Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'kidlaganlaridek: "Bu asr jahon hamjamiyatining jug'rofiy - siyosiy tuzilishiga tub o'zgarishlar davri bo'lib kirdi. Endilikda, butun dunyo yagona va o'zaro bog'liqdir".¹ Avvalo, Sobiq Ittifoq parchalanishi, xalqaro maydondagi bipolyar tizimni tugatilishi va "sovuq urushi" davrining yakunlanishi bilan davlatlar tashqi aloqalarini o'rganish, ularning tarixiy jihatlarini aniqlash dolzarb masalalarga aylandi. Jumladan, uzoq va boy o'tmishga ega Eron tashqi aloqalarining o'ziga xos jihatlarini, tarixiy bosqichlarini tahlil etish va muayyan tendensiyalarini ochib berish muhim ahamiyat kasb eta boshladi.

Ta'kidlash joizki, Eron bevosita Markaziy Osiyo mintaqasining chegarasida joylashgan bo'lib, tarixan mintaqamizga o'z ta'sirini namoyish etib kelgan. Bu ta'sirni jahondagi ilk imperiya Ahamoniylar davridan to bugungi kungacha, Eron Islom Respublikasi e'lon qilingandan keyingi darvda ham kuzatish mumkin. Shundan kelib chiqqan holda Eron Islom Respublikasini Markaziy Osiyo va O'rta Sharqdagi yetakchi davlat sifatida Rossiya Federatsiyasini bilan o'zaro munosabatlari tarixi va uning kelgusi istiqbollari ilmiy tadqiq etish Markaziy Osiyoda yetakchi davlatlardan biri sifatida O'zbekiston uchun ham o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Buni quyidagi omillar bilan izohlash mumkin:

Birinchidan, Eron tarixan qulay geografik muhitda joylashgan bo'lib, Markaziy Osiyo davlatlarining dengizga va jahon bozoriga chiqishida strategik ahamiyat kasb etadi;

¹ Karimov I. A. Milliy davlatchilik va huquqiy madaniyat to'g'risida. – Toshkent: O'zbekiston, 1999. – B.38.

Ikkinchidan, Eron ulkan tarixiy tajriba va davlatchilikka ega mamlakat hisoblanadi;

Uchinchidan, Eron jahondagi nizolarga boy Yaqin va O'rta Sharq mintaqasining nisbatan siyosiy, hududiy va iqtisodiy jihatdan nufuzga ega davlati hisoblanadi;

To'rtinchidan, mazkur mamlakat yirik energetik zahiralarga ega bo'lib, yetakchi davlatlar e'tiborini o'ziga doimo jalb etib kelgan. Eron Islom Respublikasi jahon gazining 16% va neft zaxirasining 11%ga egalik qilishi haqidagi ma'lumotning o'ziyoq fikrimizni yorqin misoli bo'la oladi².

Beshinchidan, Eronning yadroviy dasturini rivojlantirish siyosatinnig davom etishi va uning tevaragidagi yetakchi davlatlar tomonidan tashkil etilib kelinayotgan turli siyosiy "o'yinlar" va ularning Markaziy Osiyodagi barqaror siyosiy vaziyatga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmasligi shular jumlasidandir.

Yuqorida sanab o'tilgan omillar Eron tashqi aloqalarining tarixiy xususiyatlarini tadqiq etgan holda istiqboldagi Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari jumladan, O'zbekiston bilan munosabatlarini o'rganishda ham muhim ahamiyatga ega.

Ikki yuz ellik yildan buyon yetakchi davlat sifatida Rossiya Federatsiyasi tarixan va bugungi kunda Eronning eng yaqin va ishonchli hamkorlaridan hisoblanadi. Eron va Rossiyada milliy davlatchilikning tashkil topishi o'zaro aloqalarning kengayishiga olib kelgan. Ikki davlatning kuch-qudrati turli ko'rinishda bo'lib, har ikkisinining manfaati doimo mushtarak bo'lib kelgan. Eronning Rossiya bilan munosabatlari shakllanishi Safaviy hukmdorligiga, XVI asrga borib taqaladi. Biroq faol siyosiy va elchilik aloqalari Og'a Muhamadxon Xojar va Yekaterina II hukmronlik davrlarida, Eron va Rossiyaning Kavkaz va Kaspiyga qiziqishlari kuchaygan va o'zaro manfaatlari to'qnashgan paytdan boshlangan. XIX asrda turli ko'rinishdagi urushlarni boshdan kechirishgan va o'zaro aloqalari tarixiy sharoitlar ta'sirida turlicha ahamiyat kasb etgan. Shu

² Winnie R. Iran: Russia's strategic new – Client // Russiabeyond the Headlines. – 2010. – №2. – P. 12.

bois Eron-Rossiya munosabatlarini tadqiq etishning uch bosqichini ajratib ko'rsatish mumkin³:

1. Chor Rossiyasi davridagidagi o'zaro aloqalar;
2. Sobiq Ittifoq davridagi Eron-Rossiya munosabatlari;
3. Yangi davrda ya'ni, bugungi kundagi Rossiya Federatsiyasi va Eron Islom Respublikasi o'rtasidagi hamkorlik.

Xulosa qilib aytganda, Eron-Rossiya hamkorligi tarixan uzoq o'tmishga ega bo'lib, bu aloqalar turli savdo-sodiq, mahsulot ayriboshlash, elchilik aloqalari orqali namoyon bo'lgan va rivojlanib kelgan. Ikki mamlakat hududida milliy davlatchilikning shakllanishi esa barqaror aloqalarni yo'lga qo'yish, manfaatlarni har qanday vositalar, qurolli kuchlar bilan himoya qilish holatlari ham Eron-Rossiya aloqalari tarixida yuz bergan. Ularning bu kabi aloqalari bevosita o'rta hududga aylangan Markaziy Osiyoda shakllangan siyosiy-iqtisodiy muhitga ta'sir etib kelgan. Bugungi kunda Eron-Rossiya aloqalarining asosiy tendensiyalarini ochib berish, O'zbekiston tashqi siyosatini belgilashda ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Prezident I. A. Karimov ta'kidlaganlaridek: "Faqat bahs, munozara, tahlil mevasi bo'lgan xulosalargina bizga to'g'ri yo'l ko'rsatishi mumkin"⁴

Tadqiqot obyekti va predmeti. XX asrning so'ngi va XXI asrning dastlabki o'n yilligida Rossiya Federatsiyasining Eron Islom Respublikasi bilan olib borgan iqtisodiy, siyosiy, harbiy-energetika, ilmiy-texnik va madaniy sohadagi hamkorligi tarixini ilmiy jihatdan yoritib berish tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Bu ikki davlat o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy va boshqa turli sohalarda olib borilgan aloqalar tadqiqot ishining predmeti bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Magistrlik dissertatsiyasining maqsadi XX asrning 90-yillaridan so'nggi davrda va XXI asrning dastlabki o'n yilligida

³ Заходер Б. Н. Ширазский купец на Поволжье в 1438г. // Краткие сообщения Института востоковедения АН СССР. – Москва: Наук, 1955. – С. 29-31.

⁴Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Шарқ, 1998. – Б.6.

Eron-Rossiya aloqalarining o'ziga xos jihatlarini ilmiy tomondan ochib berish va asosiy tendensiyalarini tadqiq etishdan iborat.

Mazkur maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagilar magistrlik dissertatsiyasining vazifalari sifatida belgilab olindi:

- Eronning zamonaviy davrda yetakchi davlatlari bilan aloqalarini tadqiq etishda O'rta Sharq mintaqasining xususiyatlarini ochib berish;
- Eron-Rossiya aloqalarining zamonaviy tarixdagi o'ziga xos jihatlarini tahlil etish;
- harbiy va energetik xavfsizlikni ta'minlash sohasida Rossiya-Eron aloqalarining tarixiy va bugungi kundagi holatini yoritish;
- Eron-Rossiya tashqi iqtisodiy-siyosiy aloqalari shakllanishining tarixi va ularni ikki davlat aloqalariga ta'siri hamda ahamiyatini ko'rsatib berish;
- Eron-Rossiya aloqalarini Kaspiy mintaqasidagi barqarorlik faktori sifatida ko'rsatib berish;
- Kaspiy mintaqasidagi murakkab geosiyosiy vaziyat va kompleks muammolarni tartibga solishda ikki tomonlama hamkorlikka obyektiv baho berish;
- Yaqin va O'rta Sharq mintaqasidagi nizolarni hal etishda Eron-Rossiya hamkorligining ustivor yo'nalishlarini yoritib, ilmiy tahlil etish.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Yaqin va O'rta Sharq mintaqasi, Markaziy Osiyo va Kavkazdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda Eron-Rossiya munosabatlarini tahlil etish, xalqaro xavfsizlik va mintaqaviy masalalardagi o'zaro hamkorlikning asosiy tendensiyalarini ochib berish asnosida quyidagilar ilmiy ishning asosiy masalalari va farazlari sifatida belgilanadi:

- har ikki davlat ham tarixan bir-biri uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi iqtisodiy-savdo hamkori bo'lib kelgan;
- Eron-Rossiya o'rtasida “tinchlik dengizi” hisoblangan Kaspiy mintaqasida xavfsizlikni ta'minlash, unga egalik qilishdagi

huquqlarni taqsimlash va tasdiqlash borasida manfaatlar mushtarakligi;

- ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik asosan mintaqaviy manfaatlar doirasidan kelib chiqib amalga oshirilmoqda;
- mintaqaviy xavfsizlikning bosh omilini davlatlar o'rtasidagi harbiy-energetik hamkorlik tashkil etadi.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili. Zamonaviy tarixda xalqaro munosabatlar, mazkur tizimda Rossiya-Eron aloqalarini, g'arblik siyosatshunos tarixchilardan Z. Bzejinskiy, G. Kissenjer, S. Bagdasarov, A. N. Chavushyan, K. Xerestin, J. Elliot, M. Ekonomides, R. Olini, Ye. A. Orlov, S. P. Xuntington, M. N. Katz, V. F. Endgel, B. N. Zaxoder, Yu. V. Barsegov⁵; K. S. Gadjiev⁶; A. V. Dmitriev, P. L. Karabushenko, R. X. Usmanov⁷; S. S. Jilsov, I. S. Zonn⁸; I. B. Ejiev⁹ va boshqa olimlar tomonidan tadqiq etilgan¹⁰.

O'rta Sharq mintaqasi xususiyatlari, mintaqa davlatlari, jumladan, Eron davlati tashqi siyosati va Rossiya Federatsiyasining Yaqin va O'rta Sharqdagi siyosiy faoliyati, Eron-Rossiya hamkorligi, uning O'zbekiston uchun ahamiyati

⁵ Барсегов Ю. В. Каспий в международном праве и мировой политике. – Москва, 1998.

⁶ Гаджиев К. С. Геополитика Кавказа. – Москва: Наука, 2001.

⁷ Дмитриев А. В., Карабушенко П. Л., Усманов Р. Х. Геополитика Каспийского региона (взгляд из России). Астрахань: Наука, 2004.

⁸ Жильцов С. С., Зонн И. С. Новый Каспий (география, экономика, политика). – Москва: Наука, 2008.

⁹ Эжиев И. Б. Геополитика Каспийского региона. – Москва: Наука, 2007.

¹⁰ Бжезинский З. Великая шахматная доска: господство Америки и его геостратегические императивы. – Москва: Наука, 1998; Киссенджер Г. Дипломатия. – Москва: Наука, 1997; Багдасаров С. Б. и Чавушьян А. Н. Военный и военно экономически потенциал стран Ближнего Среднего Востока. (информационно – аналитический справочник, совместно с ИВ РАН). – Москва: Асти-Издат, 1998; Khrestin I., Elliott J. Russia and the Middle East // Middle East Quarterly – Москва: Экономидес, Winter 2007; Олини Р. Цвет нефти. Крупнейший мировой бизнес: история, деньги и политика// Пер. с англ. – Москва: ЗАО Олимп-Бизнес, 2004; Huntington S. P. The Clash of Civilizations? // Foreign Affairs. – London: Summer, V. 72, – № 3. 1993. Хантингтон С. Столкновение цивилизаций/Полис. – №1, – Москва: Наука. 1994. Katz M. N. Russia: Geopolitical vs. Geoeconomic Interests // http://www.metimes.com/International/2008/07/09/russia_geopolitical_vs_geoeconomic_interests/8705/ – July 09, 2008; Хаас Р. Эпоха беспоплярного мира //Россия в глобальной политике. – № 4, Июль-Август. – Москва: Наука, 2008; Лавров С. В. Россия и мир в XXI веке // Россия в глобальной политике. – № 4, Июль-Август, – Москва: Наука, 20. 07. 2008; Возжеников В. Национальная безопасность: теория, практика, стратегия – Москва: НПО Модуль, 2000; Сергунин А. Проблемы национальной и международной безопасности в российской теории МО // Социология и политика. – Москва: Наука, – №2. 2004; Арбатов А. Национальная безопасность в многополярном мире // Мировая политика и международная отношения. – Москва: Наук, – №10. 2000; 3. Мухаев Р. Т. Политология. – Москва: Издательство ПРИОР, 2002.

mahalliy tadqiqotchi va olimlar B. T. G'iyosov, K. S. Azimov, Yu. N. Abdullaev, G. I. Yuldasheva, A. M. Qosimov, S. M. G'ofurov, A. Rahmatov, N. Karimova, S. S. Sharapova, A. Sharapov va boshqa olimlar tomonidan chop etilgan turli kitob, o'quv qo'llanmalari, monografiyalari va ilmiy maqolalarda yoritib o'tilgan¹¹.

Magistrlik dissertatsiyasini tayyorlashda MDH va Rossiyalik olim va tadqiqotchilar V. A. Skosirev, V. I. Sajin, L. I. Sklyarov, N. Mamedova, G. Minasyan, D. Kasatkin, A. Gribach, S. Kameneva, A. Petrov, A. S. Protopopov, V. M. Kozmenko, N. S. Elmanova, S. Medvedev, R. Menon, S. Karaganov, V. Muxamedshin, G. Sityanskiy, G. Mirskiy, L. Larush, M. Perinchenko, A. Kroys, G. A. Drobot, A. B. Reznikov¹², S. L. Agaev¹³, L. Ye. Avdeyeva¹⁴, S. M. Aliev¹⁵, N. M. Mamedova¹⁶, A. Arabadjyan¹⁷, N. Yu. Ulchenko,¹⁸ va boshqalarning mazkur muammoga bevosita yoki bilvosita to'xtilib o'tishgan

¹¹Сафоев С. Марказий Осиёда кечаётган геосиёсий жараёнлар ва минтаканинг ҳозирги дунё халқаро муносабатлар тизимида тутган ўрни // Халқаро муносабатлар. – Тошкент: Шарқ, – №3 2005; Умаров Х. П. Ўзбекистон Республикаси геосиёсий ҳолатининг геостратегик хусусиятлари. Сиёсий фанлар номзоди илмий даражасини олиш учун дисс. автореферати. – Тошкент. 2004; Алимов Р. М. Центральная Азия: обоюдность интересов. – Тошкент: Шарқ, 2005; Шарапова С., Каримова Н., Шарапов А. Внутренняя и внешняя политика зарубежных стран Востока и Запада, – Тошкент: Фан, 2006; Гиясов Б. Т. Дипломатия Египта. – Тошкент: Шарқ, 2000; Гиясов Б. Т. Хусни Мубарак-политик и дипломат. – Тошкент: Шарқ, 1999; Азимов А. Саудовская Аравия и её внутренняя политика // Маяк Востока, 2000. – № 6; Азимов К. С. Государство Иордании в современной политической системе на Ближнем Востоке. // Азия и Африка сегодня. – Москва: Наука, – №8 2003;

¹² Резников А. Б. Иран: падение шахского режима. – Москва. Наука, 1983.

¹³ Агаев С. Л. Иран в прошлом и в настоящем. – Москва: Наука, 1981; Он же. Иранская революция, США и международная безопасность. – Москва: Наука, 1984; Он же. Иран: рождение республики. – Москва: Наука, 1984.

¹⁴ Авдеева Л. Е. Иранская революция 1978-1979 гг. – Москва: Наука, 1989.

¹⁵ Алиев С. М. Нефть и общественно-политическое развитие Ирана в XX веке. – Москва: Наука, 1985.

¹⁶ Мамедова Н. М. Концентрация производства и капитала в Иране в 60-70 -е годы. – Москва: Наука, 1982; Она же. Иранская экономика и глобализация // Азия и Африка сегодня. – Москва: Наука, – № 4, 2008.; Она же. Ислам и развитие Ирана в начале XXI века // Россия и мусульманский мир. – Москва: Наука, – № 4. 2006.

¹⁷ Арабаджян А. Иранская революция: причины и уроки // Азия и Африка сегодня. – Москва: Наука, 1986.

¹⁸ Ульченко Н. Ю., Мамедова Н. М. Особенности экономического развития современных мусульманских государств (на примере Турции и Ирана). – Москва: Наука, 2006.

ilmiy asarlar, kitoblar, o'quv qo'llanmalar, jurnal, gazeta va internet manbalarida chop etilgan maqolalaridan keng foydalanildi¹⁹.

Shuningdek ikki davlat tashqi ishlar vazirliklarining internetdagi rasmiy web saytlaridagi o'zaro munosabatlarga doir ma'lumotlardan ham foydalanildi.

Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi. Mazkur mavzuni o'rganishda avvalo, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning milliy davlatchilik tarixi, mamlakat taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari, milliy ma'naviyatni yuksaltirishga qaratilgan tashqi siyosat masalalari keng va har tomonlama yoritib berilgan asarlariga va xalqaro tashkilotlar doirasida O'zbekiston yondoshuvi yuzasidan so'zlagan nutqlariga tayanildi²⁰.

¹⁹ Петров А. Россия – Иран. Что показывает барометр экономического сотрудничества // Азия и Африка сегодня. – №10. – Москва: Наука, 2000; Скосырев В. А. Иран в ожидании от тепелли // Азия и Африка сегодня. – Москва: Наука, – №2. 2000.; Касаткин Д. Россия-Иран: новые ориентиры научного и культурного сотрудничества // Азия и Африка сегодня. – Москва: Наука, – №12. 2007; Каменева М. С. Россия – Иран: История и Современность // Восток. – Москва: Наука, – №4 2009; Грибач А. Голубой поток превращается в кольцо // Ведомости. – Москва: Наука, 25.10.2005; Минасян Г. Россия и США: соперничества на Кавказе и в Центральной Азии // Азия и Африка сегодня. – Москва: Наука, – №10. 2007; Менон Р. После империи: Россия и южная часть ближнего зарубежья // США и Канада: э.н.к. – №5. 1999; Карагонов С. Проблемы защиты интересов российски ориентированного в Ближнем зарубежье // Дипломатический вестник – №21,22; Мухамедшин В. Россия: азиатский вектор. Труд, 22.10.2004; Ситянский Г. Откуда исходит угроза России // Азия и Африка сегодня – №12, 1997; Георгий Мирский. Большой Ближний Восток-самый конфликтный регион мира // <http://www.wpec.ru/text/200704171449.htm>; Линдон Ларуш. Ближний Восток: нефть и вода // Завтра – №27 (450) от 27.07.2002.

²⁰ Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997; Каримов И. А. Биз танлаган йўл-демократик тараққиёт йўли. 11-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2003; Каримов И. А. Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз куч-қудратимизга, ҳамжиҳатлигимиз ва қатъий иродамизга боғлиқ. 12-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2004; Каримов И. А. Ўзбек халқи ҳеч қачон ҳеч кимга қарам бўлмайди. 13-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005; Каримов И. А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда манфаатлари энг-олий қадрият. 14-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2007; Каримов И. А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари – Тошкент: Ўзбекистон, 2009; Каримов И. А. Юсак маънавият-енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008.; Мамлакатимизда демократик ислохатларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Президент Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маърузаси. // Халқ сўзи, 2010 йил 13-ноябрь; Мамлакатимизни модернизация қилиш йўлини изчил давом эттириш-тараққиётимизнинг муҳим омили. Президент Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 18 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. // Халқ сўзи, 2010 йил 8-декабрь; Каримов И. А. Бизнинг бош мақсадимиз-жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005.

Prezidentning tarixni o'rganishda aniq va real voqealarga tayanish kerak, degan fikrlari asosida mavzu ilmiy-metodologik me'yorlar doirasida yoritishga harakat qilindi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov asarlaridagi nazariy yondashuvlar ishning metodologik asosi qilib olindi. Xususan "Vatan sajdagoh kabi maqaddasdir", "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari", "Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq" kabi asarlaridan, bundan tashqari O'zbekistonda mustaqillik yillari chop etilgan ilmiy asarlar hamda davriy matbuot nashrlaridan ham keng foydalanildi. Eron va Rossiya o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni o'rganishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishining o'ziga xos yo'li", "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida" kabi asarlari nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Mazkur dissertatsiya Eron va Rossiya davlatchiligi va o'zaro diplomatik munosabatlari zamonaviy tarixini tadqiq etishda muhim ma'lumotlarni qamrab olgan bo'lib, tarix va siyosatshunoslik yo'nalishida tahsil olayotgan, Eron Islom Respublikasi ichki va tashqi siyosati borasida izlanish olib borayotgan talabalar, ilmiy xodimlar, shuningdek, xalqaro munosabatlar yo'nalishidagi talabalar uchun ilmiy-amaliy qo'llanma sifatida tavsiya etiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Magistrlik dissertatsiyasida zamonaviy davrdagi Rossiya-Eron munosabatlarining siyosiy tahlili va yondoshuvlaridan farqli ravishda ilk bor ilmiy tadqiqot ishi sifatida zamonaviy tarix nuqtai-nazaridan kelib chiqqan holda ilmiy tahlil etishga harakat qilindi. Shundan kelib chiqqan holda tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- Eron-Rossiya munosabatlarining tarixiy jihatlari ikki davlat aloqalari shakllanishining mintaqaviy xususiyatlari, harbiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hamkorligining tarixiy va zamonaviy tendensiyalarini zamonaviy tarix nuqtai-nazaridan ilmiy tahlil etilishi;

- Yaqin va O'rta Sharq muammolari, shuningdek Kaspiy mintaqasida o'z ta'sir doirasini o'rnatishga uringan ko'plab mamlakatlar va ularning manfaatlari har ikki davlat munosabatlariga to'qnash kelish sabablarini obyektiv va subyektiv jihatdan yoritilishi;
- Kaspiy dengizi mintaqasidagi mavjud murakkab geosiyosiy masalalarni hal etishda har ikki davlat hamkorligi va qo'llayotgan vositalarini chuqur, har tomonlama, obyektiv tadqiq etish;
- aynan yuqorida sanab o'tilgan sabab va omillardan kelib chiqqan holda Eron-Rossiya o'rtasidagi harbiy va energetika borasidagi hamkorlik, shuningdek Eron yadro dasturini amalga oshirilishi, takomillashtirilishida Rossiyaning o'rni hamda ushbu dasturning faqat tinchlik maqsadida ekanligi borasidagi ikki davlat qarashlari va bunga zid bo'lgan AQSh boshchiligida G'arb davlatlari qarashlarining o'zaro qiyosiy tahlili;
- mavzu yuzasidan ingliz, rus va fors tilidagi adabiyotlar, monografiyalar, ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, har ikki mamlakat olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining o'zbek tiliga tarjimasi va ularning tahlili yuzasidan xolisona, ilmiy yondoshuv;
- Eron-Rossiya hamkorligini kuchaytirgan va kuchaytirayotgan, ularni strategik sherikchilik, muammolarni hal etishda birgalikdagi harakati va umumiy qiziqishlari turli faktorlar yordamida, jumladan geopolitik va mintaqaviy tashkilotlarda ishtirok etish faktori, Amerika faktori, iqtisodiy potentsial, Rossiya konversiyasi va harbiy factor kabi bir qator faktorlar asosida tasniflab berilishi;
- ikki davlat munosabatlarida Markaziy Osiyoning, xususan bu hududda yetakchi davlat sifatida O'zbekistonning o'rni va roli, shuningdek O'zbekiston tashqi siyosatida bu ikki davlat aloqalarining ta'siri va ahamiyati har uchala davlatning so'ngi ikki o'n yillikda olib borgan tashqi siyosiy faoliyatlari xalqaro aloqalarning zamonaviy

tarixini ilmiy qarashlar xilma-xilligi va ularning qiyosiy tahlil etilishi kabi bir qator urinishlar dissertatsiyaning ilmiy yangiligini belgilab beradi.

Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati, hamda tadqiqotga doir ilovalardan iborat.

Birinchi bob, davlatlararo aloqalar shakllanishining tarixiy jarayonlari va bosqichlarini o'zida aks ettirib, ularning tarixiy sharoitlardan kelib chiqib qanday ahamiyat kasb etganligi, shakllanishi va rivojlanib borish tartibida o'z ifodasini topgan. Bundan tashqari, ikki davlat aloqalarining o'tmishdagi ahvoli, ularning o'ziga xos xususiyatlari ilmiy tahlil etilgan. Shuningdek, SSSR tashkil topgandan so'ng ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar va ularning asosiy tendensiyalari hamda Eron Islom Respublikasi tashkil etilgach o'zaro aloqlar dinamikasi yoritilgan.

Ikkinchi bob, xalqaro maydondagi bipolyar tizimning yemirilishi va yangi dunyo tartibotini qaror topishi bilan Eron-Rossiya munosabatlarida ham keskin o'zgarishlar yuz berganligi ushbu bobda tahlil etilgan. Ular o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni asosini tashkil etuvchi iqtisodiy, savdo, ilmiy ishlab chiqarish, sanoat, eksport va import mahsulotlarining so'ngi 20 yil ichida ikki davlat o'rtasida tashqi savdo aylanmasi va ularning qiyosiy tahlili bayon etilgan. Shuningdek, har ikki davlat o'rtasidagi harbiy, energetika va xavfsizlikni ta'minlash borasidagi hamkorlikning o'ziga xos jihatlari bayon etilgan. Rossiyaning bu mintaq va dunyoda yetakchi davlat sifatida Eron bilan munosabatlarining yangi bosqichga ko'tarilishi, so'ngi ikki o'n yillikda bu aloqarning rivojlanishi, har ikki davlat uchun ijobiy samarasi va kelgusi istiqbollari ham ko'rsatib berilgan.

Uchinchi bob, har ikki davlat tashqi siyosatida ularning manfaatlari mushtarakligi, tashqi siyosiy faoliyatlarini olib borishda ularning o'zaro qo'llab-quvvatlashi, mintaqaviy xavfsizlik masalalarida, turli xalqaro tashkilotlarda ishtirok etishi va unda manfaatlar to'qnashuvi hamda ularning qiyosiy tahlili

ushbu bobda o'z aksini topgan. Shuningdek, ikki davlat o'rtasidagi madaniy va ilmiy-texnik hamkorlik, uning shakllanish tarixi va kelgusi istiqbollarini tahlil etishga harakat qilingan.

I BOB. DAVLATLARARO ALOQALAR SHAKLLANISHINING TARIXIY JARAYONLARI

I.1. Eron va Rossiya aloqalarining tarixiy ildizlari

Eron va Rossiya o'rtasidagi rasmiy va diplomatik aloqalarning tarixiy ildizlari asosan bundan 500 yil ortda qolgan tarixiy davrga borib taqaladi. Ehtimol, undan ham oldinroq davrlarga borib taqalishi haqida Eron Islom Respublikasining Moskvadagi elchixonasi Madaniyat ishlari bo'yicha katta maslahatchisi Mexdi Sanoyi shunday deydi: "Eron azal-azaldan Sharq va G'arb o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va geostrategik munosabatlar almashinuvi va ularning rivojlanib borishida muhim ko'priq vazifasini o'tab kelgan. Eronning Janubiy Rossiya va Volgabo'yi hududlari bilan aloqalari uzoq tarixiy ildizga ega. Bu hududlarda fors va slavyan xalqlari etnogenezida muhim rol o'ynagan oriy qabilalari istiqomat qilishgan. Oriylarning avlodi skiflar bo'lib, qadimgi fors manbalarida saklar, yunon manbalarida esa sarmat nomi bilan tilga olinadi. Ular sharqiy slavyanlarning fin-ugor va Volgabo'yida yashagan boshqa xalqlarning kelib chiqishida katta rol o'ynagan. Volga daryosi turli asrlar davomida Midiya, Ahamoniylar, Sosoniylar kabi davlatlar bilan bu hududda yashovchi aholi o'rtasida aloqlar olib borilishida o'zining "suv yo'li" vazifasini bajarib kelgan".²¹ Sanoiyning so'zlariga qaraganda bu ikki davlat va millat o'rtasidagi munosabatlar eramizdan oldingi davrlarga ham borib taqaladi. Bundan tashqari islom dinining keng tarqalishi va bu jarayonda Eron madaniyati bilan chambarchas bo'g'lanishi borasida Garvard universiteti professori Richard Frayning ta'kidlashicha, Eron madaniyati musulmon dunyosi madaniyati rivojiga yunon madaniyati xristian rivojiga ko'rsatgan ta'sirdan kam bo'lmagan. Bu esa o'z navbatida musulmon madaniyati bilan bog'liq Eron madaniyatining Rossiya, xususan uning Volgabo'yi hududlari aholisi bilan bo'lgan munosabatlarda muhim rol o'ynaganligidan dalolat beradi.

²¹ Mexdi Санойи. Ирано-Российские отношения в Поволжье. – Москва. 2012. – С. 13.

Eron-Rossiya munosabatlari o'rnatilgan davrdan boshlab to shu kungacha turli ijobiy va salbiy jarayonlarni boshdan kechirib kelgan, aloqalar yuqori cho'qqiga ko'tarilgan va ba'zida aksincha holatlarni ham boshdan kechirgan. Shunga qaramay, ular o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va madaniy hamkorlik natijasida hamda bu hamkorlikda muhim rol o'ynovchi Volgabo'yi shaharlari bo'lmish Astraxan, Saratov va Qozon orqali savdogarlarning muntazam qatnovlari, keyinchalik esa bu qatnovlarni diplomatik munosabatlar tomon yo'nalishi bilan o'zaro manfaatli aloqalarning mustahkam tuguni yuzaga keladi. Xuddi shunday savdogarlardan biri haqida dastlabki ma'lumotlar 1441-yilning Hirot qo'lyozmalarida uchraydi. Unda aytilishicha, Sheroz savdogari Xoji Shamsiddin Muhammad 1438-yilda bu yerdan yevropa sukno(movut)si va rus zig'ir poya tolasidan to'qilgan polotno sotib olib, katta daromad bilan qaytgan.²² Mazkur davrda yirik savdogarlar nafaqat savdo missiyasini, balki davlatlararo diplomatik va siyosiy faoliyatni ham amalga oshirgan. Xuddi shunday savdo va diplomatik munosabatlarni olib boruvchi eronlik Shamaxiy ismli yirik savdogar 1465-yili Moskvada Ivan III qabulida bo'lgan. Tarixchi Karamzinning yozishicha, 1552-yili, keyinchalik 1561-yillarda Shoh Taxmasp I ning elchisi Said Husayn boshchiligidagi elchilarning Rossiyaga kelishi va Ivan IV tomonidan 1569-yili Xoznikov boshchiligidagi elchilarning Eronga yuborilishi bilan diplomatik aloqalar rasman tasdiqlanadi.²³

Bu o'rinda Eron va Rossiyada milliy davlatchilikning tashkil topishi o'zaro aloqalarning kengayishiga olib kelgan. XVI asr boshlarida Eronda qudratli Safaviylar davlati tashkil topdi. Safaviylar hukmdori Abbos I (1587-1628-yy.) davrida Eron Yaqin Sharqdagi kuchli davlatlardan biriga aylandi. Abbos I ichki va tashqi savdoni rivojlantirish va Turkiyaga qarshi kurash uchun sherik izlab bir qator Yevropa davlatlariga, shu jumladan Rossiyaga ham o'z elchilarini yuboradi. Faqatgina 1589-yildan boshlab Moskva va Qazvin o'rtasida muntazam elchilar almashinuvi yo'lga qo'yiladi. Eronliklar ko'pincha

²² Заходер Б. Н. Ширазский купец на Поволжье в 1438 г. // Краткие сообщения Института востоковедения АН СССР. – Москва: 1955. – С.14-19.

²³ Иран сегодня. – Москва, 2003. – №1. – С. 14.

o'zlarining rasmiy va norasmiy vakillarini hamda Fors ko'rfazi mahsulotlarini Rossiyaga va aksincha holatda savbdo qiluvchi yirik savdogarlarni yuborar edi. Faqatgina Xodibek ismli elchi eronlik savdogarlar bilan 1589-yildan 1595-yilgacha uch marta Moskvada bo'lishga muvaffaq bo'lgan.²⁴ 1593-yilda Eronga tashrif buyurgan Vasilevich elchisi shoh saroyida iliq kutib olinadi. Undan so'ng, ya'ni 1594-yilda, turklar bilan urushda va Gruziyani qaytarib olish masalasida ikki tomonlama hamkorlikda kurash olib borish masalalarini muhokama qilish uchun knyaz A.D. Zvenigorodskiy mamlakatga tashrif buyuradi. Abbos I ning Usmoniylarga qarshi urushda sherik izlab olib borgan harakatlaridan yana biri, u tomonidan 1600-yili Moskvaga Husayn Alibek boshchiligida elchilarning yuborilishi edi. Bu elchilar keyinchalik rus saroyi a'yonlari maslahati bilan Germaniya va Ispaniyadagi Gabsburglar imperiyasiga va Rim papasiga ham yordam so'rab murojaat qilishadi. Aynan shu davrdan boshlab Rossiyaning Eron bilan uzviy savdo aloqalari yo'lga qo'yilib rivojlana boshlaydi. Bu ayniqsa ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy va savdo munisabatlaridagi manfaatlar mushtarakligida yaqqol ko'zga tashlanadi. Rossiya orqali Eron va Yevropa mahsulotlarini tranzit qilish nafaqat evropaliklar va eronliklar uchun, balki ruslar uchun ham g'oyat manfaatli hisoblanadi. Bu paytda inglizlar Volga-Kaspiy savdo yo'lini o'zlashtirish borasida qattiq harakat qilayotgan edi. Bu borada josus Antonio Jenkinson va unga hamroh bo'lgan elchi Chenslerlar 1561-1563-yillarda Volga-Kaspiy yo'nalishi orqali Eronga kelganligi so'zimizni tasdiqlaydi. Shundan so'ng ma'lum vaqt davomida Eron ipak mahsulotlari Rossiya orqali Yevropaga chiqarib turilgan. Keyinchalik Safaviylarning "rus yo'li" bilan qiziqmaganligi va shimoliy savdo yo'lini iqtisodiy kapitallashtirib turuvchi rus tashkiloti yo'qligi kabi bir qator sabablarga ko'ra ushbu yo'lda qatnov faoliyati to'xtab qolgan.

XVIII asrning boshlarida Rossiyaning Kavkazorti va Eronga nisbatan siyosatini faollashganini kuzatish mumkin. Pyotr I ko'p yillardan buyon

²⁴ Памятники дипломатических и торговых отношений Московской руси Персией. – Тегеран: Фарханг. – С. 8.

Erondagi ahvol bilan qiziqib kelardi. Eron bilan siyosiy aloqalarni rivojlantirish maqsadida va Safaviylar davlati haqida ma'lumot to'plash uchun 1717-yilda Isfahonga Artemiy Volonskiy boshchiligidagi elchilik yuboriladi.

Turkiya – Eron urushlari davrida Rossiya Eronning foydasi uchun 1723-yil 23-sentabr Peterburg shartnomasida ko'rsatilgan viloyatlardan voz kechganligini aytadi. 1732-yil Reshtda rus-eron shartnomasi imzolanib Rossiya Gilon, Mozandaron va Astraboddan voz kechadi. 1735-yili mart oyidagi Ganjin shartnomasiga ko'ra Rossiya Eronga Boku va Derbentni qaytarib beradi. Bu kelishuvlarning barchasida Eron Rossiyaning abadiy “sherigi” bo'lib qolish majburiyatini oladi²⁵.

Pyotr I o'limidan so'ng Rossiya Eron bilan unchalik qiziqmay qo'yadi. Xojalar davriga kelib esa, rus-eron munosabatlarida biroz keskinlik tus oladi. Og'o Muhammadxonning qo'qqisidan Gruziyaga bostirib kirishi va 1795-yilda Tbilisini tor-mor etishi bilan rus-eron munosabatlari yanada tang ahvolga kelib qoladi.²⁶

1804-yilga kelib Eron Buyuk Britaniya bilan ittifoqchilik tuzib, Rossiyadan Ganjin viloyatini qaytarib berishini va Kavkazorti hududlaridan qo'shinlarini olib chiqib ketishini talab etgan holda unga ultimatum qo'yadi. Bu talabiga rad javobini olgan Eron shu yilning 22-iyun kuni Rossiya bilan barcha diplomatik aloqalarni uzadi va biroz keyinroq harbiy harakatlar boshlanib ketadi. 1804-1813-yillar davomida bo'lib o'tgan mojarolarning ko'pchiligida eronlik askarlarning qo'li baland keladi. Bu paytda Kavkazortidagi rus askarlarning umumiy soni sakkiz mingdan oshmas edi. Ular eng muhim bo'lgan hududlarda, Armanistondan Kaspiy qirg'oqlarigacha bo'lgan hududlarda harakatlanishar edi. Rus qo'shinlari kam sonli bo'lishlariga qaramay, ularning shaxsiy qahramonliklari, jangovar mahoratlari va lashkarboshilarning iqtidori tufayli ular so'ngi damda o'zlari uchun muhim bo'lgan g'alabani qo'lga kiritishadi. Urushning birinchi yilida asosiy harbiy harakatlar Erivan(Erevan)

²⁵ Атаев Х. А. Торгово-экономические связи Ирана с Россией в XVIII-XIX вв. – Москва: Наука, 1991. – С. 112.

²⁶ М. С. Иванов. Очерк истории Ирана. – Москва: Наука, 1952. – С. 142.

hududida bo'lib o'tdi. Kavkazortidagi rus qo'shinlariga general Pyotr Sitsianov boshchilik qildi. Shu yili noyabr oyida fors qo'shinlari tarkibiga Fath Alishoh boshchiligidagi yangi qo'shin kelib qo'shiladi va bu narsa o'zi kamsonli bo'lgan rus qo'shinlarini chekinishga majbur etadi va ular Gruziyaga borib yashirinadilar. Rus-eron urushi boshlanishining eng og'ir nuqtalaridan biri bu Ahmet Dudarov boshchiligidagi 3000 kishilik osetin partizanlarini Gruziyga boorish yo'lini yopib qo'yganligi edi. 1805-yili Abbosxon va Boboxon boshchiligidagi qo'shin Tbilisi tomon harakatlana boshladi, lekin rus qo'shinlari tomonidan ularning o'tish yo'li berkitib qo'yildi. Shu yilning 9-iyul kuni Abbosxon zagam daryosi bo'ida bo'lgan jangda polkovnik Karyagin otrydi tomonidan tor-mor etiladi va Gruziyaga borishdan voz kechib, ortga chekinadi.

Yilning oxiriga kelib Sitsianov boshchiligidagi qo'shin Shirvon xonligini Rossiyaga bo'y'sundirishga muvaffaq bo'ladi va Boku tomon harakatlana boshlaydi. 1806-yili 20-fevralda Boku xoni Husaynqulixon general Sitsianov bilan bo'lgan muzokaralar chog'ida generalni o'ldirishga muvaffaq bo'ladi. Bundan xabar topgan rus qo'shinlari Bokuni egallashga harakat qilib ko'radi, lekin muvaffaqiyatsizlikka uchrashadi.

Sitsianovning o'limidan so'ng Shirvon, Suza va Nuxda ruslarga qarshi qo'zg'olonlar boshlanib ketadi. Ko'ngillilardan yig'ilgan 20 ming kishilik Abbos Mirzo boshchiligidagi qo'shin general Nebolsin tomonidan tor-mor etiladi. 1806-yil noyabr oyi oxirlariga borib Sitsianov o'rniga tayinlangan graf Gudovich boshchiligidagi qo'shinning bosimi ostida qo'zg'olonlar bostirilib, Darband va Nux yana ruslar qo'liga o'tadi. 1806-yili ruslar Kaspiybo'yi hududlaridagi Dog'iston va Ozorbayjonni, shu jumladan Boku, Darband va Kubuni ham egallashga muvaffaq bo'lishadi.²⁷

1806-yil dekabrda rus-turk urushi boshlanishi munosabati bilan Gudovich ikki tomonlama frontda urush olib mushkulligini tushunib yetgan holda, Turkiya va Eron o'rtasidagi nizoli vaziyatdan oqilona foydalangan holda

²⁷ Салихова Динара Багаутдинова. Русско-иранские войны первой трети XIX века. – Махачкала: 2012. – С. 14.

Eron bilan Uzun-Kilis kelishuvini tuzishga muvaffaq bo'ladi va harbiy harakatlarni turklarga qarshi davom ettira boshalaydi. Lekin 1807-yili Fathali Napoleon Fransiyasi bilan antirus ittifoqiga birlashadi va harbiy harakatlar yangitda avj ola boshlaydi.

1808-yili Gudovich o'zining eng katta harbiy bo'linmalarini Armanistonga olib keladi. Uning qo'shini dastlab Erevanning g'arbiy qismida joylashgan Echmiadzan shahrini, keyinroq esa Erevanni o'zini zabt etishga muvaffaq bo'lishadi. 1808-yil oktabr oyida esa Abbas mirzo va Qarabobo boshchiligidagi qo'shinni yengib, Naxichevanni egallaydilar.

Bunday shonli g'alabalardan so'ng graf Gudovich general Aleksandr Tormasov bilan almashtiriladi. Tormasov ancha tinchlikparvar va sulhparvar general edi. Eron shohi qo'shinlari bilan olib borilayotgan muzokaralar chog'ida Fathali to'satdan Armanistonning shimoliy qismidagi Artikaga hujum uyushtiradi, ayni vaqtda Abbas Mirzo boshchiligidagi qo'shin ham Gurjistonga bostirib kira boshlagan edi, lekin har ikkisinin ham boshlagan hujumlari muvaffaqiyatsizlik bilan yakun topadi²⁸.

1810-yil 29-oktabrda polkovnik P. S. Kotlyarev boshchiligidagi otryad Migri qal'asini egallab, Araks daryosi sohillariga chiqadi va Abbas Mirzo qo'shinlirining eng olg'or qismioga qattiq zarba beradi. Bu paytga kelib Eron qo'shinlari yana bir bor Gruziyaga zarba berishga urinib ko'rishadi, lekin Ismoilxon boshchiligidagi qo'shin Axalqal'ada F. O. Poulichchi otryadi tomonidan tor-mor etiladi. Mingdan ortiq eronlik askarlar va qo'shin boshlig'i asirga olinadi.

1811-yilga kelib harbiy harakatlarda sokinlik kuzatiladi. 1812-yili rus qo'shinlarining Napoleon armiyasi bilan urushlarga chalg'ib qolishidan foydalangan Abbas Mirzo qo'shinlari Lonkoranni egallashga muvaffaq bo'lishadi. 1813-yil yanvar oyida polkovnik P. S. Kotlyarev boshchiligidagi

²⁸ Куканова Н. Г. Очерки по истории русско-иранских торговых отношений в XVII-п. пол-не XIX вв. – Саранск: 1977. – С. 182.

otryad Abbos Mirzo qo'shinlariga zarba berib, Lankoranni qaytarib oladi. Ruslarning bunday g'alabasidan cho'chigan Eron hukumati 1813-yili Rossiya bilan kelishuv shartnomasini imzolashga majbur bo'lishadi va shu yili 24-oktabrda Qorabog'dagi Guliston daryosi bo'yida tinchlik shartnomasi imzolanadi²⁹. Rossiya tomonidan N.F. Rtishev va Eron tomondan Abul Hasanxon ishtirokida ushbu shartnoma imzolandi va ikki tomonlama harbiy harakatlarni to'xtatish, shartnomada belgilangan shartlarni tomonlar o'z majburiyatlari sifatida bajarishga kelishib olishdi. Eron va Rossiya ushbu shartnomada ko'rsatilgan hududlar doirasida chegara belgilashga va Eron Rossiya tomonidan urush davomida qo'lga kiritilgan va shartnomaning 3-bandida ko'rsatilgan hududlar ustidan da'vo qilmasligini tan oldi. Bundan tashqar Eron Gruziya, Dog'iston, Qorabog', Ganjin, Shirvon, Derbent kabi xonliklar ustidan hukmronligini yo'qotdi. Shartnomaning beshinchi bandiga binoan Eron emas, balki Rossiya Kaspiy dengizida harbiy flotini joylashtirish huquqiga ega bo'ladi. Shu bilan birga rus savdogarlari Eronda erkin savdo qilish huquqini qo'lga kiritadilar.

Bu shartnomaning eng ahamiyatli tomoni shunda ediki, bo'lib o'tgan shuncha jangu-jadallarga qaramasdan shartnomaning 8-10-bandida ikki tomonblama savdo munosabatlarini tartibga solish va rivojlantirish borasida aytib o'tiladi. Unga muvofiq, tomonlar bir-birlarining hududlarida savdo ishlarini olib boorish huquqini qo'lga kiritadilar. Dengiz porti va chegara hududlardagi rus va eronlik savdogarlar olib kirayotgan mahsulotlarga har ikki tomon uchun besh foizdan bojxona solig'i joriy etilishi ham ta'kidlab o'tilgan. Shartnomaning 7-bandiga ko'ra, ikkin tomonlama munosabatlarni tiklash maqsadida kelgan elchi va boshqa lavozimdagi oliy davlat vakillari belgilangan tartibda hurmay-ehtirom bilan kutib olinishi bayon etilgan.

Guliston shartnomasi e'lon qilingandan boshlab darhol kuchga kirmadi, qariyb 4 yil davomida uning shartlarini qayta ko'rib chiqish borasida tortishuvlar

²⁹ Игамбердыев М. А. Русско-иранская война 1804-1813 гг.: Дис... канд. ист. наук. – Москва, 1949. – С. 34.

davom etdi. Eron Buyuk Britaniyaning qo'llab-quvvatlashiga tayanib 1801-yildagi chegaralarni, ya'ni butun Sharqiy Kavkaz shoh hukmronligiga o'tishini talab qilib Rossiyaga murojaat qildi. Lekin Rossiya Eronda inglizlar ta'sirini susaytirishga va o'zining iqtisodiy ahvolini mustahkamlashga erishdi³⁰.

1818-yili A. P. Yermolov boshchiligidagi missiyaning Eronga tashrif buyurishi va faol diplomatik munosabatlar olib borishi natijasida Guliston shartnomasi to'laligicha kuchga kiradi. Shunday qilib birinchi rus-eron urushi har ikki davlatning ushbu mintaqada o'z ta'sir doirasini o'rnatish uchun bo'lgan harakatlari sifatida baholanadi. Harbiy harakatlar davomida Eronning mag'lubiyatga uchrashi va butun Kavkaz ustidan Rossiya hukmronligini o'rnatilishi esa bu hududda strategik jihatdan uning obro'sini yanada mustahkamladi.

Lekin Eron boshqaruvidagi amaldorlardan ba'zilari bu shartnomaga norozilik bilan qarashar edi va ularning qistovi natijasida 1814-yili inglizlar o'zaro kelishuv imzolandi. Unga ko'ra, agar Eron biror davlat bilan urushga kirsam, uni moddiy jihatdan Angliya qo'llab turishi ta'kidlangan edi. Bu kelishuvdan ruhlangan Eron hukumati 1816-yili Rossiyaga Ozorbayjon xonligini qaytarib berish haqida yangi kelishuv imzolash talabini qo'ydi. Albatta bu talabni Buyuk Britaniya qo'llab-quvvatlar edi. 1817-yili Rossiya bu bahsli masalani hal etish uchun Kavkaz bo'yicha bosh boshqaruvchi general A.P.Yerlomovni favqulodda elchi sifatida Eronga yuboradi. Unga Eron bilan faqatgina Rossiya harbiy harakatlar davomida belgilangan chegaralar asosidagina muzokaralarga kirishi buyurilgan edi.

1825-yili Eronda hokimyat tepasiga Rossiya bilan urush boshlash tarafdorlari bo'lgan inglizparast "urush partiyasi" nomli guruh vakillari kelishadi. Fathalishoh Allayorxon Mirza Abulhasanxonni bosh vazir etib tayinlaydi va bu narsa nafaqat inglizparast boshqaruvning rivojlanishiga, balki Rossiya bilan urushga kirish uchun intilayotganligini o'z faoliyatida ochiq

³⁰ Балаян Б. П. Международные отношения Ирана в 1813-1828 гг. // Краткие сообщения Института народов Азии. – № 73. – Ереван: 1967. – С. 112.

namoyon etadi. Bu paytda Rossiya bilan urush olib boorish faqat shoh hukumatining manfaati va inglizlarning gij-gijlashi tufayli zarur edi³¹.

Bu urushga nisbatan xalq orasida keskin norozilik namoyishlari boshlanib ketdi. 1825-yili Gilonda yangitdan qo'zg'olon ko'tarildi, 1826-yili esa mamlakatda oziq-ovqat mahsulotlarining yetarli emasligi sababidan kelib chiqqan norozilik namoyishi siyosiy tus ola boshladi. Shunday tang sharoitda ham ingliz diplomatlari Eron-Rossiya munosabatlaridagi qarama-qarshilikni kuchaytirishga bo'lgan harakatlarini to'xtatishmadi³². Angliya Eronni nafaqat urushga qistadi, balki uni bu borada urushga tayyorlash uchun kerakli bo'lgan pul miqdoridagi subsidiyalar, qurol-yarog' va jang taktikasini tuzishda ishtirok etish uchun o'zining malakali ofitserlarini ham yubora boshladi.

Bu borada 1825-yili "Ost-indiya" kompaniyasi Eronga harbiy xarajatlar uchun 1,5 mln. Rubl miqdorida kumush berganligi va 1826-yili Uillik ismli elchi shoh huzuriga 728 mln. rubl miqdoridagi subsidiya bilan kelganligini aytish mumkin. 1826-yilning boshlarida Eronga Shee ismli britan ofitseri keladi va yangi urush boshlash strukturasini ko'rsatib beradi. Rossiyada 1825-yil 14-dekabrdagi bo'lib o'tgan dekabristlar qo'zg'olonidan so'ng vaziyat unchalik yaxshi emasligini bilgan ingliz ofitseri Kavkaz orqali kirib borib, rus qo'shinlarining zaif nuqtasiga zarba berish bilan urushni boshlashni ta'kidlaydi.³³ Lekin inglizlarni gij-gijlashi va dindor ulamolarning tazyiqi ostida 1826-yilda Eron Rossiyaga qarshi e'lon qiladi.

Uzoq davom etgan urushlar natijasida 1828-yili 22-fevralda Araks daryosi bo'yidagi Rossiya va Eronning yangi chegaralarini belgilab bergan Turkmanchoy shartnomasi imzolanadi. Buning natijasida Eron Rossiyaga 20 mln. Kontributsiya to'lash majburiyatini oladi hamda shartnomaning 8-bandiga muvofiq Eron harbiy kemalarining Kaspiy dengizida harakatlanishi ta'qiqlanadi.

³¹ Абдуллаев Ф. А. Из истории английской политики в Иране накануне русско-иранской войны 1826-1828 гг. // – Ташкент: Материалы по Востоку, 1966. – С. 124.

³² Он же. Из истории русско-иранских отношений и английской политики в Иране в начале XIX века. – Ташкент: 1971. – С: 325.

³³ Салихова Динара Багаутдинова. Российско-иранские отношения во второй четверти XIX века. – Махачкала: 2007. – С. 184.

Shuningdek shartnoma elchilik almashinuvi va konsulliklar ochish masalalarini ham ko'rib chiqadi.

Ushbu shartnomaga binoan Eron shohi Rossiyaga Araks daryosining har ikki tarafidagi Erivan xonligi va Naxichevan xonliklarini berishga majbur bo'ladi. Shartnomaning 3-4-bandlariga muvofiq ikki davlat o'rtasidagi chegaralar Kare, Araks daryolari va Astar daryosiningh quyulish joyidan to kaspий dengizigacha bo'lgan hududlardan belgilab olindi.

Turkmanchoy shartnomasi XIX asr boshlaridagi rus-eron urushlariga nuqta qo'ygan shartnoma sifatida baholanadi³⁴. Lekin shartnomada belgilangan kontributsiyani undirish uchun yuborilgan rus elchisi A.S.Griboyedev mamlakatdagi urushdan keyingi og'ir ahvolni rus imperatoriga bayon qiladi. Bu vaziyatni yaxshi anglagan Rossiya imperatori shartnomaning 13-bandini bajarishni buyuradi. Lekin 1829-yili 30-yanvarda Olloyorxon va uning boshchiligidagi bir guruh shia ruhoniylari tomonidan A.S.Griboyedev vahshiylarcha o'ldiriladi. Ammo Rossiya bu paytga kelib Turkiya bilan yuz berayotgan mojarolar tufayli Eronga unchalik e'tibor bermay qo'ygan edi. Hatto Fathalishohning sovg'a-salomlarini olgan Nikolay I kontributsiya miqdorini 2 mln. rublga kamaytiradi. Shu bilan ikki davlat o'rtasidagi diplomatik munosabatlar yana barqaror ko'rinish ola boshlaydi. Bu davrda ular o'rtasidagi chegara masalalarini hal etish bilan bog'liq hamda rus-eron savdo munosabatlarini yanada rivojlantirish borasida qator kelishuvlarni tuzishga muvaffaq bo'lishadi. Shu asosda 1829-yili 4-aprelda bu boradagi ishlarni tartibga solish bo'yicha yangi vakolatli vazir Dolgorukiy Tabrizga tashrif buyuradi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, XIX asrda Kavkaz har ikki davlat uchun, ularning manfaatlari to'qnashgan va mintaqadagi o'zaro munosabatlarda geopolitik va strategik jihatdan g'oyat muhim hudud bo'lib qolaverdi. Eron va Rossiyaning bu masalada doimiy to'qnash kelishi asosan ikki

³⁴ Туркманчайский договор России с Персией 1828-год и гибель АС Грибоедова // Научное обозрение Сборник статей ассоциации молодых ученых Дагестана. – Махачкала: 2005. Вып – №19 – С. 14-27.

sababga ko'ra baholanadi, ya'ni birinchisi siyosiy jihatdan ustunlikka erishish, mintaqadagi geopolitik vaziyat taqozosi va strategik xavfsizlikni ta'minlashdan iborat bo'lsa, ikkinchisi, Kavkaz mintaqasi orqali Yaqin va O'rta Sharqda o'z ta'sir doirasini kuchaytirishga bo'lgan intilishlardir.

Eron-rus urushlari natijasida, 1830-yillardan so'ng Rossiya imperiyasi kata yutuqlarni qo'lga kiritdi. Kavkazorti hududlarini uning qo'l ostiga o'tishi, Kaspiy dengizida yangi ta'sir doirani o'rnatilishi va Eronga olib kirilayotga rus mahsulotlarga chegara bojining kamaytirilishi kabi bir qator yutuqlarni keltirishimiz mumkin. Uning keyinchalik Kavkazda olib borgan siyosati tashqi va ichki siyosatdagi murakkab jarayonlarga qaramasdan muvavvfaqiyatli bo'lganligini ko'rish mumkin.

Eron nuqtai-nazaridan qaralsa, bu urushlar natijasida u katta yo'qotishlarni boshdan kechirdi. Dastlabki rus-eron urushi natijasida yengilgan bo'lishiga qaramasdan Eron hukumatidagi ayrim amaldorlarning "inglizparast" ruhiyatidan kelib chiqib, ular ikkinchi bor Rossiya bilan urushga kirishga shohni undaydilar. Albatta bu jarayonda Angliya hukumati va u tomonidan yuborilgan josuslarning roli ham beqiyosdir. Aslida Kavkazorti hududlarini bosib olish payida bo'lgan ingliz hukumatiga Eron orqali Rossiyaga qarshilik ko'rsatish juda qo'l kelardi. Shuning uchun ham Buyuk Britaniya to'xtovsiz ravishda Eronga moddiy-texnikaviy va harbiy yordam berib turgan. Bundan tashqari o'z harbiy ofitserlarini yuborib Eron askarlarini jang qilish mahoratini oshirish va yangi tartibdagi jang strategiyalarini tuzish ishlarini o'rgatishda ham katta yordam bergan.

Lekin Rossiya har qanday sharoitda bo'lmasin Eron bilan doimo yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini amalga oshirib kelgan. Buni har ikki rus-eron urushi natijasida tuzilga o'zaro tinchlik shartnomalarining bir qismi sifatida ikki davlat savdo iqtisodiy munosabatlarini keng yo'lga qo'yish va yanada rivojlantirish borasidagi bandlarning mavjud ekanligidan bilib olish mumkin. Faqatgina Eron ayrim g'arb davlatlarining "va'da"lariga ishonib Rossiya bilan qayta-qayta jangga kirishga majbur bo'lgan. Shunga qaramasdan Eron bu

urushlar davomida o'z harbiy qobiliyatini yaxshigina sinovdan o'tkazdi. Eng asosiysi, Rossiya bilan uzoq muddatga mo'ljallangan savdo-iqtisodiy va strategik hamkorlik borasida hamda mintaqada xavfsizlik masalalarida o'zaro kelishilgan siyosat yuritish bo'yich bir qator bitimlar tuzishga muvaffaq bo'ldi³⁵.

I.2. SSSR davrida Eron bilan munosabatlar dinamikasi (1991-yilgacha)

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida rivojlangan davlatlarning ta'siri kuchaya borishi natijasida Eron ham kuchli kapitalistik davlatlarning yarim mustamlakasiga aylana boshlaydi. O'z navbatida Rossiya ham Eronning shimoliy hududlarida yo'l qurilishi, telegraf liniyalari va kemalar qatnovi kabi bir qator obyektlar konsessiyasiga ega bo'ladi. 1900-yilga kelib Rossiya Eronga 2,5 mln. rubl miqdorida zayom ajratadi. Birinchi jahon urushi arafasida Eronning rus kapitalistlarida jami 164 mln. rubl qarzi bor edi. Umuman bunday iqtisodiy bog'lanib qolish 1905-1911-yillardagi mamlakatda bo'lib o'tgan qo'zg'olonlarni bostirishda Rossiyaning shoh tarafidan turib unga harbiy yordam berishi bilan siyosiy bog'lanishga ham aylanib ulgurgan edi. Birinchi jahon urushi davrida rus qo'shinlari mamlakat shimolini to'liq egalladilar va Eron amalda Rossiyaning istilosiga aylandi.

1920-yillarning boshida ya'ni sobiq Ittifoq o'zining dastlabki kunlaridayoq Eron bilan do'stona munosabatlar o'rnatishga tayyor ekanligini ma'lum qildi. 1920-yil kuzda Moskvaga Mashover al-Mamolik boshchiligidagi elchilar keldi. Rossiya esa shu paytgacha imzolangan barcha shartnomalar va konsessiyalarni bekor qildi hamda Erondagi rus qo'shinlarini chaqirib oldi. Bu bitim Eronni uzoq muddatli kapitulyatsiyadan ozod etishi bilan bir qatorda, mamlakatni mustaqil iqtisodiy-siyosiy rivojlanishini ta'minlavchi shartnoma

³⁵ The Cambridge History of Iran. – Cambridge: 1991. – V. 7.

ham edi. Shuningdek bu bitim 1919-yili Eron va Angliya o'rtasida tuzilgan³⁶, Eron uchun noteng shartnomani bekor qilgan holda, inglizlar tomonidan okkupatsiya qilingan hududlarni qaytarardi. Shu bilan birga bu shartnoma biror bir davlat Sovet Ittifoqiga hujum qilish uchun Eron hududidan foydalangan taqdirda uning 6-bandida bu holat qayd etildi va Sovet Ittifoqi qo'shinlarning Eronga kiritilishi faqatgina uning hududida biror-bir davlat Sovet Ittifoqiga hujum qilish uchun harbiy baza barpo etsa va agar Eron hukumati bu xavfdan Ittifoqni ogohlantirmagan taqdirdagina kiritilishi mumkinligi belgilab qo'yildi.³⁷

Sovet-eron shartnomasi Erondagi keng jamoatchilik tomonidan mamnuniyat bilan qarshi olindi. Shartnoma ko'plab eronlik mashhur davlat arboblari va yetkchi siyosatchilar tomonidan qo'llab-quvvatlandi, shu jumladan bo'lg'usi Eron shohi o'sha paytdagi harbiy vazir Rizoxon tomonidan ham. Sovet-eron shartnomasi Sharqdagi mustamlakachilik va kolonializm siyosatiga jiddiy zarba berdi³⁸.

1921-yili 6-martda chop etilgan Amerikaning "Nation" gazetasi bu borada shunday yozadi: "Rossiya Eronda olib borayotgan siyosatiga o'zini qurbon qilmoqda. U mamlakatdagi yo'l qurilishi, telegraf, bank sohasidagi va barcha konsessiyalardan voz kechdi, hatto bu yo'qotishlar uchun bir pens(tiyin) bo'lsa ham foydani ko'zlamadi...". Rossiya o'zi uchun hech qanday imkoniyat qoldirmagan sovet-eron shartnomasini amerikalik mutaxassislar "ajablanarli hujjat" deb nomlashdi.

Keying davrda Sovet ittifoqi Eronga uning sanoatini rivojlantirish bo'yicha juda katta yordam berdi. SSSR yordamida Eronda bir qancha elevatorlar, jumladan eng katta Tehron elevatori, bug'doy yanchuvchi kombinatlar va ko'plab guruch tozalovchi zavodlar barpo etildi. 1924-yili Eronda rus-eron savdo-tijorat banki("Ruspers"), rus-eron savdo

³⁶ Мирошников Л. И. Английская экспансия в Иране (1914-1920). – Москва: Издательство МИД СССР, – С. 256. 1981.

³⁷ Готлиб В. Н. Тайная дипломатия во время первой мировой войны. – Москва: Издательство МИД СССР, – С. 256. 1960.

³⁸ Советско-иранские соглашения в договорах, конвенциях и соглашениях. – Москва: Издательство МИД СССР, – С. 112.1946.

jamiyati(“Rupeto”), rus-eron paxta birlashmasi(“Persxlopok”), rus-eron eksport-import tashkiloti(“Shark”) kabi bir qancha hamkorlik tashkilotlari barpo etildi. Lekin Rizoshoh 1920-yillarda SSSR bilan yaxshi qo’shniçilik munosabatlarini yo’lga qo’yib, savdo-iqtisodiy aloqalarni faol amalga oshirgan bo’lishiga qaramay, 1930-yilar oxiriga kelib Rizoxon SSSR bilan dushmanlik kayfiyatiga tushib qoladi. U nafaqat o’zi shunday kayfiyatda edi, balki butun rus millati bilan shu tarzda munosabatda bo’ldi. Sovet-eron savdosi to’xtatib qo’yildi, oldinroq tashkilo etilgan barcha rus-eron hamkorlikdagi tashkilotlari va jamuyatlari yopib qo’yildi. Sovet Ittifoqi tashkilotlari (“Shark”, “Persxlopok”, “Byuro Pers ”) bilan hamkorlik qilgan har qanday shaxs rus josusi sifatida baholandi va shafqatsiz repressiyaga uchradi. Rus tili biluvchi kishilarga bu tilda gapirish ta’qiqlandi.

1938-yili Rizoxon SSSR bilan yangi savdo shartnomasini imzolashi rad etdi va buning natijasida o’sha yili ikki davlat o’rtasidagi tashqi savdo aylanmasi hajmi hammasi bo’lib 38%ni tashkil etdi. Rizoxonning SSSR bilan tashqi siyosatdagi eng jiddiy dushmanlik kayfiyati ikkinchi jahon urushi arafasida uning gitlerchilar Germaniyasi bilan yaqinlashganda yaqqol namoyon bo’ldi. Bu borada amerikalik “Iran” kitobining muallifi Xaac shunday yozadi: “Shohning Germaniyaga ko’proq qiziqayotganligi, uning bolsheviklar Rossiyasiga bo’lgan nafratini oshirmoqda. Agar uning tashqi siyosatida qandaydir yo’nalish bor bo’lsa, u ham bitta, ya’ni bolshevizmning mamlaktda tashviqoti, yoyilib ketishi va uni oldidagi shohning qo’rquvidir... . Natsistlar Germaniyasi unga go’yoki osmondan yuborilgan elchi va bu qo’rquvni yo’q qiluvchi bo’lib tuyulmoqda”³⁹.

Eron Germaniya uchun qimmatli istiqbolga ega mamlakat hisoblanardi. Eron Janubiy-Sharqiy Osiyo va Hindistonga olib boruvchi an’anaviy quruqlik yo’li bo’lishi bilan bir qatorda, yuqori darajadagi boy yer osti boyliklariga ega edi. Eng asosiysi, fashist Germaniyasi uchun Eron SSSR hujum qilishdagi plotsdarm vazifasini bajarishi lozim edi. Eronni SSSRga qarshi hujum qilishda tayyor plotsdarm ekanligini anglab yetgan gitlerchilar faqatgina 1941-yilning

³⁹ Реза Годс М. Иран в XX веке. Политическая История. – Москва. – С. 154.1994.

o'zidayoq maxfiy tarzda mamlakatga 11 tonna qurol-yarog' va portlovchi vositalar olib kirgan. 1941-yildagi ma'lumotga ko'ra, o'sha yili Eronning o'zida Gebbels apparati, gestapo va nemis razvedkasidan 4 mingga yaqin maxfiy agentlar bor edi. Keltirilga ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Eronda fashistlar uni Germaniya tomonidan SSSRga qarshi urushga tortish maqsadida davlat to'ntarishi amalga oshirishga tayyor edi⁴⁰. Sovet qo'shinlari gitlerchilarning bu rejalarini chippakka chiqardi. Sovet hukumatining Eronga bir necha bor bildirishlaridan so'ngina, ya'ni 1941-yil 26 iyun, 19-iyul va 16 avgustdagi, nemislarning tahlikali faoliyatiga chek qo'yildi. 1941-yili 25-avgustda Angliya va SSSR o'z qoshinlarini bir paytda Eronga olib kirish haqida yangi bitim imzolandi.

1941-yil 16-sentabrda Rizoxon taxtni o'z o'g'li Muhammad Rizo Pahlaviyga topshirib, o'zi mamlakatni tark etadi. Shu yili 17-sentabrda mamlakatga sovet qo'shinlari va 18-sentabrda ingliz qo'shinlari kiritiladi. Ittifoqchilar qo'shinini kiritilishi Eronni Germaniyaning muqarrar sateliti bo'lib qolishdan saqlab qoladi. Nemislarning mamlakatdan chiqib ketishi bilan Eron Germaniya bilan barcha diplomatik aloqalarni uzadi va ittifoqchilar bilan antifashistik koalitsiyaga birlashadi. Buning natijasida Eronni mustaqilligi va suvereniteti ta'minlangan holda, urushdan keyin xalqaro maydonda uning o'zni belgilanadi⁴¹.

1942-yili 29-yanvarda SSSR, Buyuk Britaniya va Eron o'rtasidagi kelishuvga binoan hamda Antanta davlatlarining 1943-yil 1-dekabrdagi Deklaratsiyasiga muvofiq davlatlarning Eron bilan teng huquqli suverev munosabatlari tantanali ravishda e'lon qilindi. Bularning barchasi 1921-yili 26-fevralda tuzilgan maxsus sovet-eron shartnomasida o'z ifodasini topdi. 1927-yilda ham "o'zaro kafolat va betaraflik" to'g'risida shartnoma imzolanadi. 1942-

⁴⁰ Истягин Л. Г. Германское проникновение в Иран и русско-германские противоречия накануне первой мировой войны. – Москва: Наука, 1979. – С. 206-207.

⁴¹ Реза Годс М. Иран в XX веке. Политическая История. – Москв: 1994. – С. 125.

yili 29-yanvardagi uch tomonlama kelishuvda Eron orqali SSSRga harbiy qurol-yarog' ta'minoti o'tkazilishi belgilab olindi⁴².

Ikkinchi jahon urushida muhim burulish yasagan 1943-yilda antigitler koalitsiyasiga a'zo davlat rahbarlarining eng muhim uchrashuvlaridan biri Tehronda bo'lib o'tdi. Bu konferensiya rasmiy tarzda 1943-yil 28-noyabrdan 1-dekabrgacha davom etdi. Unda G'arbiy Yevropada ikkinchi frontni ochish haqidagi masala kun tartibiga qo'yildi va hal etildi. Uch mamlakat rahbarlari 1943-yil 9-sentabrda "Eron haqidagi Deklaratsiya"ni ham qabul qilishdi. Unga ko'ra, Eron Germaniyaga qarshi urush e'lon qildi, bu haqiqiy harbiy ahamiyat kasb etadi, lekin amalda harbiy harakatlarda ishtirok etmadi. Ushbu deklaratsiyada SSSR, AQSh va Buyuk Britaniya davlat rahbarlari ularning Eron bilan o'zaro aloqlariga muvofiqlik to'g'risida bayonot berdilar va urush mobaynida Eron ittifoqchilarga yuklarni chegara orqali SSSRga yetkazib berishda va katta iqtisodiy yordam berganligini tomonlar tan olishdi. Shuningdek urushdan keyin ham o'zaro suveren tenglik asosida Eron bilan munosabatlarni saqlab qolishni ta'kidlashdi.

Shuningdek bu davrda madaniy aloqalar ham taraqqiy etganligini ko'rish mumkin. 1941-1943-yillar Eronda akademik E. N. Pavlovskiy rahbarligidagi ekspeditsiya katta ilmiy tekshirish ishlarini olib boradi. U bu mamlaktda amalga oshirgan sog'liqni saqlash sohasidagi ishlari uchun Eron Fanlar akademiyasining faxriy a'zosi etib saylanadi.

Fashistlar ustidan qozonilgan g'alaba ittifoqchilar o'rtasidagi birlikni bo'linishiga olib keldi. Sove Rossiyasining kuchini ortib borishi AQSh va Angliya davlat rahbarlarini cho'chita boshladi. Bu narsa 1947-yil 6-oktabrda Eron va AQSh o'rtasida tuzilgan Amerika harbiy missiyasi haqidagi kelishuvda o'z aksini topdi. Unga ko'ra Eron armuyasi ustidan AQSh harbiy maslahatchilari faoliyatini yanada kuchaytirish lozim edi. Bu fakt Eronni antisovet pozitsiyasiga o'tganligini rasmiy tasdiqlar edi. AQSh bilan tuzilgan

⁴² Там же. – С. 139.

kelishuv Eronda amerikalik harbiylar sonini ko'paytirish va Eron armiyasida ofitser unvonini faqatgina AQSh harbiylariga berish ko'zda tutilgan edi⁴³.

AQShning Erondagi rasmiy vakolatxonasi Qavom as-Saltananing 1946-yil 4-aprelda sovet-eron shartnomasini bekor qilgan kundan boshlab ochildi. Amerikaning bu yerdagi rejasi asosan mamlakatni iqtisodiy-siyosiy qaram qilish, o'z protektoratini o'rnatish va antisovet faoliyatni amalga oshirishda asosiy plotsdarmga aylantirishdan iborat edi⁴⁴. 1948-yilga kelib Erondagi iqtisodiy-siyosiy hayot AQSh ta'sirida biroz jonlangnaday bo'ldi, lekin undan keyingi yillarda Amerika o'zining Erondagi imperialistik ekspansiyasini boshlab yubordi. Bu esa AQSh tashqi siyosatining ajralmas qismi hisoblanardi. Lekin Eronda olib borilayotgan bu taxlitdagi siyosat oxir-oqibat muvaffaqiyatsizlik bilan yakun topdi. AQShning Eronda "markaz kuchlar"i uchun "tayanch nuqta"ni barpo qilishga bo'lgan urinishlari besamar ketdi.

1979-yili mamlaktda islom inqilobi g'alabasi bilan Pahlaviylar sulolasi taxtdan ag'darib tashlandi. Eron va Rossiya o'rtasidagi munosabatlarda yuqori darajaga ko'tarilgan antisovet kayfiyati bu paytga kelib ancha mo'tadil ko'rinishga o'tdi. Chindan ham shu paytgacha ikki tomonlama munosabatlar juda xavfli tus ola boshlagan edi, faqatgina shoh hukumatining qulashi bilan bu jarayonlarda o'zgarish yuz berdi. Misol uchun, 1950-yili 4-noyabrda Tehronda Eron hukumati vakili general Razmar bilan SSSR o'rtasida savdo shartnomasi imzolanadi. Aynu shu bilan bir vaqtda, ya'ni 10-noyabrdan to 12-dekabrgacha boshqa hal qilinmagan muammolar qatori ikki tomonlama chegara masalalarini hal etish bo'yicha muzokaralar boshlanadi⁴⁵.

1956-yili iyul oyida SSSRga tashrif buyurgan Eron shohi, SSSR bilan munosabatlardagi agressiv xarakterga ega bo'lgan tashkilotlar va guruhlariga Eron hech qachon kirmagan va kirmaydi deya ishonch bildirgan edi. Shunga qaramasdan, oradan hali ko'p vaqt o'tmay turib Eron SSSRga qarshi siyosat

⁴³ М. Реза Годс. Указ. соч., – С. 143.

⁴⁴ Дипломатический вестник. – Москва: декабрь, 1999. – С. 13-15.

⁴⁵ Орлов Е. А. Россия и Иран в XX веке (основные этапы взаимоотношений) // Иран: ислам и власть. – С. 195-196.

yuritib Germaniya bilan aloqalarni kuchaytira boshlaydi. 1955 yilga kelib vaziyat keskinlashadi. Bunga asosiy sabablardan biri 1955 yil 12-oktyabrda e'lon qilingan maxsus bayonotda Bag'dod paktiga Eronning a'zo bo'lishi 1927-yildagi Sovet-Eron shartnomasiga xilof ekanligiga qaramasdan, Eron "Eyzenxauer doktrinasini"ni ham qabul qiladi va 1959-yili 5-martda o'z hududiga AQSh harbiy kuchlarini olib kirish va Eron hududini SSSRga qarshi plotsdarmga aylantirishga imkon beruvchi ikki tomonlama amerika-eron harbiy kelishuvini tuzadi.

Bundan boshqa paytlari ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar bu qadar jiddiylashmagan va ancha yengil ko'rinishga ega edi. Masalan Eronda milliy burjuaziya manfaatlarini himoya qiluvchi Mosoddiq hukumti davrida (1951-1953-yy.) o'zaro munosabatlar anchayin mo'tadil ahamiyat kasb etgan edi. Lekin uncha uzoq bo'lmagan muddatda amalga oshirilgan davlat to'ntarishi va Mosoddiqning o'z vazifasidan ozod etilib, hibsga olinishi bilan vaziyat yana yomonlashgan. 1979-yilgi fevral inqilobidan so'ng AQSh biln munosabatlar nafaqat siyosiy jihatdan, balki iqtisodiy tomondan ham keskin o'zgarishga uchradi. Yangi barpo etilga islom respublikasi esa faqatgina belgilangan davlatlar bilangina munosabatlarni o'rnatishini e'lon qildi.

Urushdan keying yillarda ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy-savdo va madaniy aloqalar rivojlanib bordi. Bu boradagi 1946-yili 4-aprelda imzolangan sovet-eron shartnomasini misol keltirish mumkin. Bundan tashqari shimoliy Eronda neft qazilmalarini qidirib toppish va ekspluatatsiya qilish bo'yicha jamiyat tuziladi. Shuningdek 1957-yili aprel oyida Tehronda o'zaro savdo munosabatlarini kengaytirish to'g'risida uzoq muddatli bitim imzolanadi.

1954-yil 12-fevralda Tehronda SSSR va Eron o'rtasidagi chegaraviy va iqtisodiy masalalarni tartibga solish to'g'risida o'zaro shartnoma imzolanadi.⁴⁶ Bu shartnoma ikki qo'shni davlat o'rtasidagi qariyb yuz yiladan beri davom etib kelayotgan muammolarga nuqta qo'yishi bilan ahamiyatli hisoblanardi. Chunki

⁴⁶ Магомедов Г. Г. Русско-иранские отношения(век XX и современность). – Москва: 2003. – С. 19.

bu shartnoma tufayli har ikki davlat tashqi ishlar vazirliklarining doimiy ravishda olib boradiga diplomatik yozishuvlari o'z nihoyasiga yetadi, ya'ni bu o'rinda nima uchun sovet Ittifoqi qoramollari Eron hududiga o'tib ketganligi va nima uchun eronlik cho'ponlar Ittifoq hududa kezib yurishganligi kabi savollarga yoziladigan tushuntirishlar nazarda tutilmoqda. Agar bu davrdagi sovet-eron munosabatlari tendensiyasi kuzatilsa, bu aloqalar o'ziga xos spekulativ va vaqtinchalik ahamiyat kasb etganligini ko'rish mumkin. Bu narsa 1958-yil fevralda Eron tashabbusi bilan ikki davlat o'rtasida 20 yilga mo'ljallangan o'zaro do'stlik va hujum qilmaslik to'g'risida shartnomada o'z aksini topadi. Bu o'rinda Eron bilan olib borilgan muzokaralar natijasida Sovet Ittifoqi o'zaro hujum qilmaslik to'g'risidagi shartnomaga ilova tarzda Eronni sanksiya kiritish majburiyati va agressiv Bag'dod paktidan chiqishini talab etadi. Bu esa o'z navbatida SSSRni shartnoma imzolash borasidagi raddiyasini ifoda etardi. Ushbu kelishuvning barbod bo'lishi natijasida 1959-yil 5-martda Eron-AQSh ikki tomonlama agressiv harbiy shartnomasining imzolanishi sovet-eron munosabatlariga tushadigan "sovuqchilik"ga sabab bo'ldi. O'sha paytdagi Eronni SSSR bilan madaniy aloqalari jamiyati raisi general va senator Jahonboniy bu voqeadan o'n yil o'tgach ya'ni, 1969-yil sovet-eron munosabatlari haqida to'xtalib, ikki tomonlama munosabatlar "qil ustida" ekanligi va faqatgina uning shohga "dushman bilan yaqinroq masofada bo'lish kerak" degan maslahati tufayligina shoh SSSR bilan diplomatik munosabatlarni ushlab turganligini ta'kidlab o'tgan. Sharq va G'arb o'rtasidagi siyosiy munosabatlarda mo'tadil tendensiyaga o'tishning boshlanishi va Eronning SSSR hamda boshqa sotsialistik tuzumdagi davlatlar bilan iqtisodiy-siyosiy hamkorlikni yo'lga qo'yish davrini 1962-yil 15-sentabrda Eron hukumatining Sovet Ittifoqiga qarshi agressiyada vositachi bo'lib qolmasligi uchun o'z hududida xorijiy davlatlar harbiy bazalarini qurishga yo'l qo'ymasligini ishonch bilan e'lon qilganligini aytib o'tish lozim.⁴⁷

⁴⁷ М. Реза Годс. Указ. соч., – С. 189.

1962-yili 26-oktabrda sobiq Ittifoq va Eron bir-birlariga tranzit masalalari haqidagi o'zaro shartnomaning ratifikatsiya yorliqlarini topshirishdi. Bu shartnomaga muvofiq Eron o'z mollarini sobiq Ittifoqning temir yo'llari hamda Volga-Don kanali orqali Evropaga chiqarish imkoniga ega bo'ldi.

Ammo mamlakatda amalga oshirilgan 1979-yilgi islom inqilobi natijasida Eronning tashqi siyosati Humayniyning nazariy g'oyalari asosida ishlab chiqildi. O'zaro munosabatlardagi bunday uzilish faqatgina 80-yillar oxirida Ruhulloh Musaviyning M.S.Gorbachevga yozgan maktubidan so'ngina birmuncha yaxshilandi. Bu maktub sobiq SSSR rahbariyati tomonidan keng muhokama qilindi va Eron Islom Respublikasining Rossiya bilan aloqalarining keying rivojida muhim rol o'ynadi.

Xulosa qilib aytganda, ikki davlat o'zaro munosabatlari qariyb besh yuz yillik tarixga ega ekanligidan kelib chiqilsa, ularning bu mintaqadagi manfaatlari deyarli besh yuz yildan beri to'qnash kelayotganligi va bu davr mobaynida ular o'rtasidagi munosabatlar turlicha ko'rinish va ahamiyat kasb etganligini ko'rish mumkin. Xalqaro maydondagi siyosiy vaziyatni o'zgarishi, har ikki davlatda ham boshqaruv tizimini isloh etilishi natijasida ularning ichki va tashqi siyosiy maqsadlari o'zgarishi, mintaqada doirasida bo'lib o'tgan turli nizo va tortishuvlarda manfaatlar to'qnash kelish, har ikkisidan birining qo'shni davlatlar bilan yoki o'zaro olib borgan urushlari kabi juda ko'p tarixiy va siyosiy jarayonlarda Eron-Rossiya munosabatlari qattiq sinovdan o'tgan va har qanday sharoitda ham bu ikki davlat yaxshi qo'shnichilik aloqalarini saqlab kelgan va bu munosabatlar bugungi kunga kelib o'zining eng gullagan pallasiga yetdi desak mubolag'a bo'lmaydi.

II BOB. IKKI QUTBLI DUNYO TARTIBOTI BARHAM TOPGANDAN SO'NGI DAVRDA ROSSIYA-ERON MUNOSABATLARINING ASOSIY YO'NALISHLARI

II.1. O'zaro iqtisodiy-siyosiy hamkorlikning yangi bosqichi

XX asrning so'ngi o'n yilligi Eron Islom Respublikasining Rossiya bilan aloqalari dinamizm(o'zgarishlarga boy) va hamkorlikni kengaytirishda yangi istiqbolli yo'nalishlarni izlab topish bilan xarakterlanadi. Ko'pchilik Rossiya va Eron siyosiy elita namoyondalari buni strategik hamkorlik deb ham atashmoqda. Bu borada Eron ham, Rossiya ham mintaqadagi geopolitik voqealarga bog'liq, ularning chegaralari bilan tutash - Tojikiston muammosi, Kaspiy dengizining huquqiy maqomi, NATOning sharqqa kengayishi kabi masalalarda yetarli yaqin pozitsiyaga ega. Lekin bizning fikrimizcha, ikki davlat o'rtasidagi an'anaviy hamkorlik iqtisodiy aloqalar bo'lib qolaveradi. Chunki o'tgan asrning so'ngi o'n yilligida ikki davlat o'rtasidagi aloqalar rivojining asosini iqtisodiy hamkorlik tashkil etgan edi. Bu esa qariyb sakkiz yil davom etgan Eron-Iroq urushidan so'ng mamlakat iqtisodiyotining katta yo'qotishlarni boshdan kechirganligi va hukumatning ichki ijtimoiy ahvolni tartibga solish, iqtisodiyotni qayta tiklashga bo'lgan islohotlarni o'tkazishni taqozo etish bilan bog'liq edi. 90-yillarning boshiga kelib Eron yangi iqtisodiy kursga o'ta boshladi⁴⁸. Bu jarayon birinchi navbatda uning iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va mamlakatda bozor munosabatlarini shakllantirishda o'z aksini topdi. Shaxsiy va xorijiy investitsiyalar hisobidan katta loyihalar amalga oshirila boshladi. Bu investitsiyalar asosan urushdan keyin vayron bo'lgan zavodlarni qayta tiklash, eksportga yo'naltirilgan neft-ximiya, qora va rangli metallurgiya korxonalarini barpo etish, energetika, transport, telekommunikatsiya va informatsion

⁴⁸ Арунова М.Р. РФ-ИРИ. Политический диалог: 1999-2000гг.// Иран: ислам и власть. – С. 190-191.

texnologiyalar tarmog'ini yanada kengaytirish va modernizatsiya qilishga keng jalb etildi. Eron sanoat, qurilish texnologiyalar, asbob-uskunalar va xom-ashyoning dunyodagi eng katta importeri sifatida o'z siyosatini olib borayotgan bir davrda Rossiya o'zining boy potentsial imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda 1989-yilgi o'zaro hamkorlik to'g'risidagi shartnomaning tashabbuskori sifatida zaruriy chora-tadbirlarni ko'ra olmaganligi achinarli hol edi.⁴⁹ SSSRqulagach iqtisodiy inqirozning kuchayishi va qayta qurish natijasida yuzaga kelgan ko'plab muammolar natijasida faqatgina 1993-yilga kelibgina Rossiya tomondan ham, Eron tomondan ham tashqi iqtisodiy munosabatlarni bosqichma-bosqich shakllana borishini kuzatish mumkin.

90-yillarning ikkinchi yarmiga kelib Rossiyadagi iqtisodiy-siyosiy vaziyatni bir qadar barqarorlashganligini va uning qo'shnisi Eronda esa so'ngi yillar mobaynida "mustaqillik eyforiyasi" darajasini biroz pasayganligini kuzatish mumkin.⁵⁰ Shundan kelib chiqqan holda Eron-Rossiya munosabatlarining kelgusi istiqbolida qanday omillar muhim rol o'ynaydi, qanday muammolar ularga to'sqinlik qiladi va yangi davrdagi ikki davlat aloqalarining asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat kabi masalalarni mutaxassislar quyidagi faktorlarga ajratishmoqda:

1. Geopolitik faktor

Bu boradagi faktorlar yetarlicha yozilgan, biz faqat rus-eron munosabatlariga quyidagi ikki holatda ushbu faktorlarning ta'siri nuqtai-nazaridan ularni ta'kidlamochimiz:

a) 90-yillarning boshida Rossiyadagi siyosiy vaziyat og'ir yo'qotishlarni boshdan kechirdi va islohotlar natijasida sobiq SSSR respublikalariga oqib kirayotgan iqtisodiyotni qisqartirish natijasida o'zining iqtisodiy potentsialini yetarlicha tiklab olish imkonini berganligi;

b) bu o'rinda Eron Markaziy Osiyo va O'rta Sharq mintaqasidagi tabiiy jihatdan boy bo'lgan bir tipli davlat hisoblanadi va Rossiya uchun Sobiq Sovet

⁴⁹ Мамедова Н. М. Проблемы и перспективы экономических отношений России и Ирана. – Москва: 1997. – С. 30.

⁵⁰ Там же, – С. 32.

hududidagi Markaziy Osiyo va Kavkazorti respublikalarining o'z mustaqilliklarini qo'lga kiritishi natijasida yo'qotilgan katta alternativ va foydali resurslarga boy "manfaatli qo'shni" bo'lishi mumkin edi. Shuningdek Eronda sobiq janubiy respublikalardan yo'qotilgan barcha qazilma boyliklari (neft, gaz, mis, qo'rg'oshin, rux, xrom, titan, uran, marganes va boshq.) aniqlangan. Ularning ko'pchiligini qazib olish joyi aniqlangan, qurilgan yoki rangli metallurgiya kombinatlari qurilishini yakunlash lozim edi.

Ko'plab olimlar va siyosatchilar tomonidan Eronni Iqtisodiy hamkorlik tashkilotlari va undagi davlatlarning transpot tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha loyihalaridagi faol ishtiroki uning Rossiyadan sobiq ittifoqdosh respublikalarni tortib olish maqsadida ekanligi haqidagi shubhalar aytilmoqda. Bu o'rinda ta'kidlash lozimki, yagona tranzit yo'lga birlashish borasidag harakatlar Rossiya chegaralaridagi quruqlik yo'lidan mahrum bo'lgan Eronni yangi respublikalar bilan bog'lanishdagi muammolarini hal etadi. Rossiyaning transport tarmoqlarini rivojlantirish borasidagi loyihalarda qatnashishdan ko'zlagan asosiy maqsadi janubiy dengizga chiqish imkoniyatini qo'lga kiritishdir.

2. Mintaqaviy tashkilotlardagi ishtiroki

Mintaqa mamlakatlari manfaatlari doirasiga kiruvchi loyihalarni amalga oshirishda yoki bu turdagi tashkilotlar faoliyatini olib borilishida har ikki davlat manfaatlari to'qnash kelishidan ko'z yumib bo'lmaydi. Eron yoki boshqa har qanday davlat bu o'rinda Rossiyani chetlata oladi. Birgina misol, Eronni bu mintaqadagi manfaatlaridan kelib chiqib Rossiyaning mintaqadagi ta'siri shu paytgacha pasaymagan, agar buni Turkiyaning bu mintaqadagi ta'siri bilan baholaganda shuni aytish mumkinki, bu mintaqada Eronga Turkiyaning ta'siri Rossiyaga qaraganda ancha salbiy bo'lgan⁵¹.

O'z navbatida Rossiya 1991-yilning oxirida janubiy respublikalar bilan bog'liq og'ir "inqirozli" jarayonni boshdan kechirdi va bu davlatlar 1996-yilga kelib Rossiya bilan aloqlarni kengaytirish asosiy maqsadlari ekanligini ochiq-oydin bayon qilishdi va bu narsa shuni anglatardiki, yangi davlatlar mintaq

⁵¹Дипломатический вестник. // – Москва: февраль, 2000. – С. 52-53.

ittifoqchiligi doirasida Eron bilan hamkorlik qilishda o'z iqtisodiy barqarorliklarini va buning natijasida Rossiyaning janubiy chegaralarida siyosiy barqarorlikni ham ta'minlash imkoniga ega bo'lishardi.

Mintaqa iqtisodiy shakllanishi maqsadlarida to'siqlarni yo'qligi ularni faoliyatlaridagi ishtirokini yanada faollashtiradi. Mutaxassis Mamedovanning fikriga ko'ra, bunday sharoitda Kaspiy dengizi xavzasi mintaqasidagi davlatlar tashkiloti tuzilsa, mahsulot, xom-ashyo ayirboshlashdagi nazorat kuchaytirishda, jahon bozori va a'zo davlatlarning ichki ehtiyojlariga muvofiq holda mahsulot ishlab chiqarish va qayta ishlash turini oshirishda ancha samarali natijaga erishilgan bo'lardi.

Ko'pchilik mutaxassislar g'arbning Kaspiy dengiz neftiga qiziqishi haqida gapirishadi. Lekin shuni unutmaslik kerakki, Markaziy Osiyo mintaqasida yetakchi davlat hisoblangan Rossiyaning qo'shnisi Xitoy bugungi kunda iqtisodiy rivojlanishda o'z qo'shnisi Yaponiyadan ham o'tib ketmoqda. Xitoydagi islohotlar oqimining bunday davom etishi kelgusida uning energetik qaramligini oshiradi. Va bu narsa o'z navbatida Rossiya va Kaspiy dengizi mamlakatlari bilan hamkorlikda ularning asosiy neft iste'molchisini yuzaga keltiradi. Bu esa Xitoy bilan hamkorlikda neft quvurlarini qurilishi Eron orqalin dengiz yo'liga, G'arb va Osiyo bozorlariga chiqish imkonini beradi.⁵²

Shimoliy dengiz va Norvegiyadagi neft-gaz zahiralarini hisobga olgan holda Eron-Rossiyaning Xitoy bozoriga mo'ljallangan hamkorlikdagi loyihasi juda istiqbolli ekanligini ta'kidlashjoizdir.

3. Amerika faktori

AQSh tomonidan Eronga nisbatan qo'yilgan savdo embargosi turli oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shundan kelib chiqqan holda Rossiya uchun Eronga harbiy texnika va yadro texnologiyalarini sotishdan foyda bormi? O'zaro aloqalarning uzoq va istiqbolli bo'lishini nima ta'minlaydi? Bu o'rinda aynan shu jihatlarga e'tibor qaratishni lozim topdik. Yuqorida aytib o'tilganidek

⁵²Магомедов Г. Г. Русско-иранские отношения(век XX и современность). – Москва. 2003. – С. 26.

hozirgi dunyo siyosiy tizimida islomiy rejim avtoritar tipdagi boshqaruvga qaraganda noyob hisoblanadi, bu o'rinda Eron ushbu boshqaruvning liberal ko'rinishi sifatida o'z iqtisodiy tizimida modernizatsiya jarayonlarini boshlab yubordi. Neftdan kelayotgan foyda jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlar davomida yuzaga kelgan har qanday ijtimoiy-iqtisodiy xarajatlarni yengillashtirish imkonini beradi. Birgina 1993-1994-yillardagi neft narxining tushib ketishi va tashqi qarzning ko'pyib ketishi tufayli 1995-yil boshlarigacha Erondagi iqtisodiy vaziyat bimuncha tang ahvolga kelib qolgan edi. Aynan shu vaziyatda AQSh Eronga nisbatan embargo e'lon qildi va unga boshqa davlatlarning ham qo'shilishini talab etdi. Bundan tashqari embargo riyol kursini keskin tushib ketishi va mamlaktda yangi inflyatsiya to'lqinini avj olishiga imkon yaratdi. Keyinchalik neft narxining ko'tarilishiga qaramasdan mamlakatda iqtisodiyotni erkinlashtirishga bo'lgan urinishlar xavf ostida qolmoqda edi. Bu jarayonlarning AQSh manfaati uchun natijasidan mantiq bor edi. Lekin Rossiya uchun inqirozdan chiqish, mintaqa barqarorligini ta'minlash va bu borada Erondagi siyosiy vaziyatni yaxshilash uchun unga muayyan ko'mak berishi lozim bo'ladi. G'oyaviy-siyosiy avtoritar davlatlarda iqtisodiyotni liberallashtirish borasidagi islohotlar oxir-oqibat siyosiy sohada liberallashtirish olib kelganligini tarixiy tajriba ko'rsatmoqda.⁵³

Albatta AQShning qiziqishlari bu – ularning o'zlarini qiziqishi, lekin baribir Amerika neft kompaniyalari AQSh hukumatining Eron bilan olib borayotgan tashqi siyosatida hech qanday yutuqqa erishmadi va bu ham yetmaganidek hukumat Eronda istiqbolli Kaspiy loyihalarida qatnashishda yo'qotilgan imkoniyatlarini ham qayta tiklab bera olmaydi. Rossiya uchun bunday sharoit juda qulay hisoblanadi, agar Eron bilan tashqi siyosiy munosabatlardagi o'zaro manfaatdorlik mintaqadagi siyosiy barqarorlikni ta'minlay olsa.

⁵³Saido Lotfian. Siyosate rusiye dar boreye selohe hasteyi iron. – Tehran: Farhang, 2001. – C. 121.

4. Iqtisodiy potentsial.

Mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan Eron so'ngi besh-olti yil ichida o'z iqtisodiy potentsialini sezilarli darajada kattalashtirishga muvaffaq bo'ldi. Rossiya bozorlari uchun yangi eksportga yo'naltirilgan sohalarni o'sishi istiqbolli hisoblanadi. Tashqi savdo faoliyatidagi liberallashtirish mamlakatga yangi texnologiyalar oqimini ta'minladi, shuningdek bu komponentlar shoh davrida to'xtab qolgan sanoatni qayta tiklashi va allaqachon tashqi bozorga chiqib ulgurgan tekstil, trikotaj va poyabzal kabi sohalarni eksport qobiliyatini yanada oshirishi lozim edi. Albatta dastlabki besh yillik rejada ko'zda tutilgan barcha loyihalar iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda o'zining qonuniy asosiga ega edi va muvaffaqiyatli bajarildi. Faqatgina avtomobil sanoatini xususiylashtirish va modernizatsiya qilishning boshqa davlatga tortilib ketganligini hisobga olmasa va bu narsa Rossiya bozori uchun g'oyat jozibador edi.

Neftga bog'liq bo'lmagan sohalar eksportini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ko'plab chora-tadbirlarga qaramasdan Rossiyaga kiritilayotgan Eron tovarlari uning sanoat imkoniyatlaridan sezilarli darajada past edi. Bundan tashqari eronlik ekporterlar Rossiya bozorlari quyi va o'rta sifatdagi mahsulotlarga tez to'lishini hisobga olishmagan edi (bu bozorlar dastavval juda kichik hajmda edi va keyinchalik ko'plab millionerlarning Turkiya va Xitoyda arzon mahsulotlarni olib kelishi hisobiga o'sa boshlagan edi), bu ham yetmagandek keying paytga kelib sifatli va nisbatan qimmat mahsulotga bo'lgan talab tezlik bilan o'sa bordi. Shuning uchun ham iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramsdan Eron dunyoning yirik importerlaridan biri bo'lib qolaverdi.⁵⁴

5. Rossiya konversiyasi va harbiy faktor

Ushbu faktor so'ngi yillarda Eron-Rossiya munosabatlarida yaqin va o'rta muddatga mo'ljallangan istiqbolli ahamiyatini saqlagan holda faol ko'zga tashlanganligini ko'rish mumkin. Bu nafaqat harbiy mahsulot oldi-sottisi bilan

⁵⁴Varjand Parviz. Aran va Shirvan. – Tehran: Farhang, 1999. – C. 389.

ahamiyatli balki mudofaa sohasidagi ilmiy-texnik hamkorlik hamda shu sohadagi sanoat ishlab chiqarishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

6. Mintaqaviy faktor

Bu faktorda asosan mintaqadagi iqtisodiy musatqillikka bo'lgan intilish muhim ahamiyat kasb etadi. Rossiyada bu narsa real voqelik hisoblanadi. Agar oldinroq mintaqaviy savdoni rivojlantirish zarurati haqida ko'p gapirilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib u mintaqaviy aloqalar o'rnatishda dolzarb masalaga aylandi. Eron provinsiyalaridagi(ostonlar) savdo-sanoat palatalari qarama-qarshi bo'lmagan umumrossiya qonunchiligining soliq va boshqa imtiyozli shartlari asosida Rossiya Federatsiyasi subyekti bo'la oladi. Bu esa Rossiya va Eron talablarini o'zgarishiga nisbatan faol ta'sir etuvchi xususiy sektor uchun istiqbolli ahamiyat kasb etadi. Bu turdagi aloqa namunasi sifatida birinchi bo'lib Eron va Udmurtiya o'rtasida bevosita aloqalar yo'lga qo'yildi.

Majlis tomonidan qabul qilingan va Eronda kelgusi besh yillikda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturi asosan keying islohotlar rivojiga qaratilgan bo'lib, bunda Rossiya ishtirokida birinchi besh yillik rejani amalga oshirish davomida boshlangan loyihani yakuniga yetkazishva yana ko'plab yangi loyihalarni amalga oshirish istiqbollari nuqtai-nazaridan kelib chiqilgan edi. Bu asosan energetika, transport qurilishi va AES qurilish ishlari rejasini amalga oshirish doirasida ko'zda tutiladi. Bu loyihalarda Rossiyaning ishtiroki va imkoniyatlari Eron tashqi iqtisodiy aloqalariga uzoq muddatgacha o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatib turadi.⁵⁵

Davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni asosini tashkil etuvchi iqtisodiy munosabatlar yangi davrda, xususan, iqtisodiy globalizatsiya sharoitlarida qanday ahamiyat kasb etayotganligi, ularning bu boradagi aloqalariga qay darajada ta'sir o'tkazayotganligini tahlil etish g'oyat muhim sanaladi. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, globalizatsiyaning asosiy ko'rinishlaridan biri bu xalqaro tashkilotlar va ularning rolini kuchaytirishdan iboratdir. Bugungi

⁵⁵Mohammad Khasan Mahdiyan. Vijegihoyi ravobete Iron va Rusiya dar doureye Mohammad Khatami. –Tehran: Farhang, 2009. – C.133.

kunda Rossiya va Eron turli mintaqaviy-iqtisodiy tashkilotlarda faol ishtirok etmoqdalar. Bu esa bir-birlarini manfaatlarini hisobga olgan holda yaqinlashish lozimligini ko'rsatmoqda. Potentsial investorlarni izlab topish va ularning ishonchini oqlash, qo'shma investitsion loyihalarni ishlab chiqish, Eron uchun ham, Rossiya uchun ham favqulodda muhim hisoblanadi. Masalan, Eron turli darajada Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari asotsatsiyasi(ACEAN), BMTning Iqtisodiy-siyosiy Kengashi(EKOCOC), Fors ko'rfazi davlatlari hamkorligi tashkiloti(FKDH) hamda Butunjahon savdo tashkiloti(BST) kabi bir qatortashkilotlar bilan muzokaralar olib bormoqda. Har ikki davlat ham mamalakatga olib kirilayotgan xorijiy investitsiyadan manfaaddor bo'lib, bu boradagi iqtisodiy siyosatning uyg'unligini o'zida aks ettiradi. Lekin bu ikki davlatning xalqaro maydonda o'zaro do'stona munosabatlariga qaramasdan Chechniya bilan bog'liq bo'lgan aloqalar tufayli xalqaro hamjamiyat to'liq ishonch bildirmayotganligini ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun ham turli sohalarda, ayniqasa, ijtimoiy va ilmiy sohalarda inson huquqlari va milliy manfaatlarga oydinlik kiritish kerak. Bu esa G'arb bilan yaqinlashishga va ularning o'zaro tushunishlariga olib keladi.⁵⁶

Iqtisodiy rivojlanishning jahon tendensiyalarini tan olgan holda shu tendensiyalarga mos o'zlarining iqtisodiy siyosatini ishlab chiqish muhim bo'lib, bunda Eron va Rossiyaning iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlarida umumiy o'xshashlik ko'zga tashlanadi. Bular – kelgusida ham iqtisodni liberallashtirishni davom ettirish, bozor mexanizmlarini yanada qo'llab-quvvatlash va jahon bozorlari bilan bog'lanishni kuchaytirishdir.

Eron ham, Rossiya ham iqtisodiy potentsialning muhim elementi zamonaviy iqtisodiy infrastrukturaning komponentlaridan biri bo'lgan soliq siyosati va soliq sistemasini liberal shaklda bo'lishi kerak deb hisoblaydilar. Iqtisodiy potentsialni tashkil etuvchi komponentlardan biri bu mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlikdir. Buning uchun jamiyatda demokratik tizimni yanada kengaytirish va matbuot erkinligi hamda siyosiy partiyalar faoliyatini

⁵⁶Мировая экономика и международные отношения.// 2000. – №9. – С. 93.

rivojlantirish lozim. Bu borada Eronning eng demokrat prezidenti Said Muhammad Xotamiy o'z chiqishlarida faqatgina demokratik islohotlarga iqtisodiyotni rivojlantirishi va investitsiyalar oqimini tezlashtirishi mumkinligini doimo ta'kidlaydi.⁵⁷

XX asrning 90-yillaridan keyin xalqaro maydonda yuz bergan o'zgarishlar ikki davlat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollari to'g'risidagi qarashlarga jiddiy o'zgartirishlar kiritdi.⁵⁸ Har ikki davlat o'z iqtisodiy-siyosiy hamkorliklarni yangi bosqichda amalga oshirishda faol harakatga kirishdilar. Rossiya-Eron iqtisodiy aloqalarining ahamiyatli jihati shundaki, u nafaqat iqtisodiy balki siyosiy-strategik ahamiyat kasb etishi bilan ham e'tiborli. Buni yuqorida ta'kidlab o'tilgan bir qator sabablar bilan isbotlash mumkin, ya'ni Kaspiy dengizi, Markaziy Osiyo va Kavkazdagi voqealar, mintaqaviy xavfsizlik masalalari kabi umummanfaatli strategik sherikchilik shular jumlasidandir. Iqtisodiy, siyosiy maqsadlar bilan bir qatorda xalqaro loyihalarni amalga oshirishda ham ikki tomonlama manfaatlar mushtarakligini ko'rish mumkin. Bu narsa Eronning Shanxay hamkorligi va Kollektiv xavfsizlik tashkilotlarida kuzatuvchi maqomida ishtirok etishi va narkobiznes, terrorizmga qarshi kurashda hamkorlikdagi harakati hamda o'z hududi orqali Rossiyadan transport yo'lagini ochish, shuningdek bugungi kunda ko'p gapirilayotgan neft-gaz, energetika va ilmiy-texnik loyihalardagi hamkorlikda namoyon bo'ladi. Bu hamkorlikni amaliy ahamiyati sifatida 2001-yili iyun oyida Moskvada Eron neft-gaz kompleksini Rossiya texnologiyasi asosida qayta jihozlash haqida ikki tomonlama shartnoma imzolanadi. 2009-yil "Gazprom neft" va Eron milliy neft kompaniyasi tomonidan umumiy zahirasi 2 mlrd. barrelga teng bo'lgan "Azar" va "Shangul"dagi neftni rus neft kompaniyalari tomonidan qayta ishlashni ko'rib chiqish haqida ikki tomonlama memorandum imzolandi. Faqatgina 2011-yil avgust oyiga kelgandagina Eron uning xohishsiz loyihani amalga oshirish borasidagi harakatlar boshlanmaguncha bu yerdagi xom-ashyoni qayta ishlash

⁵⁷ Khatami says democracy needed for growth. Reuters. – Tehran. September 3. 1999.

⁵⁸ Азия и Африка сегодня// 2003. – №10. – С. 65.

huquqidan Rossiya firmalarini mosuvo qildi. 2007-yilda esa Eron neft-gaz kompleksiga kiritilgan 20 mln.dan ortiq xorijiy kompaniyalar investitsiyasini cheklovchi sanksiyaga asos bo'luvchi AQShning D.Amato qonuni qabul qilinishi va uning tahdidi ostida shu yili Rossiyaning "LUKOYL" firmasi "Anaran"da olib borayotgan faoliyatini to'xtatib qo'yishga majbur bo'ldi. 2008-yil "Gazprom" Eron Islom Respublikasining "Janubiy Fors" qismida yirik gaz sanoati komplekslarida qayta ishlashda qatnashish choralari haqida kelishuv imzolaydi. Lekin bu ham oldingi loyihalardan biri sifatida ko'rilmay qolib ketdi⁵⁹.

Bir necha yil oldin Eron gaz eksport qiluvchi davlatlar xalqaro konsorsiumini tuzish g'oyasi bilan chiqdi va bunda tajribaga ega bo'lgan davlat bilan birgalikda harakat qilishi lozim edi. Shu maqsadda 2007-yil Qatarda gaz eksport qiluvchi davlatlarning bu boradagi siyosatini muvofiqlashtirish bo'yicha qaror qabul qilindi. 2008-yil Moskvada esa Rossiya, Eron va Qatar o'rtasida Eronda gaz qazib olish va uni Qatarda suyultirish bo'yicha qo'shma korxona barpo etish to'g'risida shartnoma imzolandi. Lekin AQSh hukumati tomonidan xalqaro gaz konsorsiumi g'oyasini amalga oshirishda ishtirok etgan har qanday davlatga nisbatan jinoiy ta'qib qilish haqida qaror qabul qilingach "uchlik" loyihasi ham muzlatib qo'yildi. Buning natijasida Rossiya gaz tranziti bo'yicha o'zining hamkorlari bilan "gaz jangini" davom ettirdi, biroq Eron o'z xom-ashyosi uchun zaruriy bozorni qo'ldan boy berdi.

Eron bilan iqtisodiy aloqalarning strategik ahamiyati Rossiya uchun g'oyat muhim bo'lib, bu davlat O'rta Sharqda Rossiyaning yirik savdo sherigi bo'lishi bilan birga Rossiya texnologiyalari, transport vositalari, metal va nometal mahsulotlarini qo'shni davlatlarga olib o'tish uchun muhim tranzit yo'li ham hisoblanadi. Bundan tashqari, Eron va Rossiya Kaspiy mintaqasi va bu yerdagi qazilma boyliklar, uglevodorod zahiralari hamda ularni transportirovka qilish, janubiy-sharq yo'nalishi bo'yicha milliy va xorijiy mahsulotlarni tashish

⁵⁹ Iran-Russia relations in the 90s, part 2; Robert O. Freedman, professor of political science and president, Baltimore Hebrew University. http://www.temadnya.ru/russia/russia_iran_relations_2.htm

“yo’lagini” tashkil etishda ham manfaatlar mushtarakligiga ega. Rossiyaning Eron bilan neft-gaz sohasida olib borayotgan hamkorligi, xususan Rossiya uchun iqtisodiy manfaatli bo’lgan uglevodorod xom-ashyosini tashish “yo’lagi”ni barpo etishdagi harakatlari Markaziy va Janubiy Osiyo hamda Yaqin va O’rta Sharqda Rossiyaning tashqi siyosiy pozitsiyasini yanada mustahkamlaydi va umuman olganda bu mintaqadagi energetik xavfsizlikni mustahkamlashga qodir bo’ladi⁶⁰.

Bugungi kunda xalqaro siyosiy maydonda yuz berayotgan voqealar va Eron atrofida yig’ilib qolgan turli siyosiy “o’yinlar” kuchaygan bir paytda Eron tomonidan ikki tomonlama iqtisodiy aloqlar bilan bog’liq hukumatlararo muloqotlarni yanada rivojlantirishga katta e’tibor berilmoqda. Shunga qaramay ikki tomonlama savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda faol qadam tashlash zarur ekanligini Rossiya tashqi savdo aylanmasida Eronning roli yuqori emasligini har ikki davlat savdo rivojlanishi potentsialiga muvofiq emasligini ko’rsatib turadi. 2010-yil natijalariga ko’ra Rossiya tashqi savdo hamkorlari orasida Eron 29-o’rinni egallaydi va shu jumladan eksportda 26 va importda 61-o’rinlarni band qilganligi so’zimizning yaqqol tasdig’idir. Rossiya tashqi savdo aylanmasida Eronning ulushi esa 0,6%ni tashkil etgan. 2000-yilda 2010-yilgacha ikki tomonlama rus-eron savdo aloqalari mahsulot ayirboshlash tendensiyalarini o’sishi bilan belgilanadi. 2010-yilda davlatlar o’rtasida savdo va mahsulot ayirboshlash hajmi o’tgan yil bilan taqqoslaganda 19,5%, eksport 19% va import 27%ga oshganligini ta’kidlab o’tish lozim. Eron bilan mahsulot ayirboshlashning katta qismi Rossiya eksporti(92,5%)ga to’g’ri keladi. 2011-yil yanvar oyini o’tgan yil shu oy bilan taqqoslaganda mahsulot ayirboshlashning o’sishi 32%(326,4 mln. AQSh dollorigacha), ekaport ham xuddi shu raqamda va import 38%(28,1 mln. AQSh dollari)gacha yetganligini kuzatish mumkin. Rossiya va Eron o'rtasidagi tovar ayirboshlashdagi mahsulotlar tizimi hamon o'zgarishsiz ya'ni 2000-yildagi holatda qolmoqda. 2010-yilga kelib Eronga

⁶⁰ Тагизаде Г. С. //Россия и Иран, перспективы сотрудничества на современном этапе // Ирано-дагестанские культурно–исторические связи. – Махачкала: 2006. – С. 212.

nisbatan rus eksport tovarlari tizimini o'tgan yil kabi metal va uning tayyor mahsulotlar-64%, qimmatbaho toshlar va uning tayyor mahsulotlari 17,5%, yog'och, sellyuluza-qog'oz mahsulotlari 6,6%, boshoqli o'simliklar 5,16%, mineral va yoqilg'i-energetika mahsulotlar 2,95% tashkil etgan. O'z navbatida Rossiyaning Erondan import qiluvchi mahsulotlari ilgorigidek oziq-ovqat va qishloq xo'jalik mahsulotlari 84,7%, shuningdek mashina va texnologiyalar 6,6%ni tashkil etgan.

Eron tashqi savdo statistikasi haqida ma'lumotlar ochiq holda mavjud emas. Eron savdo va bojxona boshqarmasi vazirligi 2007-yil tashqi siyosatdagi noqulay vaziyat hamda amaldagi xalqaro iqtisodiy-siyosiy sanksiya tufayli statistik ma'lumotlarni keng jamoatchilikka taqdim qilishdan bosh tortmoqda. Eronning neft xom-ashyosi eksporti bo'yicha ma'lumotlari ham yopiqligicha qolmoqda⁶¹.

Ikki davlat o'rtasidagi o'zaro jamg'armalar hajmining umumiy qiymati 2010-yilning dastlabki to'qqiz oyiga nisbatan 30,5 mln., shu jumladan Eronning Rossiyadagi investitsiyasi 27,4 mln. va Rossiyaning Erondagi investitsiyasi 3,1 mln. AQSh dollariga baholanmoqda. Eronning Rossiyaga to'g'ridan-to'g'ri olib kirayotgan investitsiyasi 2010-yilning o'rtalarigacha bo'lgan vaqt mobaynida 608 ming AQSh dollarini tashkil etganligini ko'rish mumkin. Har ikki davlat investorlarini iqtisodiy sohada chakana va ulgurji savdo ko'proq qiziqtirayotganini kiritilayotgan investitsiyalarning 90%dan ortig'i avtotransportga xizmat ko'rsatish va maishiy texnika sohalariga yo'naltirilayotganligidan bilib olish qiyin emas.

2007-yil 16-oktabrda Rossiya Federatsiyasi va Eron Islom Respublikasi Prezidentlari o'rtasida bo'lib o'tgan uchrashuvda tomonlar o'zaro savdo-iqtisodiy hamkorlik hajmini yanada kengaytirish chora-tadbirlari haqida kelishuvni imzoladi. Bu kelishuvni yuqori darajada bajarilishini ta'minlash maqsadida 2007-yil dekabr oyida Moskvada Rossiya-Eron iqtisodiy-savdo hamkorligi

⁶¹ Каковы рамки российско-иранского партнерства? Владимир Сажин.
http://world.ng.ru/azimuth/2001-03-01/2_iran.html

bo'yicha doimiy kengashning yettinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi va unda ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy-savdo, sanoat va ilmiy-texnik hamkorlikni rivojlantirishni uzoq muddatli chora-tadbirlari haqida hukumatlararo Memorandum imzolandi. Bundan tashqari shu yilning 13-dekabrida Eron Islom Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida turizm borasidagi hamkorlik haqida kelishuv imzolanadi. Bu Memorandum davlatlar o'rtasidagi kelishuv-huquqiy asosni kengaytirdi va o'zaro hamkorlik borasida standartlashtirish, metrologiya va sanoat tadqiqotlarini tartibga solish bo'yicha Federatsiya agentligi va Eron standartlashtirish instituti o'rtasidagi muvofiqlikka asos bo'ladi⁶².

Ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning yangi bosqichi va ularning rivojlanib borishini quyidagi yo'nalishlarga ajratish mumkin:

- Kapital mablag'larini rag'batlantirish va himoya qilishda o'zaro hamkorlik haqida kelishuv. Iqtisodiy-savdo hamkorligi bo'yicha Rossiya-Eron Doimiy komissiyasining Eron bo'yicha raisi o'rinbosari M. Mottakiy 2007-yil 13-dekabrda Eron tomoni bu shartnomani imzolashga tayyor ekanligini ma'lum qilgan.

- 1999-yil 19-avgustda imzolangan RF va EIR hukumatlararo "Havo yo'llari" haqidagi kelishuvni ayrim qismlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish hamda "bahsli masalalarni tartibga solish" haqidagi Eron taklifini qabul qilinishi va 2008-yil 23-yanvarda RF hukumati bu protokolni imzolanishi uchun Rossiya transport vazirligiga ko'rsatma bergani.

- Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida 2008-yil oktabrda Ostonada tashkil etilgan RF prezidenti Vladimir Putin va EIR birinchi vitse-prezidenti P.Dovudi o'rtasida bo'lib o'tgan uchrashuvda ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy-savdo shuningdek, elektroenergetika, neft-gaz va bank sohalaridagi hamkorlik asoslari keng muhokama qilindi. 2009-yil ortabr oyida EIR birinchi vitse-prezidenti M.R.Rahimiy ShHTga a'zo davlat hukumati rahbarlarining 8-yig'ilishida ishtirok etdi.

⁶² Федюкин, Е. В. //Феномен терроризма и трансграничной преступности в Закавказье и многостороннее сотрудничество в контртеррористической сфере //Е. В. Федюкин //Вестник ННГУ. Серия Международные отношения, политология, регионоведение. 2007. – №1.

- 2008-yil 3-4-oktabrda Astraxan shahrida bo'lib o'tgan Kaspiybo'yi davlatlari iqtisodiy konferensiyasining uchunchi Kaspiy sammitida EIR nomidan vitse-prezident A. Saidlu va Rossiya delegatsiyasi yetakchisi RF hukumat raisining birinchi o'rinbosari V. A. Zubkovlar ishtirok etdi. Sammitda Eron delegatsiyasi tomonida ko'tarilgan tashabbus asosida Kaspiy dengizi iqtisodiy hamkorlik tashkilotini barpo etish istiqbollari muhokama qilindi. Shuningdek konferensiyada ishtirokchi-a'zo davlatlarning o'zaro eksport qobiliyatini yanada oshirishga katta e'tibor qaratildi.

Bu o'rinda RF tashqi ishlar vazirligining so'zlariga qaraganda, Eronni Osiyo mintaqasida energetika bozorini integrallashtirishni tashkil etish haqidagi g'oyasi ahamiyatga molikdir.

RF hukumatining ko'rsatmasi bilan 2009-yil 4-fevraldan iqtisodiy-savdo hamkorlik bo'yicha Eron-Rossiya Doimiy Komissiyasining Rossiya vakili etib energetika vaziri S.I.Shmatko tayinlandi. 2006-yil aprel oyida Eron tomonidan Komissiya raisi etib Eron Tashqi ishlar vaziri Manuchehr Mottakiy tayinlangan edi. Komissiya 2009-yil 29-30-oktabrda Tehronda bo'lib o'tgan sakkizinchi yig'ilishida oldingi majlislarda qabul qilingan qarorlar ijrosini ta'minlash va bajarilishini nazorat qilish masalalari muhokama qilindi⁶³. Shuningdek Komissiya energetika bo'yich maxsus ishchi gurui tomonidan yangi protokol imzolandi. Demak, Doimiy Komissiya doirasida maxsus ishchi guruhning faoliyatiga muvofiq holda Eron-Rossiya o'rtasidagi savdo aloqalari muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganligini kuzatish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy va savdo aloqalari XXI asrning dastlabki o'n yilligida yangi bosqichga ko'tarildi. Buni har ikki davlatning xalqaro va mintaqaviy iqtisodiy-savdo va strategik hamkorlik tashkilotlaridagi faoliyatlari va o'zaro munosabatlardagi qo'llab-quvvatlashlardan, ikki tomonlama mahsulot ayirboshlash hajmining yildan-yilga o'sib borishi, har qanday xalqaro tahdid va noqulay siyosiy

⁶³ Михаил Агаджанян //Россия-Иран: нацеленность на реализацию совместных экономических проектов.// www.mirexpo.ru/exhibitions/foreign/iran_russia.doc, апрель 2012.

vaziyatlarga qaramasdan ichki potentsialni yangi istiqbolli loyihalar asosida rivojlantirish har ikki davlat hamkorligining bosh mezoniga aylanib borayotganligidan deb bilamiz.

II.2. Eron tashqi siyosatining "Tamaddunlar muloqoti" konsepsiyasi doirasida Rossiya-Eron munosabatlarining rivojlanishi

1997-yil 23-mayda Eronda bo'lib o'tgan prezidentlik saylovlarida Said Muhammad Xotamiy umumiy saylovchilarning 86% ovozi bilan Eron Islom Respublikasi prezidenti etib saylandi. Demokratik va liberal ruhdagi qarashlari bilan ajralib turuvchi Muhammad Xotamiy prezidentlik faoliyatiga kelgach nafaqat mamlakat ichki siyosiy vaziyatini tartibga soldi, balki tashqi siyostda ham ulkan ishlarni amalga oshirdi.

Islom inqilobi g'alaba qozongach Eron o'z tashqi siyosatini Humayniy g'oyalari bo'yicha, ya'ni "na sharq, na g'arb, faqat-islom" tamoyili ostida olib bormoqda edi. Ayniqsa g'arb davlatlari bilan bo'ladigan munosabatlar yuqori darajada ta'qiqqa ega edi. Humayniyning fikricha, AQSh boshchiligidagi ko'plab g'arb davlatlari islomga qarshi va islomga qarshi bo'lgan har qanday davlat Eron Islom Respublikasiga qarshi ekanligini ta'kidlardi. G'arb bilan bu tartibdagi munosabatlar o'z navbatida Rossiya bilan olib boriladiga aloqalarga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmasdi.

Humayniy vafotiga qadar davom etgan bunday "yopiq siyosat", Muhammad Xotamiy prezidentlik qilgan davrga kelib sezilarli o'zgardi. Uning demokratik qarashlari va islomda zamonaviy tartib-qoidalarga mohirlik bilan yondoshuvni amalga oshirishi sekin-asta g'arb davlatlari bilan munosabatlarni tartibga solish imkonini berdi. Chuqur diniy va dunyoviy bilimlarga ega bo'lgan Xotamiy shia ruhoniylarning "hujjatul islom" unvoniga ega bo'lgan edi.

Uning dastlabki prezidentlik davri (1997-2001) Eron ichki va tashqi siyosatida yangi davrni belgiladi. Xorij nashrlarida uni "Oyatullo Gorbachev"

deb ham atasha boshlashdi⁶⁴. Bu borada uning ko'zga ko'ringan ishlaridan biri mamlakat tashqi siyosat kursining o'zgarganligi bo'ldi. Eron yopiq eshiklar siyosatidan, islom inqilobini eksport qilish g'oyasidan – tubdan farq qiluvchi o'zgacha ochiq eshiklar siyosati, ya'ni xorijiy davlatlar bilan keng aloqalarni yo'lga qo'yish, xususan Xotamiy tomonidan ishlab chiqilgan “Tamaddunlar muloqoti”(Goftoguyi tamoddonho) konsepiyasi bu borada kata o'zgrishlarni boshlab berdi.

1989-yil fevral oyida Tehronda SSSR Tashqi ishlar vaziri E. A. Shevrnadzening va iyul oyida Eron Islom Respublikasi prezidenti Ali Akbar Rafsanjoniyning Moskvaga qilgan tahriflari bilan ikki davlat o'rtasida aloqalarning yangi davri boshlandi. Bu tashriflar chog'ida ikki mamlakat manfaatlarini o'zida mujassamlashtirgan bur qator shartnomalar imzolandi. Rafsanjoni Moskvadagi kosmanavtlar saroyiga tashrif buyuradi va bu yerda kelajakda kosmik sohada yangi tadqiqotlar olib boorish masalalarida suhbat o'tkazadi. Bu esa XX asrning 90-yillaridan boshlab ikki davlat o'rtasidagi aloqalar yangi tartibda rivojlana boshlaganligini va bu narsa Humayniy vafot etgach Eronda hukumat rahbarlarining biroz bo'lsada demokratik ruhdagi harakatlarni amalga oshirishiga imkon bera boshlaganligini ko'rsatadi.

Aslida Eronning “Tamaddunlar muloqoti” mazmunidagi siyosiy harakati 1989-yil mamlakat prezidentligiga Hoshimiy Rafsanjoniyning kelishi bilan boshlangan edi. Albatta bu rasman “Tamaddunlar muloqoti” deb nomlanmagan bo'lsa ham, Rafsanjoniy amalda shu mazmunni o'zida aks etiruvchi tashqi siyosat olib bordi. Bu jarayon keyinchalik Muhammad Xotamiyning prezidentlik lavozimiga kelishi bilan rasmiy davlat dasturi sifatida e'tirof etildi va amalga oshirila boshladi.

O'tgan ikki o'n yillik davomida bu konsepsiya doirasida aloqalar to'xtovsiz rivojlanib bordi. Eron va Rossiya ichki-tashqi siyosatiga bo'g'liq masalalarda xususan, global va mintaqaviy muammolarni hal etishda har ikki

⁶⁴ Очерки истории Министерства иностранных дел России (1917-2002). – Москва: 2002. Т. II. – С. 559.

davlat manfaatlari mushtarakligi hamda istiqbolli loyihalarni amalga oshirishda konspsiyasining roli va ahamiyati beqiyosdir.

Eron ushbu konsepsiya bo'yicha o'z tashqi siyosatida Rossiya bilan bo'lgan muzokaralar Kaspiy dengizining huquqiy maqomi, Iroq bilan bog'liq voqealar, Kavkazorti, Markziy Osiyo va Afg'onistondagi mojarolarni hal etish kabi bir qator har ikki tomon uchun o'ta dolzarb ahamiyatga ega masalalarni qamrab oladi. O'tgan o'n yilliklar davomida ikki mamlakat ham og'ir va murakkab voqealarga guvoh bo'ldi va o'zaro munosabatlarda notekis aloqalarni boshdan o'tkazdi. Lekin bu davlatlar o'rtasida siyosiy muzokaralar hech qachon to'xtab qolmadi. Chunki bu ikki davlat qo'shni bo'lish bilan birga, juda ko'plab masalalarda, geosiyosiy voqealarda, turli muammolarni hal etishda o'zlarining yaqin qarashlariga ega.

“Tamaddunlar muloqoti” konsepsiyasida siyosiy muzokaralarga asos bo'ladigan iqtisodiy-savdo hamkorlik, strategik va harbiy – texnik aloqalar yotadi. Buni ikki mamlakat o'rtasidagi davlat rahbarlarining oliy darajadagi uchrashuvlarida va rasmiy tashriflarida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Bu uchrashuvlar ayniqsa yuqorida ta'kidlangan konsepsiya muallifi Said Muhammad Xotamiy davrida ayniqsa keng quloch yoydi. 2001-yili mart oyida Xotamiyning Rossiyaga tashrifi konsepsiya tarixidagi voqealar ichida eng muhimi bo'ldi⁶⁵. Bun tashrifning asosiy ko'rsatkichlaridan biri Eron RSFSRni davlat sifatida tan olganiga 81 yil to'lishi munosabati bilan uyushtirilganligida edi. Ikki tomon ham XXI asrda xalqaro aloqalarni o'rnatishda xavfsiz, ochiq va demokratik sistemada boshqa mamlakatlar bilan birgalikda munosabatlar o'rnatishi ta'kidlandi. Ular globalizatsiya miqyosidagi tahdid va chaqiriqlarda javob izlashda universal xalqaro institutlar, maslan eng avvalo BMTning yetakchi rol o'ynashida hamfikir ekanliklarini bildirdilar. Bu tashriflarda o'zaro aloqalar va hamkorlik prinsiplari to'g'risida hamda Kaspiy dengizi masalasida qo'shimcha shartnoma imzolandi. Rossiya boshqa ba'zi-bir davlatlarning

⁶⁵ Хатами М. Ислам, диалог и гражданское общество. – Москва: Наука, 2001. – С. 256.

qarama-qarshiliklariga qaramasdan Eron bilan o'z har qanday masalada doimiy hamkor bo'lib qolishini aytib o'tdi. Prezidentlarning uchrashuvlari va muhokama majlislarida asosiy e'tibor – quolsizlanish, yadro qurolini qisqartirish va mahsulot hamda texnologiyalar eksportida nazoratni kuchaytirgan holda o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratildi.

Bundan tashqari, 2000-yil 6-sentabrda Nyu-Yorkda bo'lib o'tga sammit chog'ida Rossiya Federatsiyasi prezidenti V.V.Putin va Eron Islom Respublikasi prezidenti Said Muhammad Xotamiylarning o'zaro muloqotlarini ham keltirib o'tish lozim. Bu muloqotlar mobaynida har ikki davlat rahbarlari oliy darajadagi tashriflar va elchilik almashinuvlarini yanada kengaytirishga kelishib olishadi⁶⁶.

Bu boradagi tashriflarni boshlab bergan Xotamiyning 2001-yili 12-15-mart kunlari Rossiya Federatsiyasiga qilgan rasmiy tashrifi muhim hisoblanadi. Aynan shu tashrif chog'ida har ikki davlat rahbarlari mintaqaviy va global jarayonlar hamda ularning muntaqaga ta'siri, ijobiy va salbiy tomonlari haqida atroflicha fikr almashdilar. Ushbu tashrif davomida har ikki davlat rahbarlari uchinchi davlatga qarshi bo'lmagan holda o'z manfaatlarini hisobga olib, iqtisodiy-savdo, ilmiy-texnik va madaniy sohalarda aloqalarni kengaytirishga kelishib olishdi.

Har ikki davlat rahbarlari bir-biriga hamohang tarzda Moskva taklifiga binoan qabul qilingan “XXI asr jahon konsepsiyasi” va Xotamiyning tashabbusi bilan ishlab chiqilgan “XXI asr tamaddunlar muloqoti” konsepsiyalarini ko'rib chiqdilar. Taraflar fuqarolarga, ularning haq-huquqlari va o'zaro munosabatlariga oid siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlarni himoya qilishda va bu huquqlarni ro'yibga chiqarishda asosiy e'tiborni qaratish zarurligini ta'kidladilar. Bu bordagi kelishuvlar ichida etnik va konfessional muammolarga oid shartnomalar muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday shartnomalarning birida ikki tomon o'rtasidagi etnokonfessional muammolardagi

⁶⁶ Мамедова Н. М. Состояние и перспективы развития экономических отношений России и Ирана // Иран сегодня. – Москва: Наука, 2006. – № 1. – С. 145.

murosizlik va diskriminatsiyaga chek qo'yilishi haqida kelishib olishdi. Bu borada Rossiya ha Eron ham inson huquqlari masalalarini ko'rib chiqishda yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarga va adovatlarga barham berishga tayyor ekanliklarini namoyon qildilar.

Rossiya-Eron prezidentlarining o'zaro uchrashuvlaridagi siyosiy muzokarlarda asosiy o'rinni mintaqaviy siyosat masalalari, unda yuzaga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llarini qidirib topishda birgalikda hamkorlik qilish asosiy o'rinni egallaydi. Har ikki davlat rahbarlarini ham birday tashvishga solayotgan narsa bu-xalqaro terroriza va chegaralardan noqonuniy olib o'tilayotgan giyohvand moddalar savdosidir. Bu muammoni hal etish borasida har ikki davlat tashqi ishlar vazirlarining 1998-yil 26-sentabrda Nyu-Yorkda bo'lib o'tgan uchrashuvlari chog'ida terrorizmga qarshi qo'shma bayonot imzolanadi. Rossiya Federatsiyasi Tashqi ishlar vaziri I. Ivanov va Eron Islom Respublikasi Tashqi ishlar vaziri K. Xorrozi ishtirokida imzolangan bu qo'shma bayonot "Tamaddunlar muloqoti" konsepsiyasining amaliy ko'rinishlaridan biri edi.

"Tamaddunlar muloqoti" konsepsiyasi asosida Eron-Rossiya munosabatlarini yanada jadallashganini ko'rishimiz mumkin. 1990-2000-yillar davomida ikki mamlakat o'rtasidagi rasmiy davlat vakillari tashriflari bunga yaqqol misol bo'la oladi. Misol uchun Rossiya tomonidan Rossiya milliy xavfsizlik kengashi sekretari S. B. Ivanov, Tashqi ishlar vaziri I. S. Ivanov, mudofaa vaziri I. D. Sergeev, yoqilg'i va energetika vaziri S. A. Generalov, tabiat resurslari vaziri V. P. Orlov, federatsiya va millatlar bo'yicha vazir A. V. Bloxin, Rossiya chegara xizmati boshlig'i K. F. Troitskiy, tashqi ishlar vazirining o'rinbosarlari G. E. Mamedov, G. B. Karasin, transport vaziri S. O. Franka va boshqa ko'plab rahbarlarni keltirish mumkin⁶⁷.

O'z navbatida Eron tomonidan milliy xavfsizlik kengashi sekretari X. Ruhoniy, Tashqi ishlar vaziri K. Xorroziy, atom energetikasi tashkiloti rahbari

⁶⁷ Кулагина Л. М. Эволюция внешней политики ИРИ // Двадцать пять лет исламской революции в Иране. – Москва: 2005. – С. 28.

G.Og'ozoda, ichki ishlar vaziri A. Musaviy-Luriy, metallurgiya va tog' sanoati vaziri E.Jahongariy, energetika vaziri X. Biytaraf, madaniyat va oliy ta'lim vaziri M. Moin, shahar va uy-joy qurilish vaziri A. Alizoda, Eron milliy banki rahbari M. Nurbaxsh va Eron davlat boshqaruvidagi ko'plab rahbar shaxslarni aytib o'tish mumkin.

Bu tashriflar Eron va Rossiya o'rtasida turli sohalarda aloqalar rivojlanib borayotganligini ko'rsatib turibdi. Ikki davlat o'rtasida nafaqat bunday oliy davlat rahbarlarining rasmiy tashriflari, muloqotlari uyushtirilmoqda, balki har ikki davlatda o'tkazilayotgan "doira stol"lari, yig'inlar, anjumanlar va uchrashuvlar ham siyosiy muzokaralarning qay darajada rivojlanayotganligidan dalolat beradi. Bu boradagi muhim uchrashuvlardan biri 1999-yili 18-21-fevralda Tehronda o'tkazilgan 5-daira stoli hisoblanadi. Unda Rossiyaning Tehrondagi elchisi A.Shuvalov so'zga chiqib, Xotamiyning taraqqiyot masalasidagi tashabbuskorligiga va Eron Islom Respublikasining xalqaro munosabatlardagi ziddiyatlarni bartaraf etishdagi siyosatiga ishora qilib, uning siyosati va tashabbuskorligi Rossiya tomonidan to'la qo'llab-quvvatlanishini e'lon qildi. Xuddi shunday majlislardan yana biri MDH davlatlari yig'ilishida Eronning bu masaladagi vakili Morodiyning "Eron va Rossiyaning Kaspiy dengizidagi hamkorlik istiqbollari" mavzusida bo'lib o'tdi va unda har ikki mamlakat uchun Kaspiy dengizining roli va ahamiyati muhokama qilindi. Muhokamada asosan Kaspiy mintaqasi mamlaktlaridagi energetik boyliklarni ekspluatatsiya qilish konsorsiumini tuzish, nomintaqaviy davlatlarning bu mintaqada masalalarini hal etishdagi ishtirokini cheklash va mintqaviy birlashish zarurligini rasmiy tasdiqlash kabi masalalarni qamrab olgan edi.⁶⁸

Eron-Rossiya o'rtasidagi parlamentlararo aloqalar ham keng miqyosda rivojlanib bormoqda. 2001-yil 29-31-yanvar kunlari Eronga Rossiya Davlat Dumasi raisi o'rinbosari V. V. Jirinovskiy delegatsiya tashrif buyurdi. 2001-yil fevralda esa Rossiyada Eron Majlisining xalqaro ishlar bo'yicha komissiya

⁶⁸ Экономидес М. Олини Р. Цвет нефти. Крупнейший мировой бизнес: история, деньги и политика// Пер. с англ. – Москва: ЗАО Олимп-Бизнес, 2004. – С. 187.

a'zolari mehmon bo'ldi. Bu o'rinda Eron Majlisi spikeri Mexdi Karrubiyning ham Rossiyaga tashrifini aytib o'tishimiz mumkin. 2001-yil 1-4-fevral kunlari Tehronda Rossiya Tashqi ishlar vaziri o'rinbosari A. P. Losyukov ishtirokida ikki tomonlama va xalqaro muammolarga bag'ishlangan Eron-Rossiya konsultatsiyasi bo'lib o'tdi⁶⁹.

Bundan tashqari, Rossiya tashqi ishlar vazirligining tashabbusi bilan 2002-yil 26-27-fevral kunlari Moskvada "Kaspiy: huquqiy muammolar" mavzuida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Konferensiyada Kaspiybo'yi davlatlari Rossiya, Ozarbayjon, Eron, Qozog'istonning rasmiy vakillari, shuningdek AQSh davlatidan hamda boshqa xalqaro tashkilotlar va neft-gaz kompaniyalardan vakillar ishtirok etdi. Ishtirokchilar kaspiyda huquqiy vakuum bo'lmasligiga va uning huquqiy rejimini 1921 va 1940-yillardagi sovet-eron shartnomalari asosida aniqlab olishga kelishib olishdi. Rossiya-Eron siyosiy aloqalarining tobora rivoj topib borayotganligini imzolanayotgan bir qator shartnomalar asosida ko'rishimiz mumkin. Masalan, 2000-yil 16-iyunda fuqarolar va jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam hamda huquqiy aloqalarni rivojlantirish to'g'risidagi hujjatga ikki tomon qo'l qo'ydi. 2000-yil iyulda esa Rossiya Federatsiyasi Federal kengashi Eron Islom Respublikasi va Rossiya o'rtasida tuzilgan ikki tomonlama soliqlarni bekor qilish to'g'risidagi shartnomaga roziligini bildirdi.

Eron-Rossiya o'rtasidagi siyosiy muzokaralarga asos bo'luvchi omil bu - strategik hamkorlikdir. Ikkala davlatning strategik manfaatlari o'xshashligi - har ikkisi ham mintaqadagi mintaqaviy xavfsizlik, chegaralar daxlsizligi va yaxshi qo'shnihilik aloqalarini o'rnatishdan manfaatdor edilar. Bu manfaatdorlik asosan Kaspiy mintaqasidagi nomintaqaviy davlatlar ta'siriga qarshi turishda yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu bilan birga strategik hamkorlikni asosini tashkil etuvchi xavfsizlik masalasi ham dolzarbdir. Bu masala ikki davlat o'rtasida Markaziy Osiyo va Kavkazorti hududlarida narkobiznesga qarshi kurash olib

⁶⁹ Сафари М. Центральная Азия и Каспийское море // Исследования Центральной Азии и Кавказа//. 2003. – №43. (На перс. яз.).

borishdan iboratdir. Buning amaliy ahamiyati sifatida 2000-yil may oyida "6+2" guruhi a'zolarining Venada bo'lib o'tgan uchrashuvini aytish mumkin. Eron va Rossiya bu guruh takibida bo'lganligi holda Afg'oniston masalasida o'z pozitsiyalarini e'lon qilishdi.

2000-yili Moskvada bo'lib o'tgan strategik barqarorlik masalalari bo'yicha Rossiya-Eron konsultatsiyasining navbatdagi yig'ilishi o'tkazildi. Unda tomonlar global xarakterdagi masalalarga asosiy e'tiborni qaratdilar. Shuningdek har ikki davlat ham Eronning "Tamaddunlar muloqoti" va Rossiyaning "XXI asr tinchlik konsepsiyasi" asosida rivojlanishini ta'kidladilar. Shu asosda Eron va Rossiya o'rtasidagi munosabatlar xususan, siyosiy va strategik sohalarda tobora faollashib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, Muhammad Xotamiyning "Tamaddunlar muloqoti" konsepsiyasi Eronni nafaqat ichki siyosiy ahvolini yaxshiladi, balki tashqi siyosatda ham uzoq vaqt davom etib kelgan "yopiq eshiklar"ni ochishda va bir paytlar umuman munosabatlar uzilib ketgan G'arb bilan aloqalarni qayta ko'rib chiqishga hamda zamonaviy davrda tom ma'nodagi "taraqqiyotlar muloqotini" amalga oshirish imkonini berdi. Bu esa o'z navbatida Rossiya bilan munosabatlar borasida ham o'z ahamiyatini ko'rsatdi. Ikki davlat tashqi siyosiy munosabatlarida mushtarak bo'lgan manfaatlar, jumladan Kaspiy dengizi va bu mintaqada boshqa davlatlarning aralashuvini cheklash, o'z ta'sir doiralarini kuchaytirish kabi masalalarda ushbu konsepsiya doirasida o'z siyosatlarini olib bordilar. Bu siyosat nafaqat geostrategik maqsadda, balki ikki tomonlama madaniy, ilmiy-texnik va harbiy-energetik sohalardagi hamkorliklarda ham o'z aksini topgan⁷⁰.

Bunga qo'shimcha tarzda shuni aytish mumkinki, Muhammad Xotamiyning "Tamaddunlar muloqoti" konsepsiyasi nafaqat g'arb davlatlari va Rossiya bilan munosabatlarni keng yo'lga qo'yishga qaratilgan, balki Markaziy Osiyo davlatlari, xususan O'zbekiston bilan ham hamkorlikni rivojlantirishida muhim rol o'ynadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich

⁷⁰ Хатами М. В человеке сосредоточены душа Востока и разум Запада. – Москва: 2001. – С. 22.

Karimov taklifiga binoan 2002-yil 26-29-aprel kunlari Muhammad Xotamiy yurtimizda rasmiy tashrif bilan bo'ldi. Bundan oldin Prezidentimiz I. A. Karimov 2000-yil 9-12-iyun kunlari Tehronda bo'lib o'tgan Iqtisodiy Hamkorlik Tashkilotiga a'zo davlatlar boshliqlarining 6-sessiyasi doirasida janob Xotamiy bilan uchrashib, suhbat qurgan edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov Eron televideniyasiga bergan intervyusida Xotamiy haqida jumladan shunday deydi: "U Sharq va G'arb madaniyatlari o'rtasida muloqot vujudga keltirish tarafdori. Urush o'rniga tinchlikni taklif qilmoqda. O'zaro nizolar va to'qnashuvlar o'rniga bir-birini boyitish, bir-biri bilan yaqindan tanishish u aytayotgan "Tamaddunlar muloqoti"ni asosini tashkil etadi. Bugun u biln uzoq suhbat qurib, uning tarqqiyparvar inson ekanligiga yana bir bor amin bo'ldim".

Ko'rinib turibdiki, Xotamiy olib borgan "Tamaddunlar muloqoti" doirasidagi aloqalar nafaqat Rossiya bilan, balki Markaziy Osiyo davlatlari, xususan O'zbekiston bilan ham hamkorlikni rivojlantirishida muhim rol o'ynagan.

II.3. Harbiy, energetik va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash masalalarida ikki tomonlama hamkorlik asoslari

Eron va Rossiya davlatlari o'rtasidagi harbiy va energetika sohasida bir-biriga ko'maklashish tizimi tarixan turli ko'rinishlarda bo'lgan. Avvalo, ikki davlatning bu sohadagi aloqalariga tarixan yondoshadigan bo'lsak, Eronda monarxiya tuzumi davomida mamlakat o'z qurollari bo'yicha Angliya va AQShga bog'liq bo'lgan. Ammo 1979-yilgi inqilob davrida Tehrondagi AQSh elchixonasining qo'lga olinishi sababli Qo'shma Shtatlarning barcha qurol-yarog' savdolari Eronga nisbatan to'xtatilishiga olib keldi. Ko'p o'tmay, 1980 yilda Eronning ayrim hududlari Iroq tomondan bosib olingan va bu qonli urush yetti yil davom etgan. Natijada Eronning katta miqdorda harbiy mol-mulki

yo‘qotildi va o‘zlashtirildi hamda bu Eronning sezilarli darajada kuchsizlanishiga olib keldi.

1989 yilda Eron mamlakatni qayta tiklash dasturini ishlab chiqdi, bundan maqsad o‘zini qayta o‘nglash hamda xarob bo‘lgan qurolli-kuchlarni qayta shakllantirish va o‘zini mintaqaviy harbiy yetakchi kuchga aylantirishdan iborat edi. Bu harbiy istaklar ro‘yxati quyidagilarni o‘zichiga olardi. Bular:

- 100-200 ta jangchi samolyotlar;
- 1000-2000 ta zirxli texnikalar;
- Bir necha suv osti kemalari;
- O‘n ikki dyumli yoki snaryadli qayiqalar.⁷¹

Eron uchun mazkur harbiy qayta tiklanish milliy xavfsizlikni ta‘minlashning muhim sharti hisoblanardi. Buni Sobiq Ittifoq rahbariyati yaxshi anglardi. Sobiq Ittifoqda o‘sha davr hokimiyatning ichki o‘zgarishlariga qaramay, Rossiya hukumati o‘z manfaatini o‘ylab Eron bilan shartnomalar rejasini hamda uning strukturasini tuzishga qaror qiladi. Ular vaziyatdan foydalanib Eronga “Harbiy kelishuvlar” (ایمداد رارق یمظن) tavsiyalari bilan chiqishadi. Unga javoban, birinchi muhim qurol-yarog‘ to‘g‘risidagi kelishuv 1989-yil iyunda Eron vakili H. Rafsanjonining Moskvaga tashrifi bilan yakun topadi. Bu kelishuvdan so‘ng ushbu sohadagi aloqalar yangi bosqichlardan o‘ta boshlaydi. Eron va Rossiya o‘rtasidagi yadro doirasidagi hamkorlik va aloqalari ham jadallashadi, bu vaziyat Gorbachyov davrida Eron Prezidenti Hoshimiy Rasanjoniyning Sobiq Ittifoqqa tashrifi bilan boshlangan. Ushbu muzokaralar tashrifi paytida 1992-yilning 24- avgustida 15 yil muddatga ikki mamlakat hamkorligida yadro energiyasidan do‘stona foydalanish to‘g‘risida bitim imzolandi. Ushbu bitim imzolangan kunning ertasiga, 1992-yilning 25-avgustida Rossiya atom energetikasi vazirligi va Eron atomenergiyasi tashkiloti o‘rtasida Eronda atomelektrstansiyasi qurilish to‘g‘risidagi hamkorlik bitimi imzolandi. Shuni qayd qilib o‘tish kerakki, 1992-yilning 24-avgustidagi bitimni

⁷¹<http://www.irna.com/> – Islamic Republic News Agency (English, Persian).

bajarilishiga mas'ul etib Erondan - Eron atomenergiyasi tashkiloti va Rossiyadan esa - o'sha vaqtdagi RFning Atomenergetikasi vazirligi tayinlanadi.

1995-yil yanvar oyida rasmiy Tehron va Moskva o'rtasida umumiy qiymati 800 million dollarga teng bo'lgan Bushir atom elektr stansiyasini qurish bo'yicha shartnoma imzolandi. Aslida Bushir atom elektr stansiyasini qurish bo'yicha loyiha bundan ancha avvalroq, ya'ni 1974-yili nemis firmalaridan biri yordamida boshlangan bo'lishiga qaramay, 1977-yili Islom inqilobi voqealarining boshlanib ketishi tufayli to'xtatib qo'yilgan edi. Bu ham yetmaganidek, Eron-Iroq urushi paytida Bushir AESiga iroqliklar ko'plab havo hujumlari uyushtirishga ham muvaffaq bo'lishgan. Iroq harbiy samolyotining 1984-yil 24-martda uyushtirgan dastlabki hujumi natijasida Bushir AESiga katta zarar yekaziladi. Shu tarzda 1985, 1986, 1987 va 1988-yillardagi Iroq harbiy havo kuchlari tomonidan o'qqa tutilgan stansiya juda katta talofat ko'radi. Natijada Eron atom energiya ishlab chiqarish markazi bo'lgan stansiyaning tiklash uchun texnik yordam so'rab xorijga murojaat qiladi⁷².

Eron va Rossiya o'rtasidagi o'zaro kelishuv natijasida 1995-yili Bushir atom stansiyasini qayta tiklash ishlari boshlandi. 2000-yilning yanvar oyida stansiya qurilishida ishtirok etayotgan mutaxassislaridan birining bergan ma'lumotiga qaraganda, qurilishning 100 million dollarlik qismi, ya'ni qariyb 40%i qurib bitkazilgan bo'lib, 2003-yil may oyigacha obyekt qurilishi nihoyasiga yetkazilishiga tomonlar umid qilayotganligi ta'kidlandi. Lekin Bushir shartnomasi imzolangandan boshlab stansiya qurilishining to'xtatilishi yoki bu loyiha amalga oshirilishiga turli yo'llar bilan xalal berishga intilayotgan rasmiy Vashingtonning "oqilona" siyosati tufayli AES qurilishi 2011-yilgacha, ya'ni u ishga tushirilgunga qadar to'xtab-to'xtab davom etdi.

Rasmiy Vashingtonning bosimi ostida Xitoy va Ukraina hukumati o'zining yadro borasidagi kelishuvini to'xtatishga majbur bo'ldi. Chunki Ukraina hukumati 1997-yili Rossiya bilan Bushir AESni qurishda ishlatiladigan, har biri

⁷² Михайлов В. Н. //Домыслы и факты о сотрудничестве России и Ирана в области мирного использования атомной энергии// на сайте <http://www.iss.niit.ru>

45 million dollarga baholanadigan turbinalarni sotish borasidagi kelishuvni imzolagan edi. Bunday manfaatli kelishuvdan voz kechganligining "mukofoti" sifatida AQSh Ukrainaning 30 yilga mo'ljallangan atom elektr stansiyasini barpo etish bo'yicha dasturini amalga oshirishda yordam berishga va'da berdi. Bundan tashqari Klinton hukumati Ukrainaga o'z sun'iy yo'ldoshini uchirish huququni ham taqdim qilgan edi.

1997-yil oktyabr oyida bo'lib o'tgan Xitoy va AQSh davlat rahbarlarining o'zaro uchrashuvlarida kun tartibiga qo'yilgan masala ham, aynan Xitoyning Eron bilan yadro hamkorligi masalasiga qaratilgan edi. Vashingtonga tashrif buyurgan Djang Ze Mindan AQSh hukumati Xitoyning "antikorabl" raketalarni Eronga sotishni to'xtatishi haqida yozma bayonot olishga muvaffaq bo'ldi. Bundan tashqari Xitoy hukumati Eron bilan hech qanday yadroviy hamkorlikni yo'lga qo'ymaslikka va'da berdi⁷³.

Bushir AESni barpo etishda Eronga xom-ashyo yetkazib berayotgan Ukraina va Xitoyning "o'yin"dan chiqishi, AESni asosiy tashkilotchisi bo'lgan Rossiyani unchalik ham tashvishga solmadi. Shunga qaramasdan Eronga harbiy texnologiyalarni sotishni to'xtatishi evaziga AQSh Rossiyaga uning xorijiy sun'iy yo'ldoshlarni orbitaga chiqarish texnologiyasini yanada rivojlantirishga doir 60 million dollarlik yangi shartnomani taklif etdi. Vashingtonning bunday qarshiligiga qaramasdan Rossiya rasmiy Tehron bilan yadroviy hamkorlikni to'xtatmadi. 1999-yil iyun oyida esa orbitadagi sun'iy yo'ldosh bilan bog'liq rus firmalari va ilmiy-tadqiqot olib boruvchi markazlardan yettitasi AQSh hukumati tomonidan jarimaga tortiladi. Rasmiy Vashingtonning ta'kidlashicha, ular Eronga ballistik raketalariga egalik qilish bo'yicha "maxsus" dasturni amalga oshirishda yordam bergan. O'sha paytdagi Rossiya atom energetika vaziri bo'lgan Viktor Mixaylovning ta'kidlashicha, AQShning Rossiya va Eron munosabatlarini cheklashga qaratilgan bosimiga qaramasdan, Rossiya Bushir shahridagi kuchlanishi 40 megavattga teng bo'lgan atom elektr stansiyasi

⁷³ Михайлов В. Н. Минатом и международное сотрудничество// Ядерный контроль// – №2, 1999, Том 44, – С. 65.

qurilishini to'xtatmaydi. U yana shunday deb ta'kidlab o'tgan edi: " Rossiya atom energetika vazirligining taklifiga binoan 20-40 nafar eronlik mutaxassisning atom energetikasi sohasida malakasini oshirish uchun Rossiyaga kelganligini amerikalik tanqidchilar to'xtovsiz gapirishmoqda, vaholanki bu paytga kelib minglab eronlik mutaxasislar AQSh va Evropada yurib bu borada o'z bilimlarini oshirayotganligini hech kim esga olgisi kelmaydi"[3].

Bu paytga kelib Tehron gazetalaridan biri Bushir AESni barpo etish uchun injener va mutaxasislarni Rossiyaga maxsus kurslarni o'qish va malaka oshirish uchun yuborilayotganligi haqida xabar beradi. Eron atom energetika tashkiloti esa fizika, yadro fizikasi, mexanik injeneriya va kompyuter mexanikasi bo'yicha 225 nafar tajribali mutaxassisga muhtoj ekanligini ma'lum qildi. Shunga muvofiq 1999-yil fevral oyida 40 nafar eronlik mutaxasislar Moskvadan 500 km janubda joylashgan Novovorojens atom elektr stansiyasi qoshidagi o'quv markaziga yuborildi. Lekin baribir AQShning bosimi ostida Rossiya Oliy ta'lim vazirligi Boltiq oblastidagi texnika universitetida ta'lim olayotgan bir guruh eronlik talabalar o'qishini to'xtatib qo'yishga majbur bo'ldi.

1998-yil 12-14-noyabrda Eronga tashrif buyurgan Rossiya atom energetikasi vaziri Evgeniy Adamov rasmiy Tehron bilan amalga oshirilayotgan yadro dasturini zararsiz ekanligini ta'kidlab o'tdi⁷⁴. Uning fikricha, ikki davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar to'laligicha xalqaro kelishuvlarga muvofiq bo'lib, yadro masalasidagi ikki tomonlama harakatlar xalqaro shartnomalarda aks ettirilgan huquqlar doirasidagina amalga oshirilayotgani va hatto AQSh ham o'z vaqtida Eronda uranni 93%li to'yintirish bo'yicha ilmiy-tadqiqod markazini barpo etganligini o'z so'zlarini tasdig'i sifatida keltirib o'tadi.

1998-1999-yillarda Rossiyaga malaka oshirish uchun yuborilgan eronlik mutaxasislar va Bushirdagi AES qurilishida ishtirok etayotgan rus injinerlarining soni haqida turli ma'lumotlar mavjud edi. 1999-yil qishda Rossiya atom energetikasi vazirligining e'lon qilishiga qaraganda, maxsus

⁷⁴ Seth Carus W. Iran and Weapons of Mass Destruction/ Middle East Review of International Affairs, Vol.4, – №3, (Fall 2000), – P. 58.

kurslarni o'qish bo'yicha Rossiyaga yana bir necha yuz nafar eronlik mutaxasislarning kelishi ta'kidlangan. Bundan tashqari, vazirlik tarqatgan ma'lumotda keltirilishicha, 2001-yilga qadar Rossiya Eronida umumiy qiymati 4 milliard dollarga teng bo'lgan yana uchta elektrostansiyani qurib bitkazishni rejalashtirayotganligi ma'lum bo'ldi.

1999-yil yanvar oyida Rossiya Tashqi ishlar vaziri Igor Ivanov Eron bilan olib borilayotgan harbiy hamkorlik har qanday to'siqqa qaramasdan davom etajagini qat'iy ta'kidladi. 2000-yil 30-iyunda Eronga rasmiy tashrif bilan kelgan Rossiya delegatsiyasining oliy harbiy delegati general Leonid Ivashev ikki mamalakat o'rtasidagi harbiy va yadroviy hamkorlik xalqaro xavfsizlik masalasida terrorizm va giyohvandlikka qarshi kurash maqsadida amalga oshirilayotganligini ta'kidlab o'tgan. Shunga qaramasdan rasmiy Vashingtonning turli yo'llar bilan ikki davlat o'rtasidagi yadroviy hamkorlikka rahna solishi tufayli 2000-yillardan so'ng Bushir AESni qurilishida ayrim to'xtalishlar yuzaga keldi, chunki Eronning atom elektr stansiyasini qurish bo'yicha harakatlarini AQSh hukumati "uranni to'yintirish va yadro quroliga egalik qilish" degan gumon ostida rasmiy Vashingtonning qistovi bilan xalqaro Atom energetikasi tashkiloti bu hududda qidiruv ishlarini olib bordi. Bu paytga kelib Rossiya Bushir AESi qurilishini "qadamma qadam" amalga oshirish siyosatini tuta boshladi. Ya'ni AQSh va Evropa davlatlari tomonidan Eronga qo'yilgan embargolar va xalqaro Atom energetikasi tashkilotining "yadro quroli"ni qidirish bo'yicha olib borgan ishlari bir yoqli bo'lgunga qadar AES qurilishi to'xtatib turildi⁷⁵. 2005-yili Mahmud Ahmadiy Najod Eron prezidenti etib saylangach, uning hukumati Rossiyaning Bushir AESni barpo etishdagi hamkorlikda qo'llayotgan "qadamma qadam" siyosatini ijobiy qabul qilishligini keng jamoatchilikka ma'lum qildi. Buning mohiyati shu ediki, Eron va Rossiya o'z hatti-harakatlarini xalqaro maydondagi ularga nisbatan bo'layotgan bosim va ta'sirlarga biroz yon bergandek tutgan holda, o'zaro yadroviy hamkorlikni

⁷⁵ Михайлов В. Н. Домыслы и факты о сотрудничестве России и Ирана в области мирного использования атомной энергии/ на сайте <http://www.iss.niit.ru>

davom ettirish va AES qurilishini nihoyasiga yetkazishdan iborat edi. Ammo bu jarayonga nisbatan Eronning o'zida turli ommaviy axborot vositalari va oppozitsion guruhlar tomonidan toshlar otila boshladi. Majlisdagi (Eron parlament) Islom Kengashining tashqi siyosat va milliy xavfsizlik masalalari bo'yicha yetakchi a'zolaridan biri Xishmatulloh Faloxatpishening Erondagi radikal gazetalaridan biri "Risalat"da yozgan maqolasida jumladan shunday deyiladi: "Agar Eronga nisbatan qo'llanilayotgan sanksiyaning to'rtinchi bandiga e'tibor beradigan bo'lsak, Xavfsizlik Kengashi Eronga qarshi ekanligi ma'lum bo'ladi. Uning a'zosi sifatida Rossiyaning ham sanksiya bandlariga rozi ekanligi ko'rinib qoladi. Bunga yaqol misol sifatida Rossiya qariyb 11 yildan beri Bushir AESni ishga tushirilishini ortga surib kelayotganligini keltirish mumkin". Unchalik radikal bo'lmagan Tehronning mashhur gazetalaridan biri "Siyosate ruz"ning yozishicha, Eron Tashqi ishlar vaziri Ali Akbar Solehiy 2010-yil 17-19-avgust kunlari Moskvaga qilgan tashrifi chog'ida, Bushir AESni barpo etishdagi Rossiyaning "qadamma qadam" siyosati Eronni yadro dasturini amalga oshirishdagi eng so'ngi va ishonchli reja ekanligini ta'kidlagan⁷⁶. Umuman olganda, Rossiyaning Bushir AESi qurilishi ishlarini nihoyasiga yetkazmayotganligi Eron matbuot xizmati va ommaviy axborot vositalari tomonidan allaqachon tanqid qilina boshlagan edi. Chunki Tehronning "Hamshahriy" gazetasida 1999-yil 8-yanvarda e'lon qilingan maqolalardan birida jumladan shunday deyiladi: "Agar Bushir AESni qurish ishlari Rossiyadan boshqa biror-bir g'arb davlati bilan yo'lga qo'yilganda edi, ish allaqachon "o'xshagan" bo'lardi". Lekin o'sha payti Eron bilan bunday tahlikali shartnomani imzolashga hech bir g'arb davlati rozi bo'lmasdi.

1992-yil 25-avgustda Tehron va Moskva 800 millionga Busherda ikkita yadroviy reaktor qurish bo'yicha shartnoma imzolanishi bilan avj oldi.⁷⁷ Bu bitim doirasida 1995-yilda Eronning janubida Busher atomelektrstansiyasi qurilishi

⁷⁶ Хуторская В. В. Атомная энергетика как одно из стратегических направлений сотрудничества России с ИРИ/ в кн. Ближний Восток и современность, – Москва: 1999. – С. 314.

⁷⁷ Khrestin I., Elliott J. Russia and the Middle East // Middle East Quarterly – Winter, 2007. – P. 21 – 27.

tugallanishi shartnomasi imzolandi. Ushbu shartnomaga muvofiq Rossiyaning “Xorijiy atom qurilish” (Zarubejnoe atomnoe stroitelstvo) tashkiloti qurilish bo'yicha pudratchi etib tayinlanadi, keyinchalik ushbu tashkilot «Atomqurilisheksport» (تارداصی متارات خاس) nomigao'zgartirilgan. Kelishmovchiliklar sukunatidan so'ng 1998-yilda shartnomaga qo'shimcha imzolanadi. Qo'shimchaga binoan qurilish ishlarini «Atomqurilisheksport» (تارداصی متارات خاس)ga topshiradi va bu faoliyatni bajarishda “kalitosti” (تحت تیلک) sharti ko'zda tutilgandi⁷⁸.

Eron va Rossiya munosabatlarida eng muhim omil bu Eronning yadroviy dasturi sanalsa ajab emas. Ikki tomonlama hamkorlikni atom energiyasidan do'stona foydalanish, mazkur shartnomaning imzolanishi bilan 1992-yilda boshlangan. Shuningdek, aytish mumkinki, Eron O'rta Sharq mintaqasidagi Rossiyaning harbiy sohadagi eng katta hamkorlaridan biridir. 1989-yildagi tashrifdan so'ng 1995-yilgacha harbiy va energetik xavfsizlik sohasida Rossiya-Eron aloqalari juda shiddat bilan ketayotgan edi, 1995-yildan 1997-yilgacha bu mamlakatlar o'rtasidagi harbiy, texnikaviy aloqalarning sukunat girdobiga tortoilishiga olib keladi. Bu vaziyatni olimlar turlicha yoritadi. Ayrimlari 1995- yil Qo'shma Shtatlar bosimi ostida Rossiya-Eron munosabatlari to'xtab qoldi⁷⁹ deyishsa, boshqa bir tarixchilarning fikricha “harbiy kelishuvlar” (ya'ni 1992-yildagi) bitim moddalarini H.Rafsanjoniylar tarafidan buzilganligini sabab bo'lganligini aytib o'tadi. Biroz sukunat davri tugallanganidan so'ng aloqalar keyingi qadamlarini qo'ya boshladi. Bu holat 1997-yilda Gore-Chernomordin kelishuvi (shartnoma)ni yo'qqa chiqargan holatda Rossiya hamda Eron rasmiylari yangi munosabatlarni muhokama qilish uchun qayta uchrashishdi. Bu shartnoma quyidagi og'ir qurollarni Eronga jo'natishni ko'zda tutadi:

- VMR-2- 413(ARS turlari);
- SP artilleriyasi- Noaniq raqamli;

⁷⁸<http://www.frinc.org.rient/iran.html>

⁷⁹http://www.globalaffairs.ru/number/n_8390

- SU-24- 12;
- MTG-29- 24;
- “Kilo Class” suv osti kemalari va boshqalar.
- T-72 tanklari- 422;
- SU-25 Hujum samolyotlari- 8
- Mi 17 Transport vertolyotlari- 25
- Noaniq nomerli T-72 MVT
- SA-10 SA-12 SAMning bir necha batalonlari
- Havo kuzatuvchi radarlar.⁸⁰

2000-yil yanvar oyining boshlanishida 5ta Mi-17 transport vertolyotlari Eronga jo‘natila boshladi. Shuni eslatib o‘tish lozimki, 2000-2001- yillarda Eron himoya byudjeti o‘tgan yillarga nisbatan 50%ga oshdi va iqtisodiy holati yaxshilandi.

Bu o‘shida eng muhim voqea 2000- yil dekabridagi Rossiya Mudofaa vaziri Igor Sergeyevning tashrifi bo‘ldi desak xato qilmaymiz, chunki 1979-yildagi Eron islom inqilobidan beri bunday o‘shish kuzatilmagan edi. U e‘lon qildiki, ya‘ni Eron va Rossiya o‘rtasida yangi harbiy va texnikaviy davr shartnomasi tuzildi⁸¹.

Natijada nisbatan munosabatlar ijobiy tomonga o‘zgara boshladi. Bugungi kunda Eron va Rossiya harbiy-texnikaviy hamkorligini faol rivojlantirib borishmoqda.

2001-yil 11-sentyabr voqealaridan so‘ng 10 kundan keyin Moskva Eron bilan 7 mlrd. dollar harbiy shartnoma imzoladi. Bu o‘sha davrdagi o‘ta ajoyib harbiy bitim hisoblangan, sababi dunyo gegemonlaridan hisoblangan davlatlarda vaziyat o‘zgarish jarayoni bo‘layotgan bir paytda, bu ko‘rsatkich yuqoriligi deyishsa, ikkinchi taraf tahlilchilari AQSh hukumatiga nisbatan ochiqdan-ochiq adovat-husumatidan darak berishini ta’kidladilar. 2003- yil AQSh Markaziy

⁸⁰Скосырев В. А. Иран в ожидании оттепели// Азия и Африка сегодня. 2002. – №2. – С. 37-39.

⁸¹<http://www.netiran.com/news/IranNews/indexFrame.html> – Iran news is an English daily newspaper published in Tehrah

razvedka boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra Rossiya, Xitoy va Shimoliy Koreya ekspertlari Eronda ballistik raketalarni rivojlantirishda yordam bermoqda⁸². Bu aloqalarni mintaqada AQSh yakkahukmronligiga qarshi olib borilayotgan faoliyat sifatidaba holash mumkin. Aynan mazkur omil Rossiyaning AQSh tarafdori bo'lgan Isroil bilan munosabatlariga salbiy ta'sir etib, AQShning Eronga nisbatan harbiy bosimi ta'sirini kuchayishiga sabab bo'lmoqda. 1992-yilgi shartnomalarda yopiq holatda Rossiyaning manfaati AQShga nisbatan qo'llanilganligini taxmin qilishadi⁸³.

Qurol bozorida Rossiya o'z mollarini yoyib, iqtisodiy ta'minotini to'ldirishga harakat qilishni bayon qiladi. Bu borada shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, Rossiya-Eron energetik sohasi ham dunyo tarixchilarining qiziqishlariga sabab bo'ladi. Sababi bu sohada Eronning juda ehtiyotkorlik va ayyorona harakatlari bo'lsa ajab emas. Ular Eron tarixida qilingan xatolarni qaytarilmasligi, ya'ni M. Masoddig hukumati davridagidek chet el investorlarini o'z yurtlariga kirib olib xaddidan oshishiga yo'l qo'ymaslikka bel bog'lashgan bo'lsa ajab emas. Bu fikrimizni dalili Eron Islom Respublikasini Konstitutsiyasida mustahkamlanganligini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, Eron Islom Respublikasining asosiy qonunining 81-moddasida "Shirkatlarni tashkil etish, savdo, sanoat, qishloq xo'jaligi, qazilma boyliklari va xizmat ko'rsatish muassasalarini barpo qilishda chet elliklarga imtiyoz berish mutlaqo ma'n etiladi"⁸⁴. Mana shu voqealar asosida, qonunlarga amal qilgan holatda ikki mamlakatning energetik sohada aloqalari yaxshiligini ko'rishimiz mumkin: Energetik sohada Rossiya Eronning dunyodagi 2-o'rinda turadigan manfaatli hamkori hisoblaniladi⁸⁵.

2002-yildagi Eron Islom Respublikasi neft vazirining Rossiya Federatsiyasiga tashrifi va uning Rossiya davlat arboblari va neft-gaz kompaniyalari vakillari bilan uchrashuvi, so'ngra 2003-yilda Rossiya energetika

⁸²Nemets A. Russia's Role in an Unstable Middle East //

http://www.newsmax.com/international/russia_oil_iraq/2008/05/06/93868.html – May 6, 2008

⁸³ Россия примет иранские ядерные отходы/ на сайте <http://www.vesti.ru> /25.06.2002/

⁸⁴ ۲۸ ۲۰۰۸ ناری ای ئم‌ال‌سای و موموج س‌اس‌ا نون‌اق

⁸⁵BP Statistical Review of World Energy. – London: 2006. – P. 9.

vazirining Eronga safari va ular tomondan olib borilgan muzokaralar ikki mamlakatni neft-gaz kompaniyalarining tegishli loyihalarda faol ishtirok etishiga kerakli shart-sharoitlar yaratdi.

Neft va gaz qazib olish va yetkazib berish sohasiga hamda ushbu mahsulot turlariga baho belgilash mexanizmini aniqlashdagi ikki tomonlama hamkorlikka kelsak, bu borada Eron va Rossiya OPEK va gaz eksport qiluvchi mamlakatlar bilan hamkorlik muhimligini doimo ta'kidlab kelgan. Chunki Rossiya va Eron dunyoda eng ko'p tabiiy gaz zaxirasiga ega bo'lgan davlatlardn hisoblanib, ularning siyosatini moslashuvi bu sohada muhim ahamiyatga ega. Shu sababdan Eron neft vazirligi gaz eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti tuzishni taklif etadi.

EIR va RF o'rtasidagi hamkorlik loyihalaridan biri bu Tabasda ko'mir issiqlik elektrstansiyasi qurilishiga texnik-iqtisodiy asos tayyorgarligi bo'lgan va Eron ushbu tenderda Rossiyani ishtirok etishini xohlagandi. Eron va Rossiya energo tizimlarini Ozarbayjon Respublikasi va Armaniston orqali sinxronizatsiyasiga kelsak, 2003-yilning noyabr oyida Moskvada elektroenergetika bo'yicha Eron kompaniyasi Tavanir va RF hamda Ozarbayjon Respublikalarining tegishli tashkilotlari ishtiroki bilan ishchi guruhlarining birinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Ushbu yig'ilishda protokol qabul qilindi, ushbu protokolga binoan 2006-yildan boshlab Ozarbayjon orqali Eron va Rossiya o'rtasida 300 megavattli elektrenergiyasi almashish imkoniyatini berdi.

Bundan tashqari Eron tarafi 2006-yildan Rossiyadan 1 mingmegavatt sotib olish qiziqishini bildirdi. Ishchi guruhlarining ikkinchi yig'ilishi bir yildan so'ng Tehronda bo'lib o'tdi. Rossiya Federal harbiy va texnikaviy hamkorlik xizmati direktori o'rinbosari A.Denisov 2005-yil bo'lib o'tagan ushbu uchrashuvda jurnalistlarga bergan bayonotida jumladan shunday deydi: "Eng avval, biz milliy manfaatlarimizni hisobga olishimiz kerak. Suriya biz uchun 80% sovet qurollari harid qobiliyatiga ega bozor. Eron ham bu borada huddi

shunday”⁸⁶. Bu boradagi fikrlar amerikalik analitiklar fikrini noto‘g‘ri ekanligiga ishora qiladi. Rossiya hukumati shunga o‘xshash fikrlarni noo‘rin ekanligini isbotlashga harakat qilib, avvalgilarga nisbatan yanada Eron qurol bozorida Rossiya mahsulotlarini oshirishga harakat qiladi. 2005-yil Rossiya Eron bilan 12 turdagi harbiy qurollar yetkazib berish va ularga xizmat ko‘rsatish borasida shartnomalar imzoladi. Rus tahlilchisi A.Piontkovskiy fikricha, 2006-yil martda Rossiyaning Eronga TorM1, 9M330 turkimidagi 16 zenit raketa havo mudofaa tizimini sotishi Isroilni Eron yadroviy ob‘ektlariga hujum ehtimolini to‘xtatib qoldi⁸⁷. Masalan, 2005-yil dekabrda Eron hukumati Rossiya bilan Busherdagi yadroviy reaktorlarni himoya qilish borasida TorM1 29 ta raketa himoya tizimini o‘rnatdi. Shuningdek, 2006-yil Rosoboroneksport Eronga 700 mln.dollarlik havo mudofaa va raketalar sistemalarini yetkazib berdi. 2008-yil 7-fevralda Eron poytaxtida o‘zaro maxfiy ma’lumotlarni himoya qilish to‘g‘risida shartnoma imzoladi.

Rossiya Federtiyasi qurolli kuchlariga o‘zinnig texnikalarani tashkil qilib Su-27, MiG-29, Il-76 samolyotlari, PVOTOR sistemalari kabi bir qator g‘arb texnikasiga almashtirib, Eron bilan munosabatlarda g‘arb davlatlarining roziligidan juda ham muvaffaqiyatli foydalanmoqda.

Eron yadro dasturi Rossiya va AQSh munosabatlarida muammoli masala hisoblanadi. Rossiya Eron bilan shartnomalarini xalqaro sanksiyalardan turli yo‘llar bilan himoya qilib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Eron-Rossiya harbiy va energetik xavfsizlikni ta‘minlash sohasidagi hamkorligi XX asrning 90-yillarida ajoyib ko‘rsatkichlar bilan boshlanganidan darak beradi. So‘nggi yillarda boshlangan Eron va Rossiya o‘rtasidagi harbiy va energetik sohalardagi aloqalari izchil olib borilmoqda. Rossiyaning O‘rta Sharqdagi bosh harbiy hamkori sifatida Eronni tan olishi va

⁸⁶Rubin M. Russian Roulette on Iran // Wall Street Journal // Middle East Forum – <http://www.meforum.org/1762/russian-roulette-on-iran> – October 3, 2007.

⁸⁷Пюнтковский А. Последняя развилка Путина// [http:// www.grani.ru /opinion/piontkovsky/m.100333.html](http://www.grani.ru/opinion/piontkovsky/m.100333.html) – Май 1, 2006

mamlakatning iqtisodiy salohiyatini yuksalishida Rossiya ta'sirining ortishi ikki mamlakat hamkorligining mustahkamlanib borayotganligini bildiradi.

Lekin bu boradagi hamkorlik har ikki davlat uchun ham hozirgi global sharoitda katta qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Bu o'rinda AQSh ittifoqchiligidagi garb davlatlarining Eron tashqi savdosiga qo'ygan embargosi va AQSh hukumatining Rossiyadan Eronga nisbatan e'lon qilingan sanksiyaga qo'shilishi va uni tasdiqlashini talab etishi va agar bu talab qondirilmagan taqdirda Rossiyaning kosmik sahada faoliyat olib borayotgan kosmik firmalari faoliyati toxtatib qo'yilishi kabi bir qator to'siqlar va "dag'dag'alar"ni misol qilib keltirish mumkin. Shunga qaramasdan davlatlar o'z manfaatlaridan kelib chiqqan holda har qanday sohada, har qanday sharoitda o'zaro aloqalarni saqlab qolish, mustahkamlash va rivojlantirishga harakat qilishmoqda. Bu boradagi aloqalar davlat rahbarlarining o'zaro tashriflari, shartnomaviy bitimlari orqali mustahkamlanib borilayotgani va xalqaro qarshiliklarga qaramasdan Rossiya Eronda Bushir AESning dastlabki qismini ishga tushirganligi fikrimizning yaqqol dalilidir.

III BOB. TASHQI IQTISODIY-SIYOSIY MUNOSABATLARDA MANFAATLAR MUSHTARAKLIGI

III.1. Eron Islom Respublikasi tashqi siyosatida Rossiyaning o'рни va roli

So'ngi ikki o'n yillik davomida dunyo geosiyosiy hayotida bevosita Eron va Rossiya davlatlarining kelgusi rivojlanishiga muhim ta'sir etuvchi ulkan o'zgarishlar yuz berdi. Bu jarayonlar davomida ularning tashqi siyosatdagi maqsadlari, shu jumladan o'zaro munosabatlardagi xususiyatlar ham keskin o'zgarishga uchradi. Eronda monarxiyaning ag'darilishi va Islom Respublikasining barpo etilishi, SSSR qulagach Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkazda yangi mustaqil davlatlarning vujudga kelishi, AQSh va uning ittifoqchilari tomonidan Afg'onistonda olib borilayotgan harbiy operatsiyalar, Iroqning okkupatsiya qilinishi va mintaqada yuz berayotgan boshqa voqealar har ikki davlat rahbarlarini o'z tashqi siyosatini qayta ko'rib chiqishni taqozo eta boshladi.

Aynan shu maqsadda 1989-yilning fevral oyida Tehronda SSSR Tashqi ishlar vaziri E.A.Shevardnadzening va iyul oyida Eron Islom Respublikasi prezidenti Ali Akbar Rafsanjoniyning Moskvaga tashriflari bilan ikki davlat o'rtasidagi aloqalarning yangi davri boshlandi.⁸⁸

Bu tashriflar chog'ida ikki mamlakat manfaatlarini o'zida mujassam etgan bir qator shartnomalar imzolandi. Hoshimiy Rafsanjoniyni Moskvadagi kosmanavtlar markaziga tashrif buyuradi va bu yerda kelajakdagi kosmik sohada aloqalarni rivojlantirish istiqbollari to'g'risida suhbat o'tkazadi. Bu uchrashuvlarda XX asrning 90-yillaridan boshlab ikki mamlakat o'rtasidagi muzokaralar faolroq tus ola boshlaganligini kuzatish mumkin.⁸⁹ 1991-yil 25-dekabrda Eron Islom Respublikasi Rossiya Federatsiyasini rasman tan oladi va

⁸⁸Россия и мусульманский мир. 2000. – №8. – С. 125.

⁸⁹The Era of Construction. A narration of Eight Construction during the Presidency of Ayatollah Hoshemy Rafsanjany(1989-1997). – Tehran: 1997. – P. 16.

kelgusida har tomonlama munosabatlarni yo'lga qo'yishga tayyor ekanligini e'lon qiladi. Shunday qilib 90-yillardan boshlab ikki mamalakat o'rtasidagi aloqalar yaxshilana bordi, faqatgina Rossiya tomonidan Eronga C-300 raketa kompleksini qo'yish taklifini rad etilganligini hisobga olamasa⁹⁰. Bu ikki davlat munosabatlarini chuqur tahlil etish natijasida mutaxasislar shunday xulosaga kelishmoqdaki, Eronda Rossiya bilan munosabatlarni yo'lga qo'yishga nisbatan asosan uch xil yondoshuv(qarashlar)mavjud:

Birinchi yondoshuv - butunlay pessimistik xarakterga ega. Uning tarafdorlari ikki davlat o'rtasidagi aloqalar tarixidan so'z boshlashadi, ya'ni XIX asrning birinchi yarmida tuzilgan Turkmanchoy va Guliston sulhlari, buning natijasida Kavkazning katta qismi Rossiya imperiyasi tarkibiga o'tib ketganligi, bugungi kunda esa Bushir atom elektr stantsiyasini barpo etishda Rossiya o'ziga olgan majburiyatlarni to'liq bajarmayotgani(2011-yil AES ishga tushirulgunga qadar bo'lgan holat) va C-300 raketa kompleksi borasidagi raddiyalarni sabab qilgan holda rasmiy Moskvani Eron uchun ishonchsiz hamkor deb hisoblashadi.

Ikkinchi yondoshuv – butunlay optimistik xarakterga ega. Bu yondoshuv maddohlari o'tmishdagi do'stona aloqalarga tayangan holda Rossiyani ishonchli hamkor deb hisoblashadi. Bunday nuqtai-nazar tarafdorlarining fikriga qaraganda, 1991-yilda Sovet Ittifoqining qulashi bilan ikki mamalakat munosabatlaridagi “muzlik” eriy boshladi va oxirgi 400 yil ichida kuztilmagan darajada yaxshilanishiga olib keldi. Bunday sharoitlarda Rossiya BMT da Eronni himoyachisi sifatida turdi va g'arb Eronga berishdan bosh tortgan ko'plab zamonaviy texnologiyalarni unga taqdim qildi. Bu pozitsiyaga muvofiq holda har ikki mamlakat bu mintaqada o'zlarining hozirgi holatlarini hisobga olgan holda bir-biriga qiziqish uyg'otmoqda. Agar ikki tomonlama muammolar yuzaga kelgan taqdirda bu ularning boshqaruv qobiliyatlari bilan bog'liq bo'ladi va ularni ichki imkoniyatlarni tartibga solish orqali hal etish mumkin.

⁹⁰ Жильцов С. С., Зонн И. С. Новый Каспий (география, экономика, политика). – Москва. 2008. – С.114.

Uchinchi yondoshuv - kompromissli hisoblanib, Rossiyaning Eron bilan munosabatlarining katta qismini siyosiy xarakterga ega deb baholaydi. Agar ikki davlat aloqalariga sinchkovlik bilan e'tibor beradigan bo'lsak, ularning har ikkisi ham o'zlarining milliy manfaatlaridan kelib chiqib munosabatga kirishayotganligini kuzatish mumkin. Shuningdek, Tehrondagi siyosiy doiralar Rossiyaning roli va ahamiyatini juda yaxshi anglab yetishgan. Shuning uchun umumiy tenglik sharoitlarida Eronning Rossiya bilan hamkorligi birmuncha qat'iy ekanligi oydinlashib bormoqda. Uchinchi yondoshuv tarafdorlarining fikriga ko'ra, agar Rossiya qudratli davlat va BMT Xavfsizlik Kengashining a'zosi bo'lmagan taqdirda ham, mintaqaviy yetakchi va favqulodda muhim geosiyosiy va geoiqtisodiy potentsialga egalik qiluvchi davlat sifatida bu mamalakat bilan hamkorlik qilishi tabiiy edi. Agar turli mamlakatlar bilan munisabatlarni qo'llab-quvvatlashni tabiiy ehtiyoj deb qaraydigan bo'lsak, Mosakva rasmiy Tehronni asosiy tashqi siyosiy hamkorlaridann biri hisoblanadi.⁹¹ Bundan tashqari, uchinchi yondoshuv tarafdorlari xalqaro, mintaqaviy va ikki tomonlama hamkorlikni Moskva va Tehron munosabatlarining bosh yo'nalishi sifatida e'tirof etishadi. Boshqacha aytganda, ikki tomonlama hamkorlik asosan mintaqaviy xavfsizlik masalalaridagi manfaatlar mushtarakligidan kelib chiqayotganligini kuzatish mumkin.

1979-yil islom inqilobi g'alaba qozongach, Eron Islom Respublikasi hukumati o'z tashqi siyosiy faoliyatida ma'lum vaqt "na sharq, na g'arb – faqat islom" konsepsiyasiga tayandi. Lekin islom inqilobi yetakchisi Imom Humayniyning shaxsan o'zi umrining so'ngi yillariga kelib sovet-eron munosabatlarini "mo'tadillshtirish" tashabbusi bilan chiqdi. Bu tashabbusning amaliy ahamiyati sifatida Humayniy 1989-yili SSSR prezidenti M.Gorbachovga shaxsiy maktubini yuboradi. Shu davrdan boshlab Eron muntazam ravishda Rossiya bilan munosabatlarni yaxshilashga va SSSR qulagandan so'ng xalqaro maydonda o'z o'rnini mustahkamlash uchun uning qo'llab-quvvatlashiga

⁹¹ Мехди Санаи. Дипломатические взлёты и падения: ирано-российские отношения на современном этапе. Etemaad. – Иран. – С. 2012.

erishishga harakat qilib kelgan. Bu boradagi amaliy xatti-harakatlar 1989-yil iyun oyida o'sh paytdagi EIR Majlisi(parlamenti) raisi bo'lgan A.A.Hoshimiy-Rafsanjoniyni SSSRga rasmiy tashrifi bilan boshandi. Ushbu tashrif chog'ida "2000-yilgacha bo'lgan davrda SSSR va EIR o'rtasida uzoq muddatga mo'ljallangan iqtisodiy, savdi va ilmiy-texnik hamkorlik" to'g'risida bitim imzolanadi. Ushbu bitimning asosiy qismi quyidagi yo'nalishlarga qaratilgan edi:

1. Chegara hududdagi Araks daryosida hamkorlikda foydalaniladigan ikkita GES qurish.
2. SSSR yordamida qurilgan Axvazdagi "Ramin" va Isfahondagi "Shahid Montazeriy" IESlarini ishlash quvvatini 1030 megavattgacha oshirish.
3. Isfahondagi metallurgiya kombinati quvvatini yiliga 1.9 mln. tonna va kelgusida 4 mln. tonnagacha oshirish hamda bu yerda mashinaqurilish kompleksini barpo etish.
4. Arakdagi mashinaqurilish zavodini modernizatsiya qilish.
5. Alyumin ishlab chiqaruvchi zavod qurish.
6. Mahsulotini SSSRga chiqaradigan neft-kimyo korxonalarini qurish.
7. Eron hududa Mashxad-Saraks temir yo'lini qurish va qurib bitkazilgan Qum-Tehron, Bafk-Bander-Abbos, Tabriz-Tahron temir yo'llarini elektrlashtirish.⁹²

Shuningdek Kaspiy dengizining Eron shelflarida qidiruv ishlarini olib borish hamda bu yerda aniqlangan neft va gaz zahiralarini qazib olishni boshlash to'g'risida ham o'zaro kelishuv imzolandi. Umuman olganda, bu tashrif davomida 20 dan ortiq qo'shma loyihalarni amalga oshirishga kelishib olindi. Bu loyihalarning umumiy qiymati Eron tomonidan hisoblab chiqilganda 7-8 mlrd. AQSh dollari va huddi shuncha miqdordagi riyolga teng kelishi e'tirof etildi. Qo'shma hamkorlikdagi iqtisodiy dasturni amalga oshirishni boshlash uchun SSSR Eronga 2 mlrd. dollar miqdorida kredit taqdim qiladi. 1991-yilga

⁹²Сергей Дружиловский. Эволюция и перспективы развития российско-иранских отношений. – Москва: 2012. – С. 12.

kelib esa ikki mamalakat o'rtasidagi savdo ayiraboshlash hajmi 1989-yilga qaraganda ikki karra oshganligi kuzatildi. 80-yillarning oxiri va 90-yillarning boshlarida SSSR Eronga avtomobillar, burg'ulovchi dastgohlar, kimyoviy o'g'itlar, yog'och, mashina va ishlab chiqarish uskunalarini olib kira boshladi. Bu yerdan esa quruq meva, yong'oq, ikra, baliq, minerallar, gilam, jun mahsulotlari va zirovorlar olib ketar edi. 1989-yili Eron portlari Bander Enzeli va Noushehrdan Kaspiy dengizi orqali Bokuga o'tadigan hamkorlikdagi poroxod liniyasi ishga tushirilishi munosabati bilan SSSR Eronga o'zining ikkita savdo kemasini 10 mln. dollarga sotadi. 1990-yili oktabrda Eron o'z gazini Rossiyaga sotishni yangitdan yo'lga qo'yishga muvaffaq bo'ladi. Chunki shoh tuzumi ag'darilgach bu sohada ham to'xtalish yuzaga kelgan edi.

Rossiyalik mutaxassislar Isfaxondagi metallurgiya kombinatini rekonstruksiya qilayotgan bir paytda, ya'ni 1992-yili, Eron prinsipial tarzda shoh davrida qurilishi boshlangan Bushir AES ishlarini yakunlashda Rossiyadan yordam so'raydi.⁹³ Garchi bu taklif 1989-yili tuzilgan ikki tomonlama hamkorlik to'g'risidagi bitim doirasidan tashqarida bo'lsa ham, Eron Rossiyaning do'stona qo'llab-quvvatlashiga ko'z tikadi. Bu borada Rossiyaning yordam qo'lini cho'zishi ikki tomonlama munosabatlarni yanada mustahkamlanishiga olib keldi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, SSSR parchalangandan so'ng Turkiya sobiq Itiifoq tarkibida bo'lgan turkiy xalqlar va millatlar yashaydigan hududlarda mustaqil turkiy davlatlarni barpo etish va ularni o'z qo'l ostida tutib turish uchun ochiq harakat qila boshladi. Turkiyadan farqli ravishda Eron Markaziy Osiyo va Kavkazorti hududlariga islom inqilobini eksport qilish borasidagi tashviqotdan voz kechdi. Shuningdek Eron hukumati Kavkazda boshlangan chechen separatistlarining qurolli harakatlari bilan bog'liq voqealarga aralashmasligini va ularni Rossiyaning ichki ishlaridan biri deb baholashini ta'kidladi. Bundan tashqari 90-yillarning ikkinchi yarmida Tojikistonda boshlangan ichki ziddiyatlar, islom oppozitsionerlari va uning liderlarini mamlakat boshqaruv

⁹³Мохаммад Хасан Махдиян. Особенности российско-иранских отношений в период президентства М.Ахмадинежада. – Москва: 2012. – С. 16.

tizimidan inkorporatsiya qilish ishlarida ham Rossiya bilan hamohang pozitsiyada ekanligini yana bir bor namoyon etdi. Shundan so'ng ikki mamalakat o'rtasidagi munosabatlar sobiq Ittifoq hududida yuzaga keladiga har qanday ijtimoiy-siyosiy konyunkturada ham beqiyos darajada mustahakam va do'stona ekanligi ma'lum bo'ldi.

Rus-eron munosabatlari rivojlanishining yangi nuqtasi 2001-yili mart oyida EIR prezidenti Muhammad Xotamiyning RFga rasmiy tashrifi bilan boshlandi. Tashrif chog'ida har ikki davlat rahbarlari ko'plab xalqaro va ikki tomonlama muammolarda yagona qarashlarni belgilovchi "Rossiya Federatsiyasi va Eron Islom Respublikasi o'rtasidagi o'zaro hamkorlik asoslari va prinsiplari haqida"gi bitimni imzolashadi. Bu boradagi amaliy harakatlar va ularning istiqboli sifatida Eron Shanxay hamkorlik tashkiloti va Kollektiv Xavfsizlik bo'yicha kelishuv tashkilotlarining kuzatuvchisi maqomida (ehtimol kelajakda a'zosi), narkobiznes va terrorizmga qarshi kurashda hamkorlik, Rossiyadan Eron hududi orqali va aksincha transport yo'llarini ochish hamda bugungi kunda ko'p e'tirof etilayotgan hamkorlikdagi neft-gaz, energetika va ilmiy-texnik loyihalarni amalga oshirishda o'z faolligini namoyon etib kelmoqda. Buning yaqqol dalili sifatida 2001-yil iyun oyida Moskvada imzolangan Eron neft-gaz komplekslarini Rossiya texnologiyasi asosida qayta jihozlash haqidagi ikki tomonlama kelishuvni keltirish mumkin⁹⁴.

Yangi davrdagi o'zaro aloqalarning rivoj topishiga har XXI asrning dastlabki yillarida har ikki davlatni boshqargan davlat rahbarlarining o'rni va roli beqiyos ekanligini ta'kidlashmoqda mutaxassislar. Chunki 2008-yil may oyida Rossiya Federatsiyasi uchunchi prezidentining inoguratsiya marosimida ishtirok etgan Eron elchisining so'zlari buni yaqqol tasdiqlaydi. Jumladan u shunday deydi: "Shuni alohida ta'kidlamochimanki, janob Vladimir Putinning prezidentlik davri Rossiy-Eron aloqalari tarixiga "oltin davr" bo'lib kirdi. Har

⁹⁴ Мамедова Н. Состояние и перспективы развития экономических отношений России и Иран // Иран сегодня: научное, культурное и историческое издание Культурного представительства при Посольстве Исламской Республики Иран в Российской Федерации. – Москва: 2006. – №1. – С. 10.

ikki mamlakat o'z manfaatlari va qiziqishlari doirasida o'zaro hamkorlikda keng-ko'lamli ishlarni amalga oshirdi. Ishonchim komilki, Eron va Rossiya o'rtasidagi bunday hamkorlik xoh umumiy bo'lsin, xoh xususiy albatta davom etadi". O'z navbatida Dmitriy Medvedev ham o'sha paytdagi Rossiya Federatsiyasi Xavfsizlik Kengashi sekretari Valentin Sobolev orqali Eron prezidenti Mahmud Ahmadiy Najodga yo'llagan maktubida ham shu ma'nodagi so'zlarni ta'kidlaydi. Garchi Rossiya prezidenti o'zgargan bo'lishiga qaramay, Eron bilan do'stona munosabatlar shu tarzda davom etdi. "Katta sakkizlik" davlat rahbarlarining Akvilida bo'lib o'tgan yig'ilishida Italiya axborot agentligi hodimlarining bu boradagi savollariga Dmitriy Medvedev quyidagich javob beradi: "Eron bizni eng muhim hamkorimiz, u bilan hamkorlik qilishda umumiy qarashlarga egamiz va bu munosabatlarimizda o'z samarasini bermoqda. Men nafaqat iqtisodiy hamkorlikni nazarda tutyapman, balki biz narkotrafik va xalqaro terrorizmga qarshi kurashda ham hamkorlikda harakat qilmoqdamiz. Biz Eron bilan tashqi siyosatdagi asosiy sherik sifatida qo'shnichilik aloqalarini davom ettiramiz".

2009-yildan Eron bilan aloqalarda va "oltilik" davlatlari o'rtasida yadro dasturi, uni amalga oshirish borasidagi tortishuvlarning yangi to'liqini avj ola boshladi. Rossiya o'z navbatida ikki o'rtada vositachi rolini o'ynadi va Eronni muzokaralarga chaqirishda davom etdi.⁹⁵

2010-yilga kelib, ko'plab mutaxassislar tomonidan Eron-Rossiya o'rtasidagi munosabatlarga "sovuqchilik tushishi" bilan xarakterlanadi. Buning asosiy sababi sifatida tomonlar iqtisodiy rejalar va siyosiy "noqulayliklar"ni keltirishadi. Shunga qaramasdan analitiklar bu boradagi ko'plab "sabab"larni keltirishmoqda, ya'ni Rossiyaning Eronga sotayotgan C-300 raketalarini to'xtatib qo'yilishi va bu o'z navbatida Bushir AESni barpo etishdagi to'xtalishlarni yuzaga keltirishi hamda AQSh boshchiligidagi g'arb davlatlarining Eronga nisbatan amalga oshirayotga sanksiyasiga Pitsburg va Singapurda bo'lgan muzokaralarda Rossiyaning qo'shilishi kabi. Shunga o'xshash ko'plab sabablarni

⁹⁵ М. Р. Арунова. РФ-ИРИ. Политический диалог: 1999-2000 гг.// Иран: ислам и власть. Сб. статей. – Москва: 2001. – С. 185.

vaj qilgan holda Rossiya Eronga qarshi sanksiyani qo'llab-quvvatlash borasidagi aybini o'ylamasdan va shoshma-shosharlik bilan qaror qabul qilishga yo'ygan.⁹⁶ Bu boradagi bo'lib o'tgan ko'plab tortishuvlarga qaramasdan ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning iqtisodiy va siyosiy sohadagi muhim aspekti sifatida Bushir AESning ochilishi bo'ldi. "Biz bu voqeani o'ttiz besh yil kutdik, nihoyat Eron Islom Respublikasi rossiyalik mutaxassislar yordamida stantsiya qurish ishlarini yakuniga yetkazishga muvaffaq bo'ldi. Stantsiya qurish ishlarini yakunlashda biz yordam so'rab murojaat qilgan g'arb davlatlari buni inkor qilib turgan bir paytda, Rossiya yordamga keldi," deya ta'kidlaydi Eron Tashqi ishlar vaziri Ali Akbar Solehiy AESni ochilish marosimida. Bushir AES ishga tushirilgach, Eron prezidenti Mahmud Ahmadiy Najod shunday bayonot beradi: "Bizni loyihamizga muvofiq, atom energiyasi vositalarini ishlab chiqarish uchun 20 ming megavatt elektr energiyasi kerak bo'ladi. Rossiya bizga 1000 megavatt energiya olishga yordam berdi, ko'zlangan maqasadga erishish uchun esa biz yana 19 ming megavatt elektr energiyasiga muhtojmiz. Hozirda Rossiya bilan bu ehtiyojni ta'minlash borasida muzokaralar olib bormoqdamiz." Islom Respublikasining oliy darajadagi vakili bergan ushbu ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Eron hukumati Rossiya bilan istiqbolli do'stlik aloqalarini olib borishga tayyor ekanligi va uni tashqi siyosatdagi ishonchli sherik sifatida ko'rayotganligini uning so'zlaridan bilish qiyin emas.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Eron tashqi siyosatida Rossiya doimo muhim o'rin egallab kelgan. Buni ularning tashqi siyosiy munosabatlari rivojlanishi uzoq tarixga egaligi va milliy davlatchilik shakllana boshlagan davrdan boshlab to bugungi kungacha ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar tendensiyasi turli ko'rinishga bo'lganligidan ko'rish mumkin. Shu jihatdan ham ikki davlat aloqalarini tadqiq etishda davrlashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy davrda Eron tashqi siyosatida Rossiyaning o'rni va roli nafaqat ikki davlat balki, Markaziy Osiyo davlatlari tashqi siyosiy faoliyatining

⁹⁶Iran-Russia relations in the 90s, part 2; Robert O. Freedman, professor of political science and president, Baltimore Hebrew University.http://www.washingtoninstitute.org/russia/russia_iran_relations_2.htm.

shakllanishiga ham o'z ta'sirini o'tkaza olgan. Bu ayniqsa mintaqaviy xavfsizlik, qurolsavdosi, narkotrafik, transmilliy tahdidlarga qarshi kurashish borasidagi Eron-Rossiya hamkorligida ko'zga tashlanadi. Har qanday sharoitda ham ikki davlat aloqalari rivojlanish va mustahkamlanish yo'lida bo'lib kelgan. Ayniqsa o'tgan asrning so'ngi o'n yilligida va asrimizning dastlabki o'n yilligidagi o'zaro aloqalarning rivojlanib borish tendensiyasi har ikki davlat aloqalari tarixida shu paytgacha kuzatilmagan darajada shiddat bilan o'sib, mustahkamlanib borganligi fikrimizning yaqqol dalilidir.

Eron tashqi siyosatida Rossiyaning o'rniga nazar tashlar ekanmiz, bu aloqalar tobora rivojlanib, mustahkamlanib borayotganligini ko'ramiz. Bu ikki davlat va xalqlar o'rtasidagi yaqinlashuv jarayonlari va hamkorlikning kuchayishi, yaxlit siyosiy va iqtisodiy makonlarning vujudga kelishi, yagona xalqaro meyorlar va qoidalarga o'tishida yaqqol namoyon bo'layotganligini kuzatish mumkin. Umuman olganda, bugungi xalqaro siyosiy vaziyatda Eronga nisbatan AQSh ittifoqchiligidagi G'arb davlatlarining tazyiqlari to'xtovsiz bo'lib turgan bir sharoitda, bundandan tashqari mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, o'zaro iqtisodiy-siyosiy va harbiy yordam ko'rsatish borasida Eron doimo bu mintaqadagi yetakchi davlat sifatida Rossiyaning yordamiga, qo'llab-quvvatlashi va hamkorligiga muhtoj ekanligini ko'rsa bo'ladi⁹⁷. Shundan kelib chiqib Eron tashqi siyosatida Rossiyaning roli kundan-kunga oshib borayotganligini o'tgan ikki o'n yillik davomida har ikki davlatning iqtisodiy, siyosiy, ilmiy-texnik, madaniy va eng asosiysi harbiy sohalardagi aloqalar rivojidan deb ayta olamiz.

III.2. Rossiya Federatsiyasi tashqi siyosatida Eronning o'rni va roli

Rossiya uchun Eron bilan doimiy “yaxshi qo'shnichilik” aloqalarini olib borishni qo'llab-quvvatlash uning strategik qiziqishlariga muvofiq holda tashqi

⁹⁷ Иванов И. С. Новая Российская дипломатия. Десять лет внешней политики страны. – Москва: 2001. – С. 210.

siyosiy yo'nalishining asosiy maqsadlari qatoriga kiradi. Eron Rossiyaning savdo hajmi doimiy o'sib turuvchi va ulkan iqtisodiy-savdo hamkori bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.⁹⁸ Rus-eron munosabatlari tarixi shuni ko'rsatadiki, mamlakatlarning ikki tomonlama munosabatlarida ijobiy jarayonlarni saqlab qolish va qo'llab-quvvatlash har ikki davlatning asosiy vazifasi hisoblanib kelingan. Shuningdek o'zaro hamkorlik asosidagi iqtisodiy-savdo va ko'p tomonlama diplomatik munosabatlardan orttirilgan qimmatbaho tajriba hisobiga yo'lga qo'yilayotgan aloqalar mustahkamligi bilan xarakterlanadi.

Eron o'zining geostrategik joylashuvi, iqtisodiy va harbiy potentsiali bilan to'laligicha Rossiyaning janubiy yo'nalishdagi ittifoqchisi hisoblanadi. Rossiya va Eronning mintqa va dunyodagi iqtisodiy-siyosiy masalalar yuzasidan qarashlarida aniq o'xshashliklar mavjud. Bu borada professor V. I. Sajin shunday deydi: "Eron bilan aloqalarda pragmatik yondoshuvni ushlab turish lozim. Bu hududda AQSh va uning ittifoqchilari tomonidan o'tkazilayotgan "bosim"ga qaramasdan iqtisodiy-savdo, ilmiy, madaniy va boshqa turli sohalarda o'zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega."⁹⁹ L. E. Sklyarovning fikriga qaraganda, Rossiya uchun Eron bilan strategik hamkorlik qilish bir necha yo'nalishlarda namoyon bo'ladi, birinchidan, Eron integratsion jarayonlarda "yo'l ochuvchi" vazifasini bajaradi, ikkinchidan, mintaqadagi kuchlarni yangitdan shakllantirishda faol rol o'ynaydi.¹⁰⁰ Shuning uchun Rossiya Eron bilan nafaqat yaxshi qo'shnichilik aloqalarini davom ettiradi, balki bu munosabatlarni o'z chegarasidan janubga tomon muhim strategik yo'nalishning barqaror faktoriga aylantiradi.

Aynan shu maqsadda 1989-yilning fevral oyida Tehronda SSSR Tashqi ishlar vaziri E.A.Shevarnadzening va iyul oyida Eron Islom Respublikasi

⁹⁸ Галбацов Шахрузат Сурхаевна. Российско – иранские отношения как фактор стабильности в прикаспийском регионе(1978-2011). – Владикавказ: 2012. – С. 28.

⁹⁹ Сажин В. И. Россия и Иран: проблемы стратегической перспективы // Исламская республика Иран в 90-е годы (экономика, политика, культура). – Москва: 1998. – С. 30.

¹⁰⁰ Скларов Л. Е. Россия и Иран в 90-е годы: новый этап взаимоотношений // Исламская республика Иран в 90-е годы (экономика, политика, культура). – Москва: 1998. – С. 50.

prezidenti Ali Akbar Rafsanjoniyning Moskvaga tashriflari bilan ikki davlat o'rtasidagi aloqalarning yangi davri boshlandi.¹⁰¹

Rossiya AQSh boshchiligidagi butun g'arb davlatlari tomonidan bo'layotgan bosimga va bu paytga kelib xalqaro maydondagi "xavfli yov" sifatida baholanayotganligiga qaramasdan Eron Islom Respublikasi bilan yaqinlashish siyosatidan og'ishmay bordi¹⁰². AQSh tomonidan agressiv va terroristik davlat sifatida baholanayotgan Eron Islom Respublikasi Rossiya uchun uning janubiy chegaralarida joylashgan mustaqil Markaziy Osiyo va Kavkazorti davlatlari uchun barqarorlik faktori sifatidagi hamkor bo'lib chiqdi. Rossiya Eron Islom Respublikasiga nisbatan o'z pozitsiyasini boshqa xalqaro muammolardan kelib chiqib belgilamaydi albatta. Bu o'rinda so'z NATOning Sharqda harakatlanishi, ya'ni Rossiya chegaralari, Markaziy Osiyo va Kavkazortidagi ichki mintaqaviy konfliktlarni tartibga solish aralashuvi, Afg'onistondagi ichki muammolarni tartibga solishdagi odillik, AQSh va uning g'arbiy ittifoqchilarini Markaziy Osiyo va Kavkazorti mintaqalarida doimiy harbiy bazalarni barpo etishga urinishini oldini olish va umuman olganda xalqaro muammolarni hal etishda BMTning rolini oshirish haqida ketmoqda. Rossiyalik mutaxasislarning fikriga ko'ra, Eron bilan munosabatlarni bu hududda yuzaga kelayotgan AQSh bilan manfaatlarni qarama-qarshi kelib qolishi hisobiga bo'lsa ham mustahkamlash lozim. Chunki shusiz ham Rossiya allaqachon AQSh prezidenti davlat maslahatchilaridan biri Mitt Romni tomonidan tashqi siyosatdagi asosiy dushman sifatida e'lon qilib bo'lingan edi.¹⁰³ Bunday to'siqlar bo'lishiga qaramasdan ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish borasidagi iqtisodiy, siyosiy va umummadaniy kelishuvlarni amalga oshirish shubhasiz har ikki davlat pozitsiyasidan kelib chiqib muhim hisoblanadi.

¹⁰¹Россия и мусульманский мир. 2000. – №8. – С. 125.

¹⁰²Сергей Дружиловский. Эволюция и перспективы развития российско-иранских отношений. – Москва: 2012. – С. 16.

¹⁰³Севак Саруханян. Ядерная программа Ирана и российско-иранские отношения. – Москва: 2012. – С. 21.

Bundan tashqari Rossiya tashqi iqtisodiy siyosatida Eronning muhim ahamiyat kasb etish sabablaridan yana biri shundaki, u Rossiyaning O'rta Sharqdagi eng yirik savdo hamkori hisoblanadi va o'z mahsulotlari, shuningdek, mashina, ishlab chiqarish texnologiyalari, transport vositalari, metal va nometal mahsulotlarni qo'shni davlatga olib o'tish uchun muhim savdo yo'lagi bo'lish bilan bir qatorda, keng iste'mol bozori ham hisoblanadi. Tashqi siyosatda Eron neft-gaz, shu jumladan Rossiya iqtisodiyoti uchun muhim bo'lgan uglevodorod xom-ashyosini tashish bo'yicha "yo'lak"ni shakllantirish uning Markaziy va Janubiy Osiyoda hamda Yaqin va O'rta Sharqdagi tashqi siyosiy pozitsiyasini mustahkamlash va bu mintaqadagi energetika xavfsizligi borasidagi imkoniyatlarni kengaytirishga yordam beradi¹⁰⁴.

Shundan kelib chiqib Rossiya tashqi siyosatida Eronning o'rni yuqori ekanligini ularning mintaqaviy va xalqaro jarayonlarga nisbatan qarashlarida yagona pozitsiyaga ega ekanliklari, shuningdek, AQShning bir tomonlama siyosat olib borishdagi maqsadlari, uning Isroil va Turkiya yordamida amalga oshirgan so'ngi yillarda Yaqin va O'rta Sharqda, xususan Suriyada voqealar, Ozorbayjondagi harlashtirish jarayonlari, Markaziy Osiyo va Kaspiy dengizi mintaqasida xavfsizlik va ekotizimni saqlab qolish, ikki davlat o'rtasida transkaspiy quvurini G'arb yordamisiz tashkil etish, har ikki mamlakatning Armaniston bilan munosabatlarini yaxshilashda hamda Rossiyaning Janubiy Kavkaz mintaqasidagi rolini oshirishda Eron eng muhim strategik, iqtisodiy va siyosiy hamkor hisoblanadi. Aynan shu maqsadda Rossiya prezidenti Vladimir Putinning Eronga uyushtirgan rasmiy tashrifi oxirgi 60 yil ichida Rossiya davlat rahbarining Eronga nisbatan dastlabki tashrifi sifatida baholanadi va ahamiyatli hisoblanadi. Ushbu uchrashuvning bosh maqsadi "tinchlik dengizi" hisoblangan Kaspiy deklaratsiyasining imzolanishi bo'ldi. Bundan tashqari, Eron yadro dasturi har ikki tomon diqqat markazida bo'lishi bilan birga, uni rivojlantirish ishlarida Rossiya qo'llab-quvvatlashga tayyor ekanligini ma'lum qildi.

¹⁰⁴ Ивашенцов Г. Россия-Иран: горизонты партнерства // Международная жизнь. – Москва: 2004. – №10. – С. 124.

2000-yildan keyin Eron yadro dasturi Rossiya tashqi siyosatida u bilan bog'liq asosiy muammoga aylandi. Ayni shu paytda Rossiya muammolarni tartibga solish uchun Eron masalasida 1995-yil tuzilgan ikki tomonlama rossiya-amerika kelishuvi (Gor-Chernomordin nomi bilan mashhur shartnoma) dan chiqadi. Bu shartnomaga muvofiq Rossiya Eron yadro dasturini amalga oshirishda unga texnik va harbiy yordam berishni cheklashi lozim edi. Shartnomadan chiqish harakati bilan Rossiya president Boris Yelsin davrida "muzlatib" qo'yilgan Eron yadro dasturini amalga oshirish va Bushirdagi qurilish ishlarini butunlay yakunlash hamda harbiy-texnik hamkorlikni yanada rivojlantirish sari dadil qadam tashlagan edi. Bu bilan Rossiya hukumati Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharqda XX asrning 90-yillarda yo'qotilgan siyosiy ta'sir va obrosini tiklab olishni mo'ljallagan edi. Bu mintaqada Rossiya ta'sir doirasining susayishi asosan ikkita Fors ko'rfazi urushlari (1990-1991, 2003) bilan bog'liqdir. Eronda mamlakat prezidentligiga Ahmadiy Najodning kelishi va Eronni AQSh bilan munosabatlarini yanada keskinlashuvi bilan Rossiya o'zining bu mintaqada va Eron uchun asosiy yetakchi davlat ekanligiga to'liq ishonch hosil qildi. 2006-yili Rossiya Eron bilan uning xususiy sun'iy yo'ldishini kosmosga chiqarishda yordam berish va zamonaviy havo hujumlari mudofaasi imkonini beruvchi «Tor M-1» i «Pechora-«2A» antiroketalarini sotish bo'yicha milliard dollarga teng bo'lgan shartnoma imzoladi.

2006-yil 31-avgustda BMT Xavfsizlik Kengashi Eron agar uranni to'yintirish ishlarini to'xtatmasa, unga qarshi yangi sanksiya e'lon qilishi haqida rezolyutsiya qabul qildi. Lekin Rossiya va Xitoy bu sanksiyani qo'yilishiga norozi ekanligini va Eron bilan munosabatlarni davom etirishlarini ma'lum qildi. 2007-yil 27-sentabrda esa, BMT Xavfsizlik Kengashi tomonidan №1835 sonli sanksiya e'lon qilindi. Bu borada ham Rossiya o'z qarashlarida qoldi, ya'ni sanksiya shartlari Eron uchun munosib emas¹⁰⁵.

Bu borada Vladimir Putinning 2007-yil Al-Jazira telekanali jurnalistlariga bergan intervyusi diqqatga sazovordir. Uning

¹⁰⁵ Вашингтон обвинил Тегеран в намерении создать ядерное оружие/ на сайте www.iran.ru

ta'kidlashicha: "Bizni Eron bilan olib borayotgan yadro borasidagi va harbiy-texnik hamkorligimiz xalqaro-huquqiy hujjatlarning hech biriga qarshi emas. Eron bilan aloqalarimizda xalqaro hujjatlarning buzulishigan zarracha yo'l qo'ymaymiz. Hamkorlikda amalga oshirayotgan Bushir AESni qurish borasidagi yadro dasturimiz tinchlik maqsadiga yo'naltirilgan bo'lib, MAGATE tomonidan to'laligicha nazoratga olingan. U yerda texnika bor, doimiy MAGATE kuzatuvchilari bor. Bizni atom elektr stansiyasini qurishimizga hech qanday norozilik yo'q. Biz kelajakda ham huddi shu tarzda harakat qilishni rejalashtiryapmiz. Olib borayotgan yadro borasidagi hamkorligimizdan kelib chiqib shuni aytishim mumkinki, biz yadro quroli tarqalishiga to'laligicha qarshi bo'lgan davlatlarmiz."

2008-yili Eron yadro dasturi va uni Rossiya qo'llab-quvvatlashiga doir yangi rezolyutsiya qabul qilindi. Unda BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy olti nafar a'zosi manfaatlaridan kelib chiqqan holda rezolyutsani asosiy yo'nalishlari bayon etilgan edi. Bularning birinchisi Eronda MAGATE faoliyatini olib borilishi va uni qo'llab-quvvatlashni ko'zda tutardi, ikkinchisi, bu choralar real vaziyatdan kelib chiqib, unga mos bo'lishi, uchinchisi esa agar Eron MAGATE qo'yayotgan talablarga rozi bo'lsa, u bilan doimiy muzokaralar olib borishga har qaysi "oltilik" davlatlari tayyor ekanligi ma'lum qilindi¹⁰⁶.

Rossiya Tashqi ishlar vaziri Sergey Lavrov bu rezolyutsiyaga o'z munosabatini bildirib, jumladan shunday deydi: "Biz g'arblik hamkorlarimizning oldingisidan farq qiluvchi yangi talablari bayon etilgan rezolyutsiya matnini oldik. Ularni talablari MAGATE aniqlay olmagan Eronning sobiq yadro dasturi faoliyati bo'yicha emas, balki Eronni jazolashga qaratilgan. Endi bu rezolyutsiya biz hamkorlik qilayotgan BMT Xavfsizlik Kengashining yadro qurolini tarqatmaslik borasidagi barcha kriteriyalariga mos keladi, boshqa hech qanday siyosiy maqsad yo'q."

¹⁰⁶ Федюкин, Е. В. Роль третьих стран в развитии ядерной программы Ирана // Вестник ННГУ. Серия Международные отношения, политология, регионоведение. 2006. – Вып.2. – С. 125.

2008-yili Eron prezidenti BMT Xavfsizlik Kengashining olti a'zosi bilan har qanday munosabatlarga kirishishni to'xtashini e'lon qildi. O'z navbatida Rossiya "oltilik" davlatlari bilan yangitdan muzokaralarga kirishishni taklif etdi. Rossiya Xavfsizlik Kengashi sekretari Valentin Sobolev bu borada ITAR-TACC axborot agentligiga bergan ma'lumotida shunday deydi: "Biz Eronni "oltilik" davlatlari bilan muzokarlarda hamkorlikka chaqirdik. Eron bu muzokarlarda katta tashabbus bilan chiqishi kerak deb hisoblaymiz. Eron yadro qurolini tarqatmaslik bo'yich xalqaro kelishuvga amal qilgan holda yadro energiyasini rivojlantirish imkoniga ega." Lekin Jenevda bo'lib o'tgan muzokaralar chog'ida Rossiya nisbatan "oltilik" davlatlari tomonida ekanligi namoyon bo'lib qoldi. 2009-yilga kelib Eron va "oltilik" davlatlari o'rtasida yangitdan munosabatlar keskinlashuvi boshlandi. Rossiya har doimgidek yana Eronni muzokaralarga chaqirish bilan cheklandi¹⁰⁷.

2010-yining boshlariga kelib Rossiya tashqi siyosatida Eron bilan munosabatlarda bir qadar "sovuqchilik" kuzatiladi. Bu esa yuqorida aytib o'tilgan siyosiy hamkorlikda yuzaga kelgan muammolar bilan bog'liq edi. Bundan tashqari 2010-yili iyun oyida BMT Xavfsizlik Kengashining 12-majlisida Eronga nisbatan yangi sanksiya e'lon qilindi. Uning doimiyu a'zosi Rossiya Federatsiyasi Vitaliy Churkinni so'zlariga qaraganda, yangi sanksiya Eron tomonida kelishilgan shartlarni bajarmaganligi uchun qo'yilayotganini bayon qildi. Turli qarama-qarshiliklarga qaramasdan, Eron Rossiya uchun siyosiy va iqtisodiy hamkorlardan biri bo'lib qolmoqda¹⁰⁸.

Bugungi kunda xalqaro siyosiy maydonda yuz berayotgan voqealar va Eron atrofida yig'ilib qolgan turli siyosiy "o'yinlar" kuchaygan bir paytda Rossiya tomonidan ikki tomonlama iqtisodiy aloqlar bilan bog'liq hukumatlararo muloqotlarni yanada rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Ikki tomonlama savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda faol qadam tashlash zarur ekanligini Rossiya tashqi savdo aylanmasida Eronning roli yuqori

¹⁰⁷ Саруханян С. Россия и Иран: 10 лет ядерного сотрудничества. – Ереван: 2006. – С. 90.

¹⁰⁸ Военное сотрудничество с Ираном: Россия торгует смертью, <http://www.temadnya.ru/spravka/13mar2001/322.htm>

emasligini har ikki davlat savdo rivojlanishi potentsialiga muvofiq kelmasligi ko'rsatib turadi. 2010-yil natijalariga ko'ra Rossiya tashqi savdo hamkorlari orasida Eron 29-o'rinni egallaydi va shu jumladan eksportda 26 va importda 61-o'rinlarni band qilganligi so'zimizning yaqqol tasdig'idir. Rossiya tashqi savdo aylanmasida Eronning ulushi esa 0,6%ni tashkil etgan. 2000-yilda 2010-yilgacha ikki tomonlama rus-eron savdo aloqalari mahsulot ayirboshlash tendensiyalarini o'sishi bilan belgilanadi. 2010-yilda davlatlar o'rtasida savdo va mahsulot ayirboshlash hajmi o'tgan yil bilan taqqoslaganda 19,5%, eksport 19% va import 27%ga oshganligini ta'kidlab o'tish lozim. Eron bilan mahsulot ayirboshlashning katta qismi Rossiya eksporti(92,5%)ga to'g'ri keladi. 2011-yil yanvar oyini o'tgan yil shu oy bilan taqqoslaganda mahsulot ayirboshlashning o'sishi 32%(326,4 mln. AQSh dollorigacha), ekaport ham xuddi shu raqamda va import 38%(28,1 mln. AQSh dollari)gacha yetganligini kuzatish mumkin. Rossiya va Eron o'rtasidagi tovar ayirboshlashdagi mahsulotlar tizimi hamon o'zgarishsiz ya'ni 2000-yildagi holatda qolmoqda. 2010-yilga kelib Eronga nisbatan rus eksport tovarlari tizimini o'tgan yil kabi metal va uning tayyor mahsulotlar-64%, qimmatbaho toshlar va uning tayyor mahsulotlari 17,5%, yog'och, sellyuluza-qog'oz mahsulotlari 6,6%, boshqoli o'simliklar 5,16%, mineral va yoqilg'i-energetika mahsulotlar 2,95% tashkil etgan. O'z navbatida Rossiyaning Erondan import qiluvchi mahsulotlari ilgarigidek oziq-ovqat va qishloq xo'jalik mahsulotlari 84,7%, shuningdek mashina va texnologiyalar 6,6%ni tashkil etgan¹⁰⁹.

Ikki davlat o'rtasidagi o'zaro jamg'armalar hajmining umumiy qiymati 2010-yilning dastlabki to'qqiz oyiga nisbatan 30,5 mln., shu jumladan Eronning Rossiyadagi investitsiyasi 27,4 mln. va Rossiyaning Erondagi investitsiyasi 3,1 mln. AQSh dollariga baholanmoqda. Eronning Rossiyaga to'g'ridan-to'g'ri olib kirayotgan investitsiyasi 2010-yilning o'rtalarigacha bo'lgan vaqt mobaynida 608 ming AQSh dollarini tashkil etganligini ko'rish mumkin. Har ikki davlat investorlarini iqtisodiy sohada chakana va ulgurji savdo ko'proq

¹⁰⁹ <http://www.iran-daily.com/1388/3414/html/economy.htm#s38329>.

qiziqtirayotganini kiritilayotgan investitsiyalarning 90%dan ortig'i avtotransportga xizmat ko'rsatish va maishiy texnika sohalariga yo'naltirilayotganligidan bilib olish qiyin emas.

2007-yil 16-oktabrda Rossiya Federatsiyasi va Eron Islom Respublikasi Prezidentlari o'rtasida bo'lib o'tgan uchrashuvda tomonlar o'zaro savdo-iqtisodiy hamkorlik hajmini yanada kengaytirish chora-tadbirlari haqida kelishuvni imzoladi. Bu kelishuvni yuqori darajada bajarilishini ta'minlash maqsadida 2007-yil dekabr oyida Moskvada Rossiya-Eron iqtisodiy-savdo hamkorligi bo'yicha doimiy kengashning yettinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi va unda ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy-savdo, sanoat va ilmiy-texnik hamkorlikni rivojlantirishni uzoq muddatli chora-tadbirlari haqida hukumatlararo Memorandum imzolandi. Bundan tashqari shu yilning 13-dekabrida Eron Islom Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida turizm borasidagi hamkorlik haqida kelishuv imzolanadi. Bu Memorandum davlatlar o'rtasidagi kelishuv-huquqiy asosni kengaytirdi va o'zaro hamkorlik borasida standartlashtirish, metrologiya va sanoat tadqiqotlarini tartibga solish bo'yicha Federatsiya agentligi va Eron standartlashtirish instituti o'rtasidagi muvofiqlikka asos bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Rossiya uchun Eron nafaqat iqtisodiy-siyosiy hamkor, balki mintqa nuqtai-nazarida, bu yerdagi xavfsizlik va uni ta'minlash borasida, shuningdek, xalqaro masalalarda umumiy pozitsiyaga ega bo'lgan qarashlar bilan ham muhim sherik hisoblanadi. Shuning uchun ham so'ngi ikki o'n yillikda Rossiyaning Eron bilan munosabatlari yuqori darajaga ko'tarilganini ko'rishimiz mumkin. Bu borada Rossiya prezidenti Vladimir Putinning Eronni Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo bo'lish istagini bildirgani bilan tabriklagani muhim ahamiyatga egadir. Chunki xalqaro tashkilotlarda ham Rossiya-Eron manfaatlari doimo mushtarak bo'lib kelgan¹¹⁰.

Lekin 2010-yil 9-iyunda BMT Xavfsizlik Kengashining Eronga qarshi e'lon qilgan sanksiyasini Rossiya tomonidan ma'qullanishi va president

¹¹⁰ Санаи М. Три подхода к оценке ирано-российских отношений. Выступление на специальном заседании ИРАС Иран и Россия в новых международных условиях-www.iraneurasia.ir. 27.01.2010.

D.Medvedev ko'rsatmasi bilan 166 million dollarlik «S-300» rusumli antiraketa tizimini Eronga sotish haqidagi shartnomani to'xtatib qo'yilishi bilan ikki tomonlama munosabatlarda biroz uzilish yuz berdi. Albatta bu ish Rossiya nisbatan g'arb davlatlarini qattiq bosimi va bunday sharoitda Rossiya o'z manfaatlari doirasidan kelib chiqqan holda ushbu sanksiyani ma'qullagani uning yadro borasidagi Eron bilan faoliyatini ma'lum vaqt to'xtatish istagidan dalolat beradi. Chunki sanksiyani ma'qullash borasidagi Rossiya Tashqi ishlar vaziri Sergey Lavrovning so'zlariga qarganda, Eron ega bo'lishga intilayotgan yadro quroli keyinchalik Rossiya uchun ham butun g'arb davlatlari tomonidan yangi xavfni yuzaga keltirishi mumkinligi va bu harakatlar faqatgina tinchlik maqsadida bo'lsagina davom ettirilishini ta'kidlamoqda.

III.3.Rossiya - Eron o'rtasidagi madaniy va ilmiy hamkorlik tarixidan (1991-2010-y.y.)

Jahon xalqlari har bir mamlakatning madaniy, ma'naviy va diniy turmush voqealiklarini qanchalik yaxshi anglashsa, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar shu qadar samarador bo'ladi. XX asrning so'ngi o'n yilligida, ya'ni ikki qutbli dunyo tartiboti barham topgach, Eron va Rossiya o'rtasida nafaqat siyosiy, savdo va iqtisodiy aloqalarni rivojlanishini, balki madaniy va ilmiy aloqalarning mustahkamlanib borayotganligini ko'ramiz. Bu boradagi eng muhim qadam 1999-yili Moskvada Eron Islom Respublikasi elchixonasi xuzuridagi Madaniyat markazining tashkil etilishi bo'ldi. Markaz faoliyatining asosiy maqsadi-madaniy va ilmiy doiradagi yaqin do'stlik rishtalarini yo'lga qo'yish va rivojlantirish, oliy o'quv yurtlari, ijtimoiy tashkilotlar, musulmon markazlari bilan aloqalarni o'rnatish edi¹¹¹. Shundan kelib chiqib, qisqa vaqt mobaynida Madaniyat markazi Rossiya

¹¹¹ Федкжин, Е. В. Научно-техническое сотрудничество РФ и ИРИ: правовая база и программные документы// Вестник ННГУ. Серия. Международные отношения, политология, регионоведение. 2005. – Вып.1. – С. 41.

jamoatchiligini Eronning hozirgi kundagi zamonaviy hayoti, boy tarixi va madaniyati bilan tanishtirishda ulkan ishlarni amalga oshirdi. Markaz tashabbusi bilan 2000-yilda Moskvada M. I. Rudomino nomidagi chet el adabiyotlari kutubxonasida, Rossiya davlat kutubxonasida hamda Sharq muzeylarida dastlabki Eron san'at asarlari ko'rgazmalari bo'lib o'tdi. Bundan tashqari Madaniyat markazi shu yillarda Rossiyada o'tkazilgan xalqaro kitob ko'rgazmasida ikki marta ishtirok etdi va jahon hamjamiyatiga Eron adabiyotining so'ngi nashrlarini namoyish etdi. Markazda o'n mingdan ortiq kitobga ega bo'lgan boy kutubxona faoliyat yuritgan holda, bu yerda Lev Tolstoy, F. Dostoyevskiy, A. S. Pushkin va M. Sholoxov kabi atoqli rus adiblarining fors tiliga tarjima qilingan kitoblari ham o'rin olgan. Eron Islom Respublikasining Rossiyadagi sobiq elchisi M. Safariyning so'zlariga qaraganda, Madaniyat markazi bugungi kunga kelib ko'plab ilmiy – madaniy muassasalar, oliy o'quv yurtlari shningdek, Rossiya va boshqa MDH davlatlaridagi musulmon davlatlari Madaniyat markazlari bilan keng aloqalarni yo'lga qo'ygan.

2002-yilda Maksim Gorkiy nomidagi Jahon adabiyoti institutida Jaloliddin Rumiy (1207-1273-yy.) xotirasiga bag'ishlangan ilmiy anjuman bo'lib o'tdi. Yig'inda Latviya, Afg'oniston, Tojikiston, Eron va Rossiyalik sharqshunos olimlar va madaniyat hodimlari ishtirok etdilar. Anjuman tashkilotchilari Eron Islom Respublikasi elchixonasining Madaniyat markazi, Sharqshunoslik, Jahon adabiyoti instituti va Yozuvchilar uyushmasi bo'ldi. Nafaqat Eron, balki jahon adabiyotining yorqin namoyondalaridan bo'lgan Rumiy ijodiga, uning asarlarini o'rganishga, inson kamoloti va ma'naviy dunyosini bilish borasidagi falsafiy qarashlarini tadqiq etishga bo'lgan qiziqish bugungi kunda tobora ortib bormoqda. Bu borada 2002-yilning boshlarida Londonda bo'lib o'tgan Mavlono Rumiy ijodiga bag'ishlangan konferensiya ham fikrimizning yaqqol dalilidir¹¹².

¹¹² Чалисова Н. Ю., Смирнов А. В. // Подражания восточным стихотворцам: встреча русской поэзии и арабско-персидской поэтики // Сравнительная философия. – Москва: Наук, 2000. – С. 245.

Madaniyat markazi har yili eronshunoslikka bag'ishlangan turli ilmiy-nazariy anjumanlarga boshchilik qiladi. Shunday anjumanlardan biri 2000-yili 26-aprelda Rossiya Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining eronshunoslik bo'limida "Eron – islom va hukumat" nomli Butunrossiya an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani bo'lib o'tdi. Bu anjuman hozirgi kundagi dolzarb mavzulardan biri – Erondagi islom dini bilan hukumatning o'zaro bog'liqligi va munosabatlariga qaratildi. Liberal qarashlarga ega bo'lgan Eron prezidenti Xotamiyning faol harakatlari va islohotlari natijasida mamlakatda ijtimoiy hayot ancha jinlanib qolgan edi. Aynan shu narsa ushbu anjuman ishtirokchilari tomonidan juda yuqori baholandi. Ushbu anjumandan bir qator taniqli rossiyalik eronshunoslardan N. M. Mamedova "Eron Islom Respublikasi: davlat va g'oyaning o'zaro munosabati" mavzusida, A. Z. Arabadjan "Imom Humayniyning 1979-yil 1-fevraldagi nutqi to'g'risida", E. V. Xutorskiy "Siyosiy kurash va islom pragmatizmi", E. V. Dunayev "Erondagi siyosiy jarayonlar garb nashrlarida", S. B. Drujilovskiy "Amerika eronshunoslari 1979-yilgi inqilob to'g'risida", I. E. Feodorova "EIR va AQSh aloqalarida yangi tendensiya", O. I. Jigalin "Hozirgi Eronda kurdlar muammosi va uni hal etish istiqbollari", J. B. Logashova "XX asr birinchi choragida Eronda milliy-ozodlik harakati" kabi mavzularda o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etdilar.

Shunday ilmiy-amaliy konferensiyalardan yana biri 2002-yil 22-mayda Rossiya Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida "Eron va MDH davlatlari" nomli konferensiyadir. Eronning MDH davlatlari bilan munosabatlari ko'p qirrali bo'lib, unda geosiyosiy, iqtisodiy va madaniy sohaga oid masalalarga bag'ishlangan ma'ruzalar tinglandi.

Ma'lumki, 1989-yili Eronda fors tilini o'rganish xalqaro markazi tashkil etilgan edi. Bu yerda dunyoning 58 mamlaktidan 500 dan ortiq talaba ta'lim oladi. Markazning asosiy maqsadi rossiyalik iqtidorli talabarni shu markazga o'qish uchun yuborishdan iboratdir. 2000-yili yanvar oyida bir guruh fors tili va adabiyoti o'qituvchilarining Tehron universitetiga tashrif buyurishi bu borada tashlangan muhim qadamlardan biri bo'ldi. Ana shunday tashriflardan yana biri

2000-yilning oxirlarida rossiyalik bir guruh jurnalistlarning Eronga tashrifidir. Bu safar to'g'risida publitist Yu.Tissovskiy "Eron qo'rqinchlar oqimida" nomli maqolasini yozadi. Uning fikricha, bugungi Eronda ikki xil ko'rinish namoyon bo'lmoqda: bir tomondan, qadimiy madaniyat va musulmonchilik an'analari o'ziga xos ko'rinishi kasb etsa, ikkinchi tomondan boshqalarga o'xshamaydigan siyosiy xavflar ko'zga tashlanadi. Eron Islom inqilobidan so'ngi ikki o'n yillikda ayniqsa, Imom Humayniyning o'limigacha mamlakat qattiq diniy normalar asosida, g'oyaviy izolyatsiya natijasida dunyo sivilizatsiyasidan ham iqtisodiy, ham ijtimoiy sohada orqada qolib ketdi. Lekin bugungi kundagi jamiyatda ancha ijobiy o'zgarishlar ro'y berayotgani kuzatilmoqda. Aholining 60%dan ko'prog'ini tashkil etuvchi 25 yoshgacha bo'lgan yoshlarda diniy ierarxiyaning har kungi nazoratidan chiqib, erkin bir jamiyatda yashashni xohlashayotgani yaqqol ko'rinib turibdi. Rossiyalik jurnalistlar bugungi kunda Eronda yuz berayotgan katta ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarni yuksak baholab, o'z yurtlariga qaytishdi.

Eron madaniyat ishalari vaziri o'rinbosari, madaniy aloqalar tashkilotining boshqaruvchisi Mahmud Muhammad Eroqiy Rossiyaga tashrif buyurib, Moskvadagi Eron Mdaniyati markazida bir guruh jurnalist va sharqshunoslar bilan uchrashuv o'tkazdi. Uchrashuvda "Aziya i Afrika segodnya", "Persiya", "Novosti" kabi axborot agentliklari, Rossiya radiosi va televideniyasidan muxbirlar, shuningdek Britaniya teleradiokorporatsiyasi BBC jurnalistlari ishtirok etdilar. Mahmud Muhammad Eroqiy Erondagi matbuot va ommaviy-axborot vositalarining ahvoli haqidagi savolga javob berarkan, u Eronda matbuot erkinligi haqida qonunning qabul qilinganligini, kundan-kun ommaviy nashrlarning soni o'sib borayotganlini, ularda turli ijtimoiy-siyosiy fikr va qarashlar aks etayotganligini ta'kidlagan holda, bugungi kunda Eronda 185 ta turli guruh va partiyalar o'z nshrlarini chop etayotganligini aytib o'tadi¹¹³.

¹¹³ Карнеев С. Б. Персидская поэзия. Материалы к библиографии русских переводов // Библиография // Востока, вып. 10. – Москва: Литература, 1937. – С. 101.

Ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy va savdo munosabatlarining tobora rivojlanib borishi, ilm-fan sohasidagi hamkorlikka ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Buning amaliy ahamiyati sifatida, 2001-yil Moskvada nashrdan chiqqan "Fors tili: tijorat yozishmalari va hujjatlari" kitobini aytishimiz mumkin. Chunki shu paytgacha savdo-iqtisodiy va tijorat ishlarida munosabatlarni o'rgatishga mo'ljallangan kitob yo'q edi. Lekin nshr etilayotgan kitoblar ichida shunday kitoblar borki, ularni alohida ta'kidlab o'tsa bo'ladi. Misol uchun, Muhammad Xotamiy qalamiga mansub ko'pgina ilmiy risolalar, monografiyalar shular jumlasidandir. Ulardan biri "Ana'na va tafakkur avtoritar boshqaruvda" deb nomlanadi va 2001-yili Moskva Davlat Universiteti tomonidan rus tilida nashr etilgan. Bu kitob BMT Bosh Assambleyasi tomonidan prezident Xotamiy ilgari surgan 2001-yilni "Tamaddunlar muloqoti" deb e'lon qilinishi arafasida chop etilishi bejiz emas¹¹⁴. Mazkur kitob musulmon sivilizatsiyasining yuksaklikka chiqishi va inqirozga yuz tutishi – VII asrdan boshlab to XVI asrning ikkinchi yarmiga qadar bo'lgan davrda ushbu g'oyalarning vujudga kelishi va insoniyat tafakkuriga ta'siri xususida bahs yuritadi. Kitob keng jamoatchilikka qarat yozilgan, ammo eng avvalo sharqshunoslar, dinshunoslar, muarrixlar, iqtisodchi va jamiyatshunos–sotsiologlar diqqatinim o'ziga tortadi. Kitobga M.V.Lomonosov nomidagi Moskva Davlat Universitetining o'sha paytdagi rektori V.A.Sadovnichki kirish so'zi yozgan.

Ikki mamlakat o'rtasidagi madaniy aloqalar 2002-yilda Moskvada dastlabki fors tilini o'rganish bo'yicha xalqaro kurslarni tashkil etilishi bilan yangi bosqichga ko'tarildi. Uning muassislari Eron Islom Respublikasi elchixonasi xuzuridagi Madaniyat markazi va M. V. Lomonosov nomidagi Moskva Davlat Universiteti qoshida faoliyat olib boruvchi Osiyo va Afrika instituti bo'ldi. Ushbu kursdan ko'zlangan maqsad "Sharqning fransuz tili" hisoblangan fors tili tarixini, rivojlanish bosqichlarini va asosiy elementlarini chuqur tahlil qilishdan iborat ekanligi ta'kidlab o'tildi.

¹¹⁴ Мохаммад Хатами. Ислам, диалог и гражданское общество. – Москва: 2001. – С. 59.

Ikki mamlakat o'rtasidagi madaniyat va ma'naviyat borasidagi hamkorlikning tobora rivojlanib borayotganligi ilm-fan sohasidagi aloqalarning ham rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. 1999-yilinoyabr oyida Eron Islom Respublikasi madaniyat va oliy ta'lim vazirligining raisi Moskvaga qilgan tashrifi chog'ida ilm-fan sohasidagi hamkorlik to'g'risida shartnoma imzoladi. Bu hujjat ikki mamlakat texnik ekspertlari va olimlarining o'zaro tashriflari, Eron va Rossiya universitetlaridagi o'qituvchi va talabalar almashinuvi, o'zaro texnologiyalar va qo'shma ilmiy loyihalarni amalga oshirishda hamkorlik qilishni ko'zda tutadi. Bundan tashqari bu shartnoma asosida ikki mamlakat o'rtasidagi Kaspiy dengizi ustidan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, neftni qayta ishlash, og'ir sanoat – metallurgiya, energetika va boshqa ilmiy sohalardagi masalalarni ham ko'rib chiqadi.

2000-yil mart oyida Moskvada Eron Islom Respublikasining rasmiy vakillari, olimlari, dunyoning boshqa islom tashkilotlari va provaslav cherkovi namoyondalari, Rossiya va boshqa MDH davlatlarining bir guruh madaniyat va jamoat vakillari ishtirokida “Imom Humayniy va ma'naviy uyg'onish” nomi ostida katta kongress bo'lib o'tdi. Ushbu kongressda qatnashish uchun Humayniyning qizi, falsafa fanlari doktori, Eron ayollar tashkilotining raisasi Zahro Mustafaviy tashrif buyurdi. Islominqilobining buyuk rahbari Imom Humayniy 100 yilligini nishonlash kongressida Eron Islom Respublikasining Rossiyadagi elchixonasi xuzuridagi Madaniyat markazi, Eron – Rossiya madaniy aloqalari tashkiloti, Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti va Rossiya yozuvchilar uyushmasi ishtirok etdi. Kongressda so'zga chiqqan Eron Islom Respublikasining o'sha paytda Rossiyadagi favqulodda va muxtor elchisi Mahdi Sanoiy va Rossiya Fanlar akademiyasi Afrika instituti direktori A.Vasilevlar Rossiya federatsiyasida yangi islom markazlarining ochilganligi, islomning turli sohalarga oid kitoblari nashr etilayotganligini ta'kidlab o'tdilar. Ayni shu yildan boshlab Madaniyat markazi tashabbuskorligida “Aziya i Afrika segodnya” jurnaliga ilova tarzda “Persiya” jurnalining doimiy ravishda chiqa boshlashi, rossiyaliklarning Eron hayoti bilan

yaqindan tanishish imkoniga ega bo'lganliklarini aytib o'tildi. Chunki bu jurnalda Eronning ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'naviy merosiga, Rossiya bilan bo'lgan turli sohalardagi aloqalariga oid maqolalar o'rin olgan bo'lib, eronshunoslikka qiziquvchilar uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Bu jurnalning ahamiyati va unga bo'lgan qiziquvchilarning sonini ortib borishini uning soni va hajmining ortib borishi hamda 2003-yildan buyon "Iransegodnya" nomi ostida nashr etilayotganligidan ko'rish mumkin.

"Imom Humayniy va ma'naviy uyg'onish" xalqaro kongressi ishining yakunida rezolyutsiya qabul qilindi. Ushbu rezolyutsiyada kongress Imom Humayniy asarlarining rus tilidagi tarjimalari taqchilligini ta'kidlab, Rossiyada uning ijodiy merosini tarjima qilib, nashr qilishni kengaytirish taklifi tasdiqlandi. Kongress ta'sischi-lari kelajakda ham shunday forumlar o'tkazish zarurligini ko'rsatib o'tdilar. Rossiyada imzolangan bu hujjatni Eron Islom Respublikasi va Rossiya Federatsiyasining madaniy hamkorlik yo'lidagi aloqalari rivojlanib borayotganligiga yana bir dalil sifatida ko'rsatish mumkin.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Eron nafaqat Rossiya bilan madaniy aloqalarni rivojlantirib bormoqda, balki O'zbekiston bilan ham madaniy jihatdan keng aloqalarni yo'lga qo'ygan. Buning amaliy ahamiyati sifatida O'zbekistonning Eron elchixonasi Madaniyat markazi tomonidan "Sino" nomli ilmiy-adabiy, falsafiy-irfoniy va ma'naviy-ma'rifiy jurnal har uch oyda chop etilayotganligini ta'kidlash lozim. Jurnal bosh muharriri Ibrohim Xudoyor shunday deydi: "Ikki mushtarak rishtalarni bog'lash, ikki madaniyat o'rtasidagi aloqalarni tiklash va ikki xalqning ma'naviy taraqqiyotiga baholi qudrat hissa qo'shish masadida ushbu jurnalni nashr etishga jazm etdik." Chindan ham bu jurnal tarixan madaniyatlari bir bo'lgan ikki xalqning umumiy madaniy merosini o'rganish, yoritish va bayon etishda g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, Eronning Rossiya bilan siyosiy va iqtisodiy aloqalar qatori madaniy va ilm-fan sohasidagi hamkorlik ham yuqori darajada rivojlanib kelmoqda. Ilm-fan sohasidagi hamkorlikni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Turli ilmiy kitoblarni nashr etish.
2. Turli ilmiy anjumanlarni o'tkazish.
3. Ilmiy safarlarni amalga oshirish.

Madaniyat sohasidagi hamkorlik esa ko'rgazmalar tashkil etish, festivallar va boshqa madaniy tadbirlar o'tkazish bilan rivoj topib bormoqda. Bundan tashqari islom ta'siridagi Eron madaniyatining Rossiyani turli hududlarida, xususan Volgabo'yida yashovchi xalqlarga ko'rsatib kelgan ta'siri natijasida bu hudulardagi madniyat bilan Eron madaniyatining o'zaro aloqalari juda mustahkam ekanligini kuzatish mumkin va aynan shu narsa har ikki davlatni madaniy jihatdan bo'g'lab turuvchi omil hisoblanadi. Bu borada Eronning Rossiyaga nisbatan madaniy va ma'naviy sohadagi tashqi siyosatini olar ekanmiz, eronliklar Rossiyaning juda faol o'rganmoqdalar. Madaniy aloqalar ham o'tgan asrning so'ngi o'n yilligiga qaraganda yuqori darajaga ko'tarilganligi, har qanday iqtisodiy-siyosiy munosabatlarga qaramay ilmiy-madaniy rivojlanish olg'a borayotganligini ko'rsatadi. Buni Eronda nashr etilayotgan gazeta va jurnallarda rossiyalik mutaxassislar fikrlari, ularning faoliyatlari keng yoritilayotganligi hamda ularning kitoblari ommaviy tarzda fors tiliga tarjima qilinayotgani fikrimizni yaqqol dalilidir. Kelgusida bu sohada ham istiqbolli yo'nalishlarni izlab topish, hamkorlikni yanada kuchaytirish mo'ljallangan.

XULOSA

Ushbu magistrlik dissertatsiyasida Eron va Rossiya aloqalari tarixini, tashqi siyosatdagi o'zaro munosabatlarini tadqiq etish, ularning Yaqin va O'rta Sharqdagi siyosatini tahlil etish, mintaqadagi nizolarni hal etishda Eron-Rossiya aloqalarining roli va ahamiyatini o'rganish asnosida quyidagi xulosalarga kelindi: ikki davlat o'zaro munosabatlari qariyb besh yuz yillik tarixga ega ekanligidan kelib chiqilsa, ularning bu mintaqadagi manfaatlari deyarli besh yuz yildan beri to'qnash kelayotganligi va bu davr mobaynida ular o'rtasidagi munosabatlar turlicha ko'rinish va ahamiyat kasb etganligini ko'rish mumkin. Xalqaro maydondagi siyosiy vaziyatni o'zgarishi, har ikki davlatda ham boshqaruv tizimini isloh etilishi natijasida ularning ichki va tashqi siyosiy maqsadlari o'zgarishi, mintaqa doirasida yuz bergan turli nizo va tortishuvlarda manfaatlar to'qnash kelishi, har ikkisidan birining qo'shni davlatlar bilan yoki o'zaro olib borgan urushlari kabi juda ko'p tarixiy va siyosiy jarayonlar Eron-Rossiya munosabatlarini qattiq sinovdan o'tkazgan va har qanday sharoitda ham bu ikki davlat yaxshi qo'shnichilik aloqalarini saqlab kelganligini tarixiy faktlar asosida guvohi bo'ldik.

Ular o'rtasida XIX asrdan boshlangan Kavkaz muammosi, har ikki davlat manfaatlari to'qnashgan va mintaqadagi o'zaro munosabatlarda geopolitik va strategik jihatdan g'oyat muhim hudud bo'lib qolaverdi. Eron va Rossiyaning bu masalada doimiy to'qnash kelishi asosan ikki sababga ko'ra baholanadi, ya'ni birinchisi siyosiy jihatdan ustunlikka erishish, mintaqadagi geopolitik vaziyat taqozosi va strategik xavfsizlikni ta'minlashdan iborat bo'lsa, ikkinchisi, Kavkaz mintaqasi orqali Yaqin va O'rta Sharqda o'z ta'sir doirasini kuchaytirishga bo'lgan intilishlardir.

Mustamlakachilik ekspansiyalarining so'ngi davri Eronni ham chetlab o'tmadi. Uning yetakchi davlatlar tomonidan okkupatsiya qilishga urinishi, ingliz va nemis diplomatlarining "nag'malariga" ishonib eng yaqin hamkori bo'lgan Chor Rossiyasiga bir necha bor uyushtirgan hujumlari faqatgina uning

zarariga ishladi. Asli maqsadi Kaspiy dengiziga egalik qilish bo'lgan Angliya hukumatining bu nayranglarini keyinroq tushunib yetgan Eron shohi XX asrning dastlabki yillarida Rossiya bilan faol munosabatlarni yo'lga qoyishga harakat qilgan edi. Lekin Ikkinchi jahon urushi boshlanishi arafasida fashistlar tomonidan olib borilgan ayyorona diplomatik munosabatlar Eron shohini gitlerchilarni qo'llab-quvvatlashga undaydi. Rossiya hukumati Eronni bu yo'lda ogohlantirib, fashistlarning asl maqsadlarini bayon etganidan so'ngina shohni qo'llash pozitsiyasiga o'tadi. Bu esa 1943-yil Tehron konferensiyasini hamda unda Antanta davlatlarining Eronni o'z hamkorlari sifatida tan olishi bilan yakun topadi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng Eron-Rossiya munosabatlari yangitdan tus ola boshlaydi. Lekin urushda g'olib davlat sifatida Rossiyaning xalqaro maydonda obrosini oshishi va o'zini harbiy jihatdan yanada mustahkamlashga bo'lgan harakatlari uning sobiq ittifoqchisi AQSh va uning boshchiligidagi ayrim g'arb davlatlari bilan dushmanlik kayfiyatini keltirib chiqaradi. Bunday sharoitda AQSh Yaqin va O'rta Sharqdagi Rossiyaning asosiy hamkori bo'lgan Eronni unga qarshi plotsdarmga aylantirish uchun faol harakat qila boshlaydi. Bu borada Eronga juda ko'plab harbiy shartnomalarni imzolatishga ham muvaffaq bo'ladi. Dunyo amalda ikki qutbga bo'lingan sharoitda ham Rossiya Eron bilan munosabatlarni butunlay uzib qo'yganligini ko'rmaymiz. Aynan shu narsa bu ikki davlatni har qanday sharoitda ham mintaqaviy manfaatlarni hisobga olgan holda munosabatlarni saqlab kelganligiga dalil bo'ladi.

1979-yili Eronda islom inqilobi g'alabaga erishgach mamlakat yangi islomiy respublika ko'rinishiga o'tdi va Humayniy g'oyalari asosida olib borilayotgan siyosat natijasida AQSh boshchiligidagi barcha g'arb davlatlari bilan munosabatlar to'xtatib qo'yildi. Bu esa o'z navbatida muntazadagi yetakchi davlat sifatida Rossiyaning Eron tashqi siyosatida o'rni va rolini yanada oshishini ta'minladi. SSSR parchalangach Eron hukumati Rossiyaning o'zining asosiy strategik hamkori sifatida belgilash imkonini berdi. Bunday hamkorlik asosan Eronning uzoq yillardan beri amalga oshmay kelayotgan yadro dasturini ro'yobga chiqarish bilan bog'liq edi. Nafaqat yadro dasturini

amalga oshirish, balki Eron Rossiya bilan munosabatlarni yangi bosqichga ko'tarishda o'zi uchun muhim bo'lgan juda ko'p maqsadlarni rejalashtirgan. Mintaqaviy xavfsizlik, Kaspiy dengizi borasidagi huquqlarni tartibga solish, Kavkaz va Markaziy Osiyo respublari bilan munasabatlar, Eronga nisbatan xalqaro xavf avj olib borayotgan bir sharoitda ishonchli harbiy hamkor va qurol-yarog' ta'minotchisi kabi maqsadlari shular jumlasidandir. Eron Rossiya bilan quruqlikda umumiy chegaralarga ega emasligi ma'lum. Lekin ularning asosan uchta hudud – Kavkaz, O'rta Osiyo va Afg'oniston borasidagi manfaatlarida umumiylik bor. Chunki bu mintaqalardagi vaziyat ularning har ikkisiga ham birday tushunarli, ya'ni ularning qiziqishlari va xavfsirashlari doirasida. Shuning uchun ham Rossiya Eron yadro dasturini amalga oshirish va harbiy hamkorlik qilish uchun uning tashqi siyosatida juda muhim o'rin tutadi. Eronning Rossiya bilan aloqalari rivojlanishi uning so'ngi davrdagi strategik qiziqishlari va tashqi siyosat yo'nalishining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Harbiy-texnik, iqtisodiy va savdo sohasidagi Rossiya-Eron hamkorligi ham ulkan imkoniyatlar va istiqbolga egadir. Buni Rossiya manfaatlari nuqtai-nazaridan ham kelib chiqib aytishimiz mumkin. Eron bilan iqtisodiy aloqalarning strategik ahamiyati Rossiya uchun g'oyat muhim bo'lib, bu davlat O'rta Sharqda Rossiyaning yirik savdo sherigi bo'lishi bilan birga Rossiya texnologiyalari, transport vositalari, metall va nometall mahsulotlarini qo'shni davlatlarga olib o'tish uchun muhim tranzit yo'li ham hisoblanadi. Bundan tashqari, Eron-Rossiya Kaspiy mintaqasi va bu yerdagi qazilma boyliklar, uglevodorod zahiralar hamda ularni transportirovka qilish, janubiy-sharq yo'nalishi bo'yicha milliy va xorijiy mahsulotlarni tashish “yo'lagini” tashkil etishda ham manfaatlar mushtarakligiga ega. Rossiyaning Eron bilan neft-gaz sohasida olib borayotgan hamkorligi, xususan Rossiya uchun iqtisodiy manfaatli bo'lgan uglevodorod xom-ashyosini tashish “yo'lagi”ni barpo etishdagi harakatlari Markaziy va Janubiy Osiyo hamda Yaqin va O'rta Sharqda Rossiyaning tashqi siyosiy pozitsiyasini yanada mustahkamlaydi va umuman olganda bu mintaqadagi energetik xavfsizlikni mustahkamlashga qodir bo'ladi. Shundan kelib chiqqan

holda, ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirishdan nafaqat Eron, balki Rossiya uchun ham undan kam bo'lmagan manfaatdorlikka ega ekanligi bilan ahamiyatlidir.

Umuman olganda, bugungi xalqaro siyosiy vaziyatda Eronga nisbatan AQSh ittifoqchiligidagi G'arb davlatlarining tazyiqlari to'xtovsiz bo'lib turgan bir sharoitda, bundandan tashqari mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, o'zaro iqtisodiy-siyosiy va harbiy yordam ko'rsatish borasida Eron doimo bu mintaqadagi yetakchi davlat sifatida Rossiyaning yordamiga, qo'llab-quvvatlashi va hamkorligiga muhtoj ekanligini namoyon b'lmoqda. Shundan kelib chiqib Eron tashqi siyosatida Rossiyaning roli kundan-kunga oshib borayotganligini o'tgan ikki o'n yillik davomida har ikki davlatning iqtisodiy, siyosiy, ilmiy-texnik, madaniy va eng asosiysi harbiy sohalardagi aloqalar rivojidan deb ayta olamiz. Rossiya uchun Eron nafaqat iqtisodiy-siyosiy hamkor, balki mintqa nuqtai-nazarida, bu yerdagi xavfsizlik va uni ta'minlash borasida, shuningdek, xalqaro masalalarda umumiy pozitsiyaga ega bo'lgan qarashlar bilan ham muhim sherik hisoblanadi. Shuning uchun ham so'ngi ikki o'n yillikda Rossiyaning Eron bilan munosabatlari yuqori darajaga ko'tarilganini ko'rishimiz mumkin. Bu borada Rossiya prezidenti Vladimir Putinning Eronni Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo bo'lish istagini bildirgani bilan tabriklagani muhim ahamiyatga egadir. Chunki xalqaro tashkilotlarda ham Rossiya-Eron manfaatlari doimo mushtarak bo'lib kelgan.

Eron-Rossiya aloqalari shakllanishining iqtisodiy va madaniy jihatlari boshqa aloqalarga nisbatan (harbiy, energetik) o'zgacha tus oldi. XX- asrning 90-yillardan iqtisodiy va madaniy aloqalar tarixiy tajribadan kelib chiqqan holda imzolangan bitimlar asosida rivojlanib keldi. Bu sohalarning ba'zisida to'xtalishlar yuz bergan bo'lsada, lekin salbiy oqibatlarga olib kelmagan.

Eron sobiq prezidentlari H. Rafsanjoni davrida Rossiya bilan asosan iqtisodiy sohada yutuqlarga erishilgan bo'lsa, M. Hotamiy davriga kelib esa iqtisodiy va madaniy aloqalar omili juda ham sezilarli darajada ko'zga tashlanadi. O'z navbatida Ahmadiy Najod prezidentligi davriga kelib bu

munosabatlar asosan harbiy va yadro dasturini yanada rivojlantirishga qaratilayotganligini kuzatish mumkin. Aynan shu narsa bugungi kunga kelib ikki davlat aloqalarini qaytadan ko'rib chiqish, ularni yadro borasida olib borayotgan hamkorliklarini faqat tinchlik maqsadida ekanligini yana bir bor jamoatchilik oldida isbotlashni talab etmoqda. Chunki Ahmadiy Najod faoliyatiga e'tibor qaratsak, u yadro dasturi masalasida Eronning boshqa prezidentlariga qaraganda ko'proq harakat qilayotganligini ko'rish mumkin. Aynan shuning natijasi o'laroq 2010-yili 9-iyunda BMT Xavfsizlik Kengashining 12-majlisida Eronga nisbatan yangi sanksiya e'lon qilinganligi bejiz emas. Bundan tashqari AQSh boshchiligidagi G'arb davlatlarining talabi bilan ushbu sanksiyasini Rossiya tomonidan ma'qullanishi va prezident D.Medvedev ko'rsatmasi bilan 166 million dollarlik «S-300» rusumli antiraketa tizimini Eronga sotish haqidagi shartnomani to'xtatib qo'yilishi ikki tomonlama munosabatlarda biroz uzilishni yuzaga keltirdi. Albatta bu ish Rossiyaga nisbatan g'arb davlatlarini qattiq bosimi va bunday sharoitda Rossiya o'z manfaatlari doirasidan kelib chiqqan holda ushbu sanksiyani ma'qullagani uning yadro borasidagi Eron bilan faoliyatini ma'lum vaqt to'xtatish istagidan dalolat beradi. Chunki sanksiyani ma'qullash borasidagi Rossiya Tashqi ishlar vaziri Sergey Lavrovning so'zlariga qarganda, Eron ega bo'lishga intilayotgan yadro quroli keyinchalik Rossiya uchun ham butun g'arb davlatlari tomonidan yangi xavfni yuzaga keltirishi mumkinligi va bu harakatlar faqatgina tinchlik maqsadida bo'lsagina davom ettirilishini ta'kidlamogda. So'ngi yillarda Eronning yadro borasidagi intilishlarini kuchayganligi nafaqat Rossiya bilan, balki O'rta Osiya davlatlari, xususan O'zbekiston bilan ham "mintaqaviy qo'shni"chilik borasidagi munosabatlarda keskinlikni yuzaga keltirish ehtimollarini tug'dirmogda. Bu borada Rossiya Tashqi ishlar vaziri Sergey Lavrovning "Eron bilan har qanday munosabatlar, jumladan yadro borasidagi hamkorlik ham faqat tinchlik maqsadidagina amalga oshiriladi" degan so'zlari diqqatga sazovordir.

Shu to'xtamlardan kelib chiqib, Yaqin va O'rta Sharqda barqarorlikni ta'minlash, mintaqaviy xavfsizlik holatini mustahkamlash Eron va Rossiya hamkorligini asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Aynan mazkur omil kelgusida ikki davlatning siyosiy, iqtisodiy, harbiy va madaniy hamkorligini kengayishida va barqaror rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois, avvalo, ikki davlat ommaviy qirg'in qurollarini terroristik guruhlar qo'liga tushib qolmasliklarini oldini olish, Yaqin Sharq mamlakatlarida siyosiy barqarorlikni ta'minlashga ko'maklashish, turli diniy va ayirmachilik guruhlariga qarshi birgalikda kurash siyosatini olib borishmoqda. Bu esa Eron-Rossiya hamkorligining istiqbollari belgilab berishda muhim o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

- 1.1. Karimov I. A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – 364 b.
- 1.2. Karimov I. A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – 380 b.
- 1.3. Karimov I. A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – 366 b.
- 1.4. Karimov I. A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. T.5. – Toshkent: O'zbekiston, 1997. – 384 b.
- 1.5. Karimov I. A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6. – Toshkent: O'zbekiston, 1998. – 429 b.
- 1.6. Karimov I. A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. – Toshkent: O'zbekiston, 1999. – 376 b.
- 1.7. Karimov I. . Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. – 432 b.
- 1.8. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – Toshkent: Sharq, 1998. – 31 b.
- 1.9. Karimov I. A. O'zbek xalqi hechqachon hech kimga qaram bo'lmaydi. T.13. – Toshkent: O'zbekiston, 2005. – 264 b.
- 1.10. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1997. – 326 b.

2. Asosiy adabiyotlar

- 2.1. Cohen A. Russia's New Middle Eastern Policy: Back to Bismarck? // Jerusalem Issue Brief. Institute for Contemporary Affairs: – Vol.6. – №.25. March 20. 2007. – 185 p.

- 2.2. Klare M.T. Resource Wars. The New Landscape of Global Conflict. – New York: Published by Star. 2002. – 211 p.
- 2.3. Lena Jonson. Vladimir Putin and Central Asia, the shaping of Russian Foreign Policy. – London: Publications of Foreign Affairs, 2004. – 118 p.
- 2.4. See Afsaneh Ahadi and Saghafi Ameri. Iran and the Look to the East Policy. – Tehran. Center for Strategic Research. 2008. – 158 p.
- 2.5. See Jahangir Karami. Iran and Russia Relations; New Age of Cooperation. – Tehran: Publications of the Ministry of Foreign Affairs. 2009. – 312 p.
- 2.6. Agaev S. L. Iran: vneshnyaya politika i problemi nezavisimosti – Moskva: Nauka, 1996. – 412 s.
- 2.7. Ataev X. A. Torgov ekonomicheskie svyazi Irana s Rossiey v XVSh-XIX vv. – Moskva: Nauka, 1991. – 136 s.
- 2.8. Bagdasarov S. B. i Chavushyan A. N. Voennyi i voenno ekonomicheski potentsial stran Blijnego i Srednego Vostoka.(informasionno-analiticheskiiy spravochnik, sovmestno s IV RAN). – Moskva: Asti, 1998. – 112 s.
- 2.9. Ivanov I. S. Novaya Rossiyskaya diplomatiya. Desyat let vneshney politiki strani. – Moskva: Nauka, 2001. – 210 s.
- 2.10. Istyagin L. G. Germanskoe proniknovenie v Iran i russko-germanskoe protivorechiya nakanune pervoy mirovoy voyni. – Moskva: Nauka, 1979. – 342 s.
- 2.11. Kukanova N. G. Ocherki po istorii russko-iranskix torgovix otnosheniy v XVII-perviy polovine XIX vv. – Saransk. 1977. – 182 s.
- 2.12. Nikonova N. M. K istorii russko-iranskix otnosheniy. Vestnik Astraxanskogo gosudarstvennogo texnicheskogo universitet. Sbornik nauchnix trudov. Gumanitarnie nauki / – Astraxan: Izd. AGTU, 1998g. – 293 s.
- 2.13. Orlov Ye. A. Xronika otnosheniy RF (SSSR) s IRI. – Moskva: Nauka, – 206 s.
- 2.14. Pokrovskiy M. N. Diplomatiya i voyni sarskoy Rossi v XIX stoletii. – Moskva: Nauka, 1923. – 184 s.
- 2.15. Reza Gods. Iran v XX veke. Politicheskaya istoriya. – Moskva: Nauka, 1994. – 312 s.
- 2.16. Saber M. Pozisiya Irana otnositelno Kaspiyskogo morya // Issledovaniya Sentralnoy Azii i Kavkaza (periodicheskoe izdanie). 2007. – №60. – 296 s.

- 2.17. Sajin V. I. Rossiya i Iran: problemi strategicheskoy perspektivi // Islamskaya respublika Iran v 90-e godi (ekonomika, politika, kultura). – Moskva: Nauka, 1998. – 30 s.
- 2.18. Salixova Dinara Bagauddinova. Rossiysko-iranskie otnosheniya vo vtoroy chetverte XIX veka. – Maxachkala: Rodina, 2007. – 184 s.
- 2.19. Saruxanyan S. Rossiya i Iran: 10 let yadernogo sotrudnichestva. – Yerevan: 2006. – 90 s.
- 2.20. Safari M. Sentralnaya Aziya i Kaspiyskoe more // Issledovaniya Sentralnoy Azii i Kavkaza. – Moskva: Nauka, 2003. – № 43. 78-92 s.
- 2.21. Sklyarov L. Ye. Rossiya i Iran v 90-e godi: noviy etap vzaimootnosheniy // Islamskaya respublika Iran v 90-e godi (ekonomika, politika, kultura). – Moskva: Nauka, 1998. – 50 s.
- 2.22. Sovetsko-iranskie soglasheniya v dogovorax, konvensiyax i soglasheniyax. – Moskva: Izdatelstvo MID SSSR, 1946. – 87 s.

3. Qo'shimcha adabiyotlar

- 3.1. Agha-Mohammadi, Ali (2011): in: "Iran plans to expand relations with BRICs", in: *Middle East Media Research Institute* 18 April 2011, accessed on 20.12.2011. – 65 p.
- 3.2. Archbold W. A. Afganistan, Russia and Persia. The Cambridge History of the British Empire. – Cambridge: 1929. – V. IV. – 328 p.
- 3.3. Kazantsev, Andrei (2008): "Russian Policy in Central Asia and the Caspian Sea Region", in: *Europe-Asia Studies* – Vol.60, – No.6: 1073-1088. – 106 p.
- 3.4. Satanovksy, Yevgeny (2006): quote from Izvestiya 14 August 2006. in: Parker, John W. 2009. *Persian Dreams. Moscow and Tehran Since the Fall of the Shah*. Washington: D.C.: Potomac Books, Inc.: – 291 p.
- 3.5. Agaev S. L. Iran v proshlom i v nastoyayem Moskva, – Moskva: Nauka, 1981; On je. Iranskaya revolyusiya, SShA i mejdunarodnaya bezopasnost. – Moskva: Nauka, 1984. – 354 s.
- 3.6. Ataev X. A. Torgovo-ekonomicheskie svyazi Irana s Rossiey v XVIII-XIX vv. – Moskva: Nauka, 1991. – 241 s.
- 3.7. Baziyans A. P. Dolgiy put ot Tegerana do Sankt-Peterburga. – Moskva: Ros. Sentr strateg i mejdun. Issled, 1997. – 112 s.
- 3.8. Bjezinskiy Z. Velikaya shaxmatnaya doska: gospodstvo Ameriki i yego geostrategicheskie imperativi. – Moskva: Nauka, 1998. – 213 s.

- 3.9. Galbasova Sh. S. K voprosu ob istorii politicheskix i ekonomicheskix otnosheniy Rossii i Irana v XIX-XX vv. // Vestnik Dagestanskogo gosudarstvennogo universiteta. – Vip.4. – Maxachkala: 2012. – 186 s.
- 3.10. Galbasova Sh. S. Nekotore aspekti rossiysko-iranskogo ekonomicheskogo sotrudnichestva na sovremennom etape // Izvestiya Rossiyskogo gosudarstvennogo pedagogicheskogo universiteta i Moskva, A. I. Gersena. SPb., 2009. – № 101. – 203 s.
- 3.11. Galbasova Sh. S. Rossiysko-iranskije otnosheniya kak faktor stabilnosti v Prikaspiyskom regione // Vestnik Dagestanskogo gosudarstvennogo universiteta. Vip.4. – Maxachkala: 2011. – 130-133 s.
- 3.12. Djaigiryan V. G. Sotsialno-ekonomicheskoe razvitie Rossii v pervoy polovine XIX veka. – Moskva: Izd-vo Un-ta drujbi parodov, 1986. – 96 s.
- 3.13. Djami M. Znachenie energeticheskix zapasov Kaspiyskogo morya v obespechenii bezopasnosti mira i prepyatstviya transportirovki ix na mirovie rinki // Issledovaniya Sentralnoy Azii i Kavkaza (periodicheskoe izdanie). 2008. – №62. – 112 s.
- 3.14. Djaxiev G. A. Rossiya i Dagestan v nachale XIX. v.: Dagestan v russko-iranskix i russko-tureskix otnosheniyax. – Maxachkala: 1985. – 324 s.
- 3.15. Durmanova N. M. Rossiysko-iranskije otnosheniya // Vestnik Astraxanskogo gosudarstvennogo texnicheskogo universitet. Sbornik nauchnix trudov. Gumanitarnie nauki /Astraxan: Izd. AGTU, 1998g., – 89 s.
- 3.16. Yenikolopov I. K. A. S. Griboedov v Gruzii i Persii. Istoriko-biograficheskij ocherk. – Tiflis: 1929. – 165 s.
- 3.17. Zaxoder B. N. Shirazskiy kupes na Povolje v 1438g. // Kratie soobsheniya Instituta vostokovedeniya AN SSSR. – Moskva: 1955. –177 s.
- 3.18. Ivashensov G. Rossiya-Iran: gorizonti partnerstva // Mejdunarodnaya jizn. – Moskva: Nauka, 2004. – № 10. – 87-90 s.
- 3.19. Ioanpisyanyan A. R. Prisoedinenie Zakavkazya k Rossii i mejdunarodnie otnosheniya v nachale XIX stoletiya. – Yerevan: 1958. – 185 s.
- 3.20. Iranskaya ekonomika i globalizatsiya // Aziya i Afrika segodnya. – Moskva: 2008. – № 4. 65 s.
- 3.21. Kasatkin D. Rossiya-Iran: novije orientiri nauchnogo i kulturnogo sotrudnichestva // Aziya i Afrika segodnya. 2007. – №12. – 53 s.
- 3.22. Korneyev V. V. Sentralnoaziatskiy region v voennoy politike Rossii (XV11I-nachalo XIX v.) // Vostok. – 2004. – № 4. – 78 s.

- 3.23. Kuznesova N. A. Iran v pervoy polovine XIX v. – Moskva: Nauka, 1983. – 205 s.
- 3.24. Kulagina L. M. Dunayeva Ye. V. Granisa Rossii s Iranom (Istoriya formirovaniya). – Moskva: Nauka, 1998. – 542 s.
- 3.25. Kulai E. Iran i Rossiya v period pravleniya Xatami // Vneshnyaya politika (periodicheskoe izdanie). – Tegeran: Farxang, 2005. – № 1. – 354 s.
- 3.26. Mamedova N. M. Sostoyanie i perspektivi razvitiya ekonomicheskix otnosheniy Rossii i Irana // Iran segodnya. – Moskva: Nauka, 2006. – № 1. – 145-152 s.
- 3.27. Muxaev R. T. Politologiya. – Moskva: Izdatelstvo PRIOR, 2002. – 432 s.
- 3.28. Pashuto V.T. Diplomaticheskaya deyatelnost A. S. Griboedova // Istoricheskie zapiski. – Moskva: Nauka, 1947. – 203 s.
- 3.29. Petrov A. Rossiya-Iran. Chto pokazivaet barometr ekonomicheskogo sotrudnichestva // Aziya i Afrika segodnya. 2000. – №10. – 209 s.
- 3.30. Sanai M. Irano-rossiyskie svyazi: problemi i perspektivi // Rossiya v globalnoy politike. T.5. – Moskva: Nauka, 2007. – №2. – 172-175 s.
- 3.31. Sanai M. Vzaimootnosheniya Irana i stran Sentralnoy Azii: istoriya i sovremennost. – Almati: 2010. – 172 s.
- 3.32. Safari M. Sentralnaya Aziya i Kaspiyskoe more // Issledovaniya Sentralnoy Azii i Kavkaza. 2003. – № 43. – 95 s.
- 3.33. Tagi-Zade G. S. Vzaimootnosheniya SSSR i Irana v oblasti nauchnix i kulturnix svyazey na rubeje 2000-x gg. XX v. // Sovremennaya iranistika na Severnom Kavkaze: Materiali mejdunarodnoy nauchnoy konferensii IPS DGU. – Maxachkala: 2006. – 57-58 s.
- 3.34. Tagizade G. S. Rossiya i Iran, perspektivi sotrudnichestva na sovremennom etape // Irano-dagestanskije kulturno-istoricheskie svyazi. – Maxachkala: 2006. – 212 s.
- 3.35. Turkmanchayskiy dogovor Rossii s Persiey 1828 g i gibel AS Griboedova // Nauchnoe obozrenie Sbornik statey assotsiasii molodix uchenix Dagestana – Maxachkala: 2005. – Vip №19. – 47 s.
- 3.36. Ulchenko N. Yu., Mamedova N. Osobennosti ekonomicheskogo razvitiya sovremennix musulmanskih gosudarstv (na primere Tursii i Irana). – Moskva: Nauka, 2006. – 231 s.
- 3.37. Fedkjin Ye. V. Nauchno-texnicheskoe sotrudnichestvo RF i IRI: pravovaya baza i programmnie dokumenti/E. V. Fedyukin/LZestnik NNGU. Seriya Mejdunarodnie otnosheniya, politologiya, regionovedenie. 2005. – Vip.1.

- 3.38. Fedyukin, Ye. V. Rossiysko-iranskie dogovorennosti po sotrudnichestvu v yadernoy sfere (1989-2003 gg.) /E. V.Fedyukin //Nijegorodskiy jurnal mejdunarodnix issledovaniy. 2005. osen-vesna.
- 3.39. Xatami M. Islam, dialog i grajdanskoe obshchestvo. – Moskva: Nauka, 2001. – 256 s.
- 3.40. Xomeyni imam. Moskva: Put k svobode (rechi i zavety). – Moskva: Nauka, 1999. – 64 s.

4. Davriy matbuot nashrlari.

- 4.1. Yadovare-ye Fadjr, izdavaemom pri podderjke Kulturnogo predstavitelstva IRI v Moskve. 1991 g., mesyats noyabr, – 12-14 c.
- 4.2. Aziya i Afrika segodnya. – Moskva: 2003. – №4.
- 4.3. Amu-Dariya. – №3. 1999.
- 4.4. Amu-Dariya. – №3. 2001.
- 4.5. Vostok. Orient. 2000. – №6.
- 4.6. Vostok. Orient. 2002. – №5.
- 4.7. Diplomaticheskij vestnik. – Moskva: dekabr, 1999.
- 4.8. Iran segodnya: nauchnoe, kulturnoe i istoricheskoe izdanie Kulturnogo predstavitelstva pri Posolstve Islamskoy Respubliki Iran v Rossiyskoy Federasii. – Moskva: 2006. – №1.
- 4.9. Keyxan. – Tegeran: 2003.
- 4.10. Mejdunarodnaya jizn. – №1-2. 1998.
- 4.11. Persiya. 2002. – №2.
- 4.12. Rossiya i musulmanskiy mir. – №1. 2001.
- 4.13. Rossiya i musulmanskiy mir. – №6. 2001.
- 4.14. Rossiya i musulmanskiy mir. – №8. 2000.
- 4.15. Tretiy vzglyad. Novosti, reportaji i kommentarii iz iranskoy pressi. Posolstvo Islamskoy Respubliki Iran v Moskve. Press otdel – №68 (noyabr).
- 4.16. Etteloot. – Tegeran: 2000. Sentabr.

5. Internet manbalari

- 5.1. http://www.frinc.org/snp/books/russia_orient/iran.html
- 5.2. http://world.ng.ru/azimuth/2001-03-01/2_iran.html
- 5.3. <http://www.caucasus.dk/spravka/13mar2001/322.htm>
- 5.4. <http://www.idsa-iran.org/full/143167.html>

- 5.5. <http://www.payvand.com/news/04/mar/1195.html>
- 5.6. <http://www.iran-daily.com/1388/3414/html/economy.htm#s383292>
- 5.7. <http://www.globalsecurity.org/wmd/library/news/iran/2010/iran-100625-voa01.htm>
- 5.8. <http://www.economy.gov.ru>
- 5.9. <http://ru.rusiran.com>
- 5.10. <http://www.vesti.ru>
- 5.11. <http://newzz.in.ua>
- 5.12. <http://www.inosmi.ru>
- 5.13. <http://ru.wikipedia.org>
- 5.14. <http://www.rusembiran.ru>
- 5.15. <http://www.apn.ru>
- 5.16. <http://www.customs.ru>
- 5.17. <http://www.russiran.com>
- 5.18. <http://www.gks.ru>
- 5.19. <http://www.president.ir>